

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**



K.S. BEYSENOV

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
JAZONI IJRO ETISH FAOLIYATI
O'QUV QO'LLANMA**



TOSHKENT – 2024

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Ilmiy kengashida ma’qullangan.

Tuzuvchi:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, podpolkovnik **K.S. Beysenov**

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Jazoni ijro etish departamenti Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik **J.X. Sultonov**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasи dotsenti, yuridik fanlari nomzodi, dotsent,
podpolkovnik **J.S. Muxtorov**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus kasbiy fanlar kafedrasи dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi, polkovnik
Z.R. Umarov

B-41 Ichki ishlar organlarida jazoni ijro etish faoliyati. O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti 2024. – 133 b.

O‘quv qo‘llanmada jazoni ijro etish muassasalari faoliyatining hozirgi holati va istiqboldagi vazifalari, ozodlikdan mahrum qilish, jazoni ijro etish muassasalari, jazoni ijro etish muassasalaridagi rejim, koloniyalar va turmalarda jazoni o‘tash, jazo ijrosini tashkil etish, jazoni o‘tashdan ozod qilish to‘g‘risida ma’lumotlar keng yoritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutida jazoni ijro etish xizmati yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oluvchi tinglovchilarga hamda ichki ishlar organlari jazoni ijro etish xizmati xodimlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun mo‘ljallangan.

UDK 343.211(575.1) (075.9)

© K.S. Beysenov 2024-y.

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024-y.

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohotlar va ularning samaralari 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ijrosi bilan bevosita bog‘liq, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ichki ishlar organlari tizimida, xususan, jazoni ijro etish yo‘nalishida aniq, tizimli yondashuvga asoslangan keng ko‘lamli ishlarning amalga oshirilayotgani haqida ham ana shunday fikr bildirish mumkin. Milliy qonunchiligidan, jumladan, mahkumlarning huquqlarini ta’minlashga oid normalarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

birinchidan, 2019-yildan boshlab, ijtimoiy xavfi hamda uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlarni sodir etib, jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarga ilk marotaba saylash huquqi berildi;

ikkinchidan, umumiyligi, qattiqligi, maxsusligi, turma tartibli va tarbiya muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarning yaqin qarindoshlari bilan telefon so‘zlashuvlari, uchrashuvlar hamda jo‘natma qabul qilishlar soni qariyb ikki barobarga ko‘paytirildi;

uchinchidan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning roziligi bilan ularga psixologik yordam ko‘rsatilishi hamda ruhiy holati buzilgan vaqtda sodir etilgan tartibbuzarligi uchun intizomiy jazo choralarining qo‘llanilmasligi kafolatlandi;

to‘rtinchidan, manzil-koloniyalarda jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarning pensiya olish huquqlari qonun bilan belgilandi;

beshinchidan, jinoyat-ijroiya kodeksiga jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning rag‘batlantirish choralarini qo‘llash tartibini belgilovchi yangi norma kiritildi;

oltinchidan, mahkumlarning jazo muddatini o‘tash davomida shaxsiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan choralar kengaytirildi;

yettinchidan, mahkumlarning iltimosiga ko‘ra, uzoq muddatli uchrashuv qisqa muddatli uchrashuvga yoki masofali video-uchrashuvga yoxud telefon orqali so‘zlashuvga, qisqa muddatli uchrashuv esa masofali video-uchrashuvga yoki

telefon orqali so‘zlashuvga almashtirilishi yo‘lga qo‘yildi hamda jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning olis masofadan keluvchi yaqin qarindoshlari ovoragarchiliga barham berish maqsadida masofali uchrashuvlar xonalari tayyorlandi;

sakkizinchidan, kam ta’minlangan oila vakili bo‘lgan jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar yuqori haq to‘lanadigan ishlarga jalb etilishi ta’minlandi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mahkumlar, jazoni o‘tab chiqqan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta’minot va xalqaro e’tirof etilgan boshqa huquqlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi hamda jamiyatga reintegratsiyasiga ko‘maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, jazo tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari taraqqiyotining eng asosiy va zarur sharti sifatida qayd etildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirish vazifasi sud-huquq tizimidagi islohotlarning bosh mezoni sifatida mustahkamlandi.

2023 yilning 30 aprelidagi Referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinib, unda xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalari asosida insonning huquq va erkinliklari kafolatlanishi, shuningdek, o‘lim jazosining taqiqlanishi belgilab berildi.

Shuningdek, respublikamizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish sohasida xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida Ichki ishlar vazirligi tizimidagi jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning huquqiy holati belgilangan bo‘lib, ularning huquq va erkinliklariga rioya etish, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarni statistik ma’lumotlar bilan izohlash va mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnining aniq ifoda etilishini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagি

tegishli qaroriga muvofiq yopiq hisoblangan ayrim ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar ro'yxatiga kiritildi.

Eng muhimi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga jazoni ijro etish koloniyalari hech qanday moneliksiz kirish huquqi berildi. Jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning mavjud muammolarini o'rganish va ijobiy hal qilish maqsadida Jazoni ijro etish departamenti rahbariyati tomonidan sayyor qabullar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, jazoni ijro etish muassasalarida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga, prokurorga murojaatlari, ariza hamda shikoyatlari uchun mo'ljallangan alohida pochta qutilari o'rnatilgan. Qonunlarga rioya etilishi prokuratura organlari va Ombudsman tomonidan muntazam ravishda monitoringlar qilinib borilmoqda.

O'quv qo'llanmada jazoni ijro etish muassasalari faoliyatining hozirgi holati va istiqboldagi vazifalari, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalari, jazoni ijro etish muassasalaridagi rejim, koloniylar va turmalarda jazoni ijro etish xizmati tashkil etish, jazoni ijro etishdan ozod qilish to'g'risida ma'lumotlar keng yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutida jazoni ijro etish xizmati yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi tinglovchilarga hamda ichki ishlar organlari jazoni ijro etish xizmati xodimlariga tavsiya etiladi.

I-BOB. OZODLIK DAN MAHRUM QILISH

TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH

1.1-§. O‘zbekiston Respublikasida jazoni ijro etish muassasalari tarixi

O‘zbekiston hududida hozirgi tushunchadagi jazoni ijro etish koloniyalari faoliyati o‘lka chor imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyingina vujudga kela boshlagan. O‘shangacha Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida qadimdan qolgan zindonlar bor edi, xolos. Ularda jinoyat sodir etgan shaxslarga shariatdagi jazo tayinlanib, ijro etilguncha saqlab turilgan. Turkiston o‘lkasi chor imperiyasi tomonidan qurol kuchi bilan bosib olingach, mustamlakachilarga qarshi kurash kuchayib ketdi. Xalqning ozodlikka bo‘lgan intilishini so‘ndirish, yoshlarning qalbiga qo‘rquv solish, shuningdek, aholi orasida uchrab turadigan turli darajadagi jinoyatchilarni saqlab turish uchun ko‘p sonli jazoni ijro etish muassasalari tashkil etildi.

Ular Rossiya imperiyasida amalda bo‘lgan qonunlarga muvofiq faoliyat ko‘rsatgan, shuning uchun ham qoloq xonliklardagi zindonlardan ko‘ra sharoit birmuncha yaxshi edi. Biroq milliy ozodlik yo‘lida kurashgan vatanparvarlarning yoppasiga qamoqqa olinishi tufayli o‘lkada qamoqxonalar soni tezlik bilan ko‘payib borgan.

Xususan, XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatori qoshidagi maxsus mahkama o‘lkaning turli hududlarida joylashgan 67 ta qamoqxonani boshqarib turgan. Mazkur qamoqxonalar boshqaruviga mahalliy hokimiyat organlari ham jalb etilgan. Mahkulmlarning oziq-ovqat ta’minati, turmush sharoitlari esa maxsus tuzilgan vasiylilik kengashlari tomonidan qisman nazorat qilingan.

1917 yilda bo‘lib o‘tgan oktabr inqilobi tufayli sobiq Rossiya imperiyasining barcha hududlari kabi mazlum Turkiston zaminiga ham tinimsiz musibatlar yog‘ildi. O‘sha kungacha bir davlat, bir millat, bir el bo‘lib yashab kelgan xalqlar bir-biriga tig‘ ko‘tardi. Aka ukaga, ota bolaga, shahar qishloqqa, boy kambag‘alga qarshi qurol ko‘tarib chiqdi. O‘lkaning har bir qarich yerida birodarkushlik urushlari avj oldi. Hukumat boshqaruviga kelgan sho‘rolar tuzumi o‘zini

kambag‘alparvar, ezilgan xalqlarning himoyachisi qilib ko‘rsatish maqsadida qamoqxonalar darvozalarini lang ochib yuborishi natijasida minglab jinoyatchilar ko‘chaga chiqib ketdi. Bu holat qaltis bo‘lib turgan vaziyatni battar chigallashtirib, shaharu qishloqlarda o‘g‘rilik, talonchilik, bezorilik kabi jinoyatlarni avj olishiga sababchi bo‘ldi.

Fuqarolar urushida asosan rus askarlarining quroliga suyangan sho‘ro hokimiyati ozgina mustahkamlanib olgach, bir-ikki yil burun yopib tashlangan qamoqxonalarining barchasini qayta ishga tushirdi. Sho‘rolar tuzumining g‘oyalarini yoqlamagan yoki millatining erkin bo‘lishini xohlagan odam borki, shu qamoqxonalarga tashlandi. Qamoqxonalarining soni kamlik qila boshlagach, yana yangilari tashkil etildi. Xususan, bir vaqtning o‘zida o‘n minglab odamlarni saqlab turishga mo‘ljallangan konslagerlar tizimi qurildi. Ularga millatning guli bo‘lgan ziyyolilar, muqaddas islom dini namoyandalari, boy-badavlat savdogarlar, sanoatchi tadbirkorlar va mustaqil fikrga ega bo‘lgan har qanday inson jo‘natilar edi.

Sho‘rolar hukumatida dastlab ikki xil qamoqxona – tergov ostida bo‘lgan shaxslarni saqlashga mo‘ljallangan qamoq uylari hamda mahkumlarni saqlash uchun axloq tuzatish uylari tashkil etilgan. Qamoq uylari mahalliy ijroiya qo‘mitalari ixtiyorida, axloq tuzatish uylari esa qamoqxonalar boshqarmasi ixtiyorida bo‘lgan. Lekin eng ko‘p sonli mahkumlar revolyusion o‘zgarishlar uchun xavf soluvchi shaxslarni alohida saqlash uchun tashkil etilgan konsentratsion lagerlarda ushlab turilgan. Jahon afkor ommasini chalg‘itish uchun bunday lagerlar avvaliga mehnat koloniyalari, deb nomlangan¹.

Sho‘rolar tuzumining mudhish jinoyatlaridan yana biri shu ediki, jahon tarixida hech ko‘rilmagan, eng yovuz, eng zolim hukmdorning ham xayoliga kelmagan yangi turdag'i qamoqxonalar tashkil etildi. Jumladan, Maorif xalq komissarligi bilan qamoqxonalar boshqarmasi hamkorligida ta’sis etilgan va reformatorium deb nomlangan yangi qamoqxonada asosan balog‘atga yetmagan mahkumlar saqlanar edi. Hali aqli to‘lishmagan, suyagi qotmagan yosh bolalarni hibsda saqlayotganimiz yo‘q, aksincha, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatib, ta’lim

¹<http://iivjied.uz/uz/node/>

bermoqdamiz, deya jar solindi. Lekin, bu muassasalardagi shart-sharoit mavjud qamoqxonadagilardan deyarli farq qilmas edi.

O‘ta ko‘p sonli qamoq joylari turli idoralar qoshida mavjudligini e’tiborga olgan holda boshqaruvchilik vazifasi Adliya xalq komissariatining jazo bo‘limi zimmasiga yuklatilgan, u orqali esa mahkumlar konslager va boshqa qamoqxonalarga taqsimlangan edi.

Barcha qamoq joylarini birlashtirish va ularni boshqarishda yaxlitlik o‘rnatish maqsadida 1923 yilda Ichki ishlar Xalq komissarligining Qamoqxonalar boshqarmasi tashkil etilgan. Tarkibiga to‘rtta mustaqil bo‘lim va devonxona kirgan mazkur boshqarma zimmasiga ozodlikdan mahrum etish va majburiy mehnatga jalb etish jazosiga hukm etilganlarning hukmlarini ijro etilishi bo‘yicha umumiyoq rahbarlik qilish, barcha qamoqxonalarni boshqarish, mahkumlarni alohida saqlash va tarbiyaviy axloqiy mehnat ta’siri o‘tkazishning zaruriy choralarini qo‘llash yo‘li orqali jazo siyosatining asosiy qoidalarini hayotga tatbiq etish, bolalar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish va kichik yoshdagagi jinoyatchilar qamoqxonalarini boshqarish, qamoqxonalar va ulardagi mahkumlarni joylarga taqsimlash, qamoqxonalar uchun yo‘l-yo‘riqlar, Nizomlar, qo‘llanmalar, qoidalar ishlab chiqish, Ichki ishlar Xalq komissariatining ruxsati bilan yangi qamoqxonalar qurish vazifasi yuklatilgan edi.

O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishidan keyin 1924-yil oktabrda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi e’lon qilindi, 1924-yil 22-noyabrda esa O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Ichki ishlar xalq komissariati tashkil etildi, uning tarkibiga qamoqxonalar bo‘limi ham kiramiga bo‘ldi. 1994-yildan e’tiboran xuddi shu kun O‘zbekiston Respublikasida jazoni ijro etish tizimi kuni, deb qabul qilingan.

Bo‘lim o‘zining dastlabki kunlaridanoq penitensiar tizimini qayta qurishni, mahkumlarni turmada saqlashdan axloq tuzatish mehnat muassasalariga o‘tkazishni boshlaydi. Mahkumlar qishloq xo‘jalik ishlariga jalb etiladi, turli hunar bilan shug‘ullanadi, fabrika va zavodlarda ishlaydi. Mahkumlarni axloq jihatdan tuzatish va savodsizlikni tugatish asosiy vazifalardan biri, deb e’lon qilinadi.

Bu davrda jazoni ijro etish tartibi va shartlarini belgilovchi qator meyoriy – huquqiy hujjatlar, jumladan, 1924-yil 12-dekabrda dastlabki Axloq tuzatish – mehnat kodeksi qabul qilindi. U 1918-yildan buyon amalda bo‘lgan «Jazo choralari va uni o‘tash tartibi sifatida erkinlikdan mahrum etish haqidagi muvaqqat yo‘riqnomasi» o‘rniga kelgan edi.

Jazoni ijro etish tizimlarining davlat organlaridagi o‘rnini aniq belgilash jarayoni uzoq davom etdi. 1927-yilda Ichki ishlar xalq komissarligi tugatilishi munosabati bilan Qamoqxonalar bosh boshqarmasi mustaqil idoraga aylantiriladi². Oradan bir yil o‘tgach, Ichki ishlar xalq komissarligi qayta tiklanadi va Qamoqxonalar bosh boshqarmasi mustaqil bo‘lim huquqi bilan uning tarkibiga kiritiladi. 1930-yili esa Boshqarma Adliya xalq komissarligi ixtiyoriga beriladi, 1934-yil 8-dekabrdan esa yana O‘zbekiston Ichki ishlar tizimiga qaytarilgan. Bu paytda asosiy penitensiar muassasalar Toshkent shahrida, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatgan.

Jazoni ijro etish tizimini boshqarishda turli islohotlar doimiy amalga oshirib kelingan bo‘lsa ham, bevosita qamoqxonalarning o‘zidagi shart-sharoit o‘ta og‘irligicha, o‘sha chor imperatori davridagidek, balki undan-da yomonroq ahvolda qolgan edi. Atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan, juda ko‘p mahkum saqlanadigan tor va zax xonalarda kerosin chiroqlari kechayu-kunduz tutab yonardi.

Mudofaaning asosiy usuli minora bo‘lib, ularga ko‘pincha o‘z-o‘zini muhofaza qilish guruhlaridan yaxshi xulqli mahkumlar tayinlangan. Paxtavand bilan o‘qlangan eski usuldagagi karabin tutgan bu mahbuslar xuddi o‘zi kabi boshqa mahkulmlarni qo‘riqlab turardi.

Mahkulmlar fuqarolik kiyimi va poyabzal kiygan, o‘z hisoblaridan ovqatlangan. Muassasalar ma’muriyati vaqt-i-vaqt bilan eng zarur buyumlar va oziq-ovqat mahsulotlari savdosini tashkil etgan. Keyinchalik shu asosda muassasalar qoshida doimiy amal qiluvchi savdo shaxobchalari tashkil topgan.

² <http://iivjied.uz/uz/node/>

O‘tgan asrning 30 yillari bepoyon sho‘ro davlatida misli ko‘rilmagan ocharchilik va buning natijasida davlatga qarshi isyonu qo‘zg‘olonlar kuchayib ketishi bilan xalqning yodida qolgan. Noroziliklarni bostirish uchun hukumat tomonidan o‘ta keskin jazo choralari ko‘riladi.

Tobora kuchayib borayotgan ommaviy jazo mashinasi 1939-yilda qudrat cho‘qqisiga ko‘tariladi. Shu yildan boshlab, jazodan shartli ravishda muddatidan oldin ozod etish bekor qilindi, kuzatuv hay’atlari o‘z faoliyatini deyarli to‘xtatdi, tizim muassasalarida prokurorlik nazorati ancha susaydi. Mahkumlar orasidagi tezkor ish muassasalar faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ikkinci jahon urushi boshlangach, uncha xavfli bo‘lmagan jinoyat uchun qamalganlar jazodan ozod etilib, frontga jo‘natildi. Qamoqxonalarning ko‘plab xodimlari ham harakatdagi armiyaga ixtiyoriy ravishda ketdi.

Bu davrda qamoqxonalarning ishlab chiqarish faoliyati butunlay front manfaatiga yo‘naltirilib, axloq tuzatish – mehnat muassasalarining korxonalari frontga zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi.

Urush va undan keyingi davrda jazoni o‘tash tizimiga urush qatnashchilarining katta guruhi – mafkuraviy chiniqqan, katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan halol, qat’iyatli kishilar kelishi jazoni ijro etish tizimidagi shart-sharoitning birmuncha yaxshilanishiga sabab bo‘ldi. Ular jarohatlari tuzalgach, kichik komandirlarni tayyorlash kurslarida o‘qitilib, keyinchalik nazoratchi lavozimlariga tayinlanar edi.

Ularning ko‘pchiligi qolgan umrlarini qonun va axloq qoidalarini buzgan shaxslarni qayta tarbiyalash va ularning axloqlarini tuzatishdek mashaqqatli va mas’uliyatli ishga sarflashdi. Ular maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan holda o‘zlarining kundalik mashaqqatli mehnati, ishga nisbatan halol munosabatlari tufayli haqli ravishda hurmat qozonganlar, o‘z atroflarida penitensiar tizim xodimlarining yangi avlodini shakllantirgan.

1954-yil boshida Adliya vazirligining axloq tuzatish – mehnat lagerlari va koloniyalari boshqarmasi tarkibida quyidagi muassasalar faoliyat ko‘rsatgan:

- axloq tuzatish – mehnat lagerlari, shu jumladan, 2 ta ayollar koloniyasi;

- o‘g‘il bolalar uchun 2 ta bolalar koloniysi;
- bolalarni jamlash - taqsimlash muassasalari;
- axloq tuzatish - mehnat ishlari inspeksiyalari;
- markaziy baza va 2 ta zaxiradagi bo‘linma.

1958 yilga kelib axloq tuzatish – mehnat muassasalarida mahkumlarni saqlashning turkum tizimi joriy etiladi, bu maxsus kontingenit bilan yanada aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan shaxsiy tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalgaloshirish imkonini bergen.

1960-1970-yillarda penitensiar tizim faoliyati bo‘yicha qonunchilik asoslarini takomillashtirish davom etdi.

Hukumatning 1961-yil 3-aprel kunidagi qarori bilan «Axloq tuzatish – mehnat koloniyalari va qamoqxonalari haqida nizom» e’lon qilinadi. 1969-yilda «Axloq tuzatish - mehnat qonunchiligi asoslari» va «Dastlabki qamoqqa olish haqidagi nizom» qabul qilinadi. Ushbu meyoriy hujjatlar asosida 1970 yilda Axloq tuzatish - mehnat kodeksi qabul qilinadi³.

1963-yilda rag‘batlantirish chorasi sifatida axloqini tuzatishga astoydil bel bog‘laganlarni yopiq usuldagagi koloniyalardan manzil koloniyalarga o‘tkazish tizimi qo‘llanila boshladi.

Ma’lumki, sho‘rolar davrida mahkumlar mehnatidan eng og‘ir uchastkalarda foydalanilgan. Millionlab mahkumlar Sibir o‘rmonlarida, Qozog‘iston dashtlarida o‘ta og‘ir, oddiy inson bardosh bera olmaydigan sharoitda tekinga ishlatilgan. Ushbu amaliyot o‘tgan asrning yetmishinchchi yillarida ham, sal yengilroq ko‘rinishda bo‘lsa-da, O‘zbekistonda ham davom etgan.

1950-yillar oxiridan 1970-yillarning boshlariga qadar Qizilqum Markazida mahkumlar mehnatidan turli inshootlar qurilishida keng foydalanildi. 1970-yillarda xo‘jalik idoralari mablag‘lari hisobiga qator muassasalarda yirik sexlar, energiya ta’minoti liniyalari, suv quvur tarmoqlari va tozalash inshootlari qurildi.

Qisqa vaqt ichida murakkab mahsulot turlari o‘zlashtirildi va ular nafaqat mamlakat ichkarisida, balki, xorijga ham sotila boshladi. Masalan, tizim

³ <http://iivjied.uz/uz/node/>

korxonalarida ishlab chiqarilgan ekskavatorlar jahonning 18 mamlakatiga yetkazib berilar edi, qo‘l filtrlari Misr Arab Respublikasiga, kon vagonetkalari Mo‘g‘ulistonga, ko‘p uyali paxta ekish uskunalari Jazoir Respublikasiga yuborilar edi.

Tizim ixtiyoriga berilgan ikkita yarim vayrona, zarariga ishlaydigan g‘isht zavodi qisqa vaqt ichida qayta tiklanib, yiliga 80 mln. donagacha pishiq g‘isht tayyorlab bera boshladi. Ixtisoslashtirilgan ipakchilik majmui, temiryo‘lchilik presslash jihozlari, sisterna nasoslari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi, quyosh suv isitgichlari, bug‘lab sovutadigan konditsionerlar, temir javonlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Eski tele va radio apparaturalarining ishga yaroqli, rangli va qimmatbaho qismlarini ajratib olish, rangli televizorlarga yuqori kuchlantirgich tayyorlash boshlandi. Yana bir muassasa ko‘p yillar davomida sharq uslubidagi kalish ishlab chiqarishni o‘zlashtirdi.

1969-yilda O‘zbekistonda ikkita maxsus o‘quv-mehnat muassasasi tuzildi, keyinchalik ular tarbiyaviy-mehnat profilaktoriyalari deb nomlandi, sang‘ib yurgan daydi va tovlamachilar bir joyga to‘planib, ijtimoiy foydali mehnatga jalb etildi va o‘troq hayot kechirishga o‘rgatildi.

1977-yilda ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni ijro etish xizmati tashkil etildi va 1986-yilning yozigacha IIVning mustaqil boshqarmasi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Uning vazifalaridan biri shartli jazoga hukm etilgan va shartli ravishda muassasalardan ozod etilganlarni maxsus komendaturalarda saqlashdan iborat bo‘lib, Respublikaning barcha viloyatlarida joylashgan o‘nlab qurilish tashkilotlari va korxonalarida shu tur mahkumlar mehnatidan foydalilanilgan. Ular gidrouzellar, elevatorlar paxta tozalash kombinatlari, rezina – texnika, «Elektroxim» va «Kaprolaktam» zavodlarida, gazni qayta ishlash majmualarda, qurilish boshqarmalarida, tog‘-kon kombinati va boshqa joylarga ishga jalb etilgan.

Surgun qilingan va chiqarib yuborilganlarni, hukmlari ijrosi kechiktirilganlarni, sinov muddatlari bilan shartli sudlanganlarni, ma’lum

huquqlardan mahrum etish va axloq tuzatish ishlarida ishlatish bo‘yicha vazifalar ham shu xizmat zimmasiga yuklatilgandi.

Tarixdan yaxshi ma’lumki, o’tgan asrning saksoninchi yillari “turg‘unlik davri” deya nomlanadi. Bu yillarda sho‘rolar jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslari yemirilib, mamlakatning har jabhasida yemirilish boshlangan edi. Bu jarayon O‘zbekiston hududini ham chetlab o‘tmadi. Aksincha, u keng mamlakatning boshqa hududlaridan ko‘ra aynan O‘zbekistonda keskinroq ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Kommunistik partiyaning yakka hukmronligini saqlab qolishga intilgan “markaz” mamlakatda tartib-intizomni mustahkamlash, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun korrupsiya va boshqa illatlarga qarshi keng ko‘lamda kurash boshladi. Biroq, odatdagidek, ushbu kurash ham mavjud voqelik qonuniyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirila boshlangani uchun keskinliklarning yumshashiga emas, aksincha, yanada kuchayishiga olib keldi.

“Markaz”ning korrupsiyaga qarshi kurashni O‘zbekistondan boshlashi xalqimiz boshiga yangidan yangi kulfatlarni keltirdi. O‘n minglab qishloq xo‘jalik xodimlari, partiya va sho‘ro idoralari rahbarlari ustidan hech bir asossiz jinoiy ishlar ochilishi aslida, o‘zbek millatiga qarshi qatag‘onning boshlanishi kabi taassurot qoldirdi. Buning natijasida respublikadagi mavjud qamoqxonalar aybsiz aybdorlar bilan to‘lib ketdi. Qolaversa, tuzumning mohiyatidagi kamchiliklarni hisobga olmasdan, butun boshli millat vakillarini aybdor qilib ko‘rsatish siyosati natijasida respublikaning jazolarni ijro etish tizimiga ham katta zarar yetkazildi. Matbuotda ba’zan «O‘zbeklar ishi», ba’zan “paxta ishi” deb nom berilgan bu kaltabin siyosat oqibatida O‘zbekiston huquq-tartibot organlariga nisbatan ishonchsizlik oshkor namoyon bo‘ldi. Bundan esa penitensiar tizim ham chetda qolmadi, albatta⁴.

Bu davrda O‘zbekistonga sobiq markazdan jazoni ijro etish tizimi xodimlarining katta guruhi keldi. Kelgan xodimlar yaxshi o‘rganilmay, ish va kasb malakalari tekshirilmay, boshqaruv va quyi apparatning rahbarlik lavozimlariga

⁴ <http://iivjied.uz/uz/node/>

tayinlanadi, ularga navbatdan tashqari turarjoy beriladi, maktabgacha yoshdag'i bolalar muassasalaridan o'rinalar ajratiladi, avtomashinalar beriladi.

Natijada, tizimdan ko'plab mahalliy mutaxassislar siqib chiqarila boshlaydi. Jinoyatchilarni tuzatish ishiga sadoqat vaadolat bilan xizmat qilgan faxriylar muddatidan oldinroq nafaqaga chiqib ketishgan yoki boshqa ishlarga o'tib ketadi, istiqbolli yosh xodimlar esa tizim muassasalarini tark etadi.

90-yillarning boshida O'zbekistonning barcha sohalari kabi jazoni ijro etish tizimidagi ahvol ham o'ta murakkab edi. Minglab va o'n minglab nohaq ayblov bilan qamalganlar kun ko'rish uchun eng oddiy shart-sharoitga ham ega bo'limgan qamoqxonalarda zulm chekib yotar edi. Ularning ko'pchiligi eng oddiy insoniy haq-huquqlardan ham foydalana olmasdi. Mahkumlarni bir tomonidan nohaq ayblov, o'ta yomon turmush sharoitlari qiyNASA, ikkinchi tomonidan inson haq-huquqlarining qo'pol toptalishi azoblar edi. Sobiq sho'ro tuzumidan meros qolgan "kasalliklar", xususan, qamoq joylarida "o'g'rilar dunyosi" vakillarining hukmronligi mahkumlarning tuzalib, tinch hayot quchog'iga qaytishiga to'sqinlik qilardi. Qamoqda o'tirib chiqqan kishi axloqan tuzalish o'rniga jinoiy kasb-malakaga ega bo'lib chiqardi. Bu esa respublikadagi jinoiy vaziyatni yanada og'irlashtiradigan holat edi.

Jazoni ijro etish muassasalari to'g'ri yo'ldan toyib, tasodifan jinoyat ko'chasiga kirib qolganlarni tarbiyalash kabi asosiy vazifasini bajarolmay qolgan edi. Retsidivist jinoyatchilar qamoq joylarida to'la hukmronlikni o'z qo'liga olganligi sababli muassasa boshqaruv organlarining obro'si juda tushib ketgandi⁵.

Shuningdek, qamoqdan bo'shatilganlar o'z uylariga qaytganidan so'ng ham tinch hayot quchog'iga sho'ng'ib ketolmasdi. Ularni ishga joylashtirish, erkin hayotga moslashishi kabi masalalar bilan amalda hech kim shug'ullanmasdi. Sobiq mahkumlarning keyingi taqdiri davlat organlarining e'tiboridan chetda qolardi. Natijada, qamalib chiqqanlarning aksariyati oz fursat o'tmay, qayta jinoyat ko'chasiga kirib qolardi.

⁵<http://iivjied.uz/uz/node/>

“Markaz”ning bunday kaltabin siyosati natijasida O‘zbekistonda 1988-1991-yillarda jazoni ijro etish tizimining 13 bo‘linmasi, shu jumladan, 9 yopiq turdagи axloq tuzatish – mehnat muassasasi, 3 ta manzil koloniya va davolash-mehnat profilaktoriyasi yopildi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan buyuk tarixiy kun – xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotida beqiyos o‘rin egallagan istiqlolning ilk kunlaridanoq jazoni ijro etish tizimini rivojlantirish tarixida yangi bosqich boshlandi.

Biroq bu bosqich ilk kunlardanoq katta qiyinchiliklar bilan yuzlashdi. Chunki, tizimda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar, ta’bir joiz bo‘lsa, yechimini kutayotgan muammolar talaygina edi. Masalan, o‘scha kezlarda tizim muassasalaridagi eng birinchi kamchilik malakali kadrlarning yetishmasligi edi. Sobiq markazdan kelgan ko‘plab xodimlarning ish joylarini tashlab, yurtiga ketib qolishi sohada katta bo‘shliqni yuzaga keltirgandi. O‘zbekiston hududida penitensiar tizim uchun mutaxassislar tayyorlovchi ixtisoslashtirilgan o‘quv yurtlari mavjud emas.

Tizim muassasalarining holati ham zamon talabiga javob bermasdi. Chunki O‘zbekistondagi so‘nggi koloniya 1980-yilda, oxirgi tergov hibxonasi 1967 yilda qurilgan edi.

Shuningdek, tizim muassasalarida oziq-ovqat va boshqa zaruriy ashyolar ta’midotidagi uzilishlarni bartaraf etish zarur edi. Ishlab chiqarish korxonalarini mahalliy xom-ashyodan mahsulot ishlab chiqarishga o‘tkazish masalasi ham murakkabliklar tug‘dirar edi.

Mahkumlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash ishlarida mafkuraviy asoslarni qayta ko‘rib chiqish zaruriyati esa nihoyatda dolzarb masalaga aylangan edi. Eng muhim, mahkumlarning huquqiy holatini aniq belgilash zarur edi. Buning uchun yangi Jinoyat, Jinoyat ijroiya va Jinoyat protsessual kodekslarini amalga kiritish, ilgari amal qilib kelingan meyoriy asoslarni xalqaro talablarga muvofiq holga keltirish kerak edi.

Ayonki, maqsad qanchalik aniq va ulug‘vor bo‘lsa, unga erishish shunchalik sharafli bo‘ladi. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jazoni ijob etish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, eski tuzumdan meros qolgan xato va kamchiliklarni tuzatish ishlari boshlab yuborildi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat-huquqiy vositalar samaradorligini oshirishning imkonini beradigan jinoyat qonunchiligini yaratish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi⁶.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligini isloh etish bir masalaga oydinlik kiritishni talab qilar edi: yangi qonunchilik yaratiladimi yoxud amaldagi qonunlar takomillashtiriladimi? Yangi davlatchilik asoslari barpo etilayotgan o‘tish jarayonida qonunchilikni takomillashtirishni afzal ko‘rayotganlar bor edi. Ular, shunday qilinsa, xatolarning oldini olish imkonini tug‘iladi, deb hisoblashardi. Biroq, bunday yondashuvning mohiyatida o‘tmishdan qolib kelayotgan xatarlar ham bor edi. Jumladan, jinoyat qonunchiliga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar, odatda, konyunktura tusiga ega edi. Ular hukmron partiya idoralari irodasini ifodalar edi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n oltinchi sessiyasida qabul qilindi va 1995-yilning 1-apreldidan kuchga kirdi.

Unda ilk marta jinoyat huquqi prinsiplari mustahkamlangan bo‘lib, ular jinoyat qonunida rahbariy g‘oyalar, asosiy boshlang‘ich qoidalar shaklida aks etib, davlatning jinoyat-huquqiy siyosati mohiyati va zamonaviy tendensiyalarini, shuningdek, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikning asoslari, doirasi, shakllari haqidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, ma’naviy, diniy va huquqiy tasavvurlar namoyon bo‘ldi.

Ushbu Jinoyat kodeksida Jazo instituti ham jiddiy o‘zgarishlarga duch kelgan. Jazolar ro‘yxati qayta ko‘rib chiqilib, ularning yangi tizimi «Yengilidan og‘iriga» prinsipi asosida berilgan.

1997-yilda esa Konstitusiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslangan O‘zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat-ijroiya

⁶<http://iivjied.uz/uz/node/>.

kodeksi qabul qilindi. Mazkur kodeks qabul qilinishi bilan 1994-yilda tugatilgan manzil-koloniya instituti qayta tiklandi, umumiy va qattiq tartibli koloniyalar tashkil etildi. Ushbu kodeks qonun ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, mahkumlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida axloqan tarbiyalash, jamiyatga moslashuvini ta'minlash uchun huquqiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

Albatta, istiqlol yillaridagi islohotlar, inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish jarayonida har ikkala kodeks qo'llanilish tajribasi ularning kamchiliklardan xoli emasligini ko'rsatdi. Shuning uchun, jinoyat va jinoyat ijroiya qonunchiligi amal qilish davrida doimiy ravishda takomillashtirilib borildi⁷.

2001-yil 29-avgustda «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjat tarixiy deb tan olinishi mumkin. Chunki uning orqasidan amaldagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikning insonparvarlik nuqtai nazaridan chuqur isloh qilinishi haqida dalolat beradi.

Qonunga muvofiq, sud-huquq islohotlarining markaziy tarkibiy qismi bo'lgan jinoyat qonunchiligi islohoti davom ettirilib, huquqiy sohaning asosiy ustunlari tubdan demokratlashtirildi:

- birinchidan, jinoyat tarkiblarining 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo'limgan va uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Bundan tashqari, ko'rsatilgan normativ hujjat bilan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga jarima jazosini qo'llashni kengaytirish uchun huquqiy asoslari yaratildi;

⁷ <http://iivjied.uz/uz/node/>

- ikkinchidan, jazo tizimidan jinoiy jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish jazosi chiqarib tashlandi;
- uchinchidan, iqtisodiyot sohasida jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yiladi. Sudyalarning jarima jazosini tayinlash imkoniyati ko'paytirildi, yetkazilgan zarar to'liq qoplangan taqdirda, sud tomonidan shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashga yo'l qo'ymaydigan normalar soni kengaytirildi;
- to'rtinchidan, dastlabki tergovda garov, munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat, kafillik va boshqa ehtiyyot choralarini tanlash uchun huquqiy doirani kengaytirish hisobiga qamoq tariqasidagi ehtiyyot chorasidan boshqa turdag'i protsessual majburlov choralarini qo'llash imkoniyatlari kengaytirildi.

Sud-huquq islohotlari orqali inson huquq va manfaatlarini ta'minlash borasidagi yutuqlarimiz faqat shulardangina iborat emas. Ularning ko'lami va ahamiyati nihoyatda keng. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2005-yilning 1-avgust kunidagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi hamda 2005-yilning 8-avgustdag'i «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmonlarini sud-huquq tizimini liberallashtirish yo'lidagi yana bir pillapoya desa bo'ladi. O'zbekiston Pespyblikasi Bipinchi Ppezidentining farmonlarida 2008-yil 1-yanvardan boshlab o'lim jazosini bekor qilish va jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlar vakolatiga o'tkazilishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi PQ-4006-sun qarori qabul qilinib, jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirishning yettita ustuvor yo'nalishlari belgilandi hamda 2020-yil 1-iyunga qadar ilg'or xorijiy tajribani o'rghanish asosida yangi tahrirdagi Jinoyat-ijroiya kodeksi loyihasi ishlab chiqilishi vazifasi yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4006-sun qarorda belgilangan mahkumlar huquqlariga so'zsiz

rioya etilishini, ularning sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini ta'minlashning sifat jihatidan yangi mexanizmlarini joriy etish, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos ravishda mahkumlar huquqlari doirasini yanada kengaytirish kabi ustuvor vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayot hech qachon to'xtab turmaydi, u ilgarilab boraveradi. Ammo shu jarayonda, taraqqiyotni kuchaytirish maqsadida yana bir bor fikr-mulohaza qilib ko'radigan, boshqacha aytganda, yangilanishlar paytlari ham bo'ladi⁸.

1.2-§. Jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini huquqiy maqomi va tizimi

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan Sud tomonidan belgilanadigan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolar Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Departamentning tashkil etilishi haqida gapirilganda uning huquqiy asoslari haqida fikr yuritish o'rinali. Xususan, Jazoni ijro etish departamenti tashkil etilguniga qadar Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi ushbu faoliyatni amalga oshirgan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish metodlarini joriy etish orqali respublikamizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida 2021-yilning 26-mart kuni Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son farmoni bilan Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti etib qayta tashkil etildi.

⁸ <http://iivjied.uz/uz/node/>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son farmoniga muvofiq:

- Jazoni ijro etish departamenti bevosita Ichki ishlar vaziriga bo‘ysunishi va Ichki ishlar vaziri zimmasiga ichki ishlar organlarining jinoiy jazolarni ijro etish tizimini rivojlantirish va unda qat’iy intizomni ta’minalash uchun shaxsiy javobgarlik yuklatilishi belgilandi;
- ichki ishlar organlarining barcha tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmalari funksional bo‘ysunuvidan chiqarilib, Jazoni ijro etish departamenti bo‘ysunuviga o‘tkazilishi belgilandi;
- tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va ularda kunlik nazoratni olib borish Jazoni ijro etish departamenti tizimida tashkil etiladigan 6 ta mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatning samarali ijrosini ta’minalash maqsadida 2021-yilning 2-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5050-son qarorning 2-ilovasi bilan “Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

Ichki ishlar vazirligi 2021-2023-yillar davomida jazoni ijro etish tizimini raqamlashtirish orqali sohada inson omilini istisno etish va jazoni o‘tashning tartibotini ta’minalash maqsadida:

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida qat’iy intizom va qonuniylikni ta’minalash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, shuningdek, mahkumlarni saqlash holati ustidan nazorat olib borish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish;
- jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar, shu jumladan ularning qarindoshlari tomonidan qonun bilan taqiqlanmagan buyumlarni erkin bozor mexanizmlariga asoslangan elektron do‘konlar orqali sotib olish imkoniyatini yaratish;

- mahkumlarni qayta tarbiyalashning taktikasini to‘g‘ri belgilash va ular tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida har bir mahkumning xulq-atvori va shaxsi haqidagi ma’lumotlar elektron bazasini yuritish va uning asosida mahkumlarni taqsimlash jarayonini to‘liq raqamlashtirish choralarini ko‘rish belgilandi.
- Shuningdek, mahkumlarni mehnatga jalb qilish orqali qayta tarbiyalash va sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida mavjud shtat birliklari doirasida quyidagi lavozimlar:
- Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘ining axborot texnologiyalari hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha o‘ribbosarlari;
- Jazoni ijro etish muassasalari boshliqlarining ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha o‘ribbosari lavozimlari joriy etildi.

Unga ko‘ra:

- ✓ joriy etilayotgan lavozimlarga ishlab chiqarish, marketing va axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislikka hamda zarur tajribaga ega shaxslar tayinlanadi, shuningdek, ularga mehnat bozori konyunkturasidan kelib chiqib, Jazoni ijro etish departamentining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qo‘srimcha to‘lovlar amalga oshirilishi;
 - ✓ jazoni ijro etish muassasalari huzuridagi davlat unitar korxonalari jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs hisoblanmagan va byudjetdan tashqari faoliyatni amalga oshiradigan ishlab chiqarish bo‘linmalari sifatida qayta tashkil etilishi;
- jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyatidan kelib tushadigan mablag‘lar mazkur sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va talab yuqori bo‘lgan yangi turdagи mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning jazolarini ijro etish, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llanilgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni saqlash, ularni qo‘riqlash va boshqa yerga ko‘chirish bo‘yicha

faoliyatni muvofiqlashtirish va tashkil etishni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Jazoni ijro etish departamenti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi IIVning normativ hujjatlariga, shuningdek, Jazoni ijro etish departamenti to'g'risidagi Nizomga amal qiladi.

Ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi quyidagilardan tashkil topadi:

- Departament;
- mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari;
- jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosida;
- tarbiya koloniysi;
- tergov hibsxonalari;
- mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxona;
- tezkor harakatlar otryadi;
- markaziy omborxona.

Departament ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi uchun yagona boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi.

Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari ichki ishlar organlari tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatini tashkil etish va kunlik nazoratini olib borish borasidagi ishlarni amalga oshiradi.

Jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari faoliyatining asosiy yo'naliishlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanganadi.

Departament o'z faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha belgilangan tartibda ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi

va boshqa davlat organlari, tashkilotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi.



Departament mustaqil balansga, bank hisob varag‘iga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o‘zining to‘liq nomi yozilgan blank va muhrga, shtampga ega, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan ta’sis etiladigan Departament faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan emblema va farqlovchi belgilarga ega.

1.3-§. Jazoni ijro etish tizimida amalga oshirilgan islohotlar

O‘zbekistonda jinoyat-ijroiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi jazo hamda uning ijro etish tizimini liberallashtirishga qaratilgan bo‘lib, shu asosda qator strategik vazifalar belgilab olindi. Xususan:

birinchidan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvaplashtirish davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatildi;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagি qarori bilan “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomil-lashtirish konsepsiysi” qabul qilinib, jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish, xususan, eskirgan hamda zamonaviy talablarga javob bermaydigan jazolar shakli va turlarini chiqarib tashlash, jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan jazo turlari va boshqa huquqiy ta’sir choralarini joriy etish, jazoni yengillashtirish yoki shaxsni jinoiy javobgarlik yoxud jazodan ozod qilish shartlarini tartibga soluvchi normalarni kengaytirish vazifasi belgilandi;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida mahkumlar huquqlariga so‘zsiz rioya etilishi, ularning sha’ni va

qadr-qimmati hurmat qilinishini ta'minlashning sifat jihatidan yangi mexanizmlarini joriy etish, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos ravishda mahkumlar huquqlari doirasini yanada kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi;

to'rtinchidan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mahkumlar, jazoni o'tab chiqqan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi hamda jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, jazo tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari taraqqiyotining eng asosiy va zarur sharti sifatida qayd etildi;

beshinchidan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirish vazifasi sud-huquq tizimidagi islohotlarning bosh mezoni sifatida mustahkamlandi;

oltinchidan, 2023-yilning 30-apreldagi Referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinib, unda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari asosida insonning huquq va erkinliklari kafolatlanishi, shuningdek, o'lim jazosining taqiqlanishi belgilab berildi.

Shu bilan birga, mazkur strategik maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha jazoni ijro etish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan 3 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni va 7 ta qarori, hukumatning 20 dan ortiq qaror va farmoyishlari, 15 dan ortiq idoraviy va idoralararo normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Natijada, jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari doirasi kengaytirilib, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Ta'kidlash o'rinniki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi ishlar mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qaroriga asosan quyidagilar belgilandi:

- ❖ jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta’minlash, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni axloqan tuzatish bo‘yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish;
- ❖ mahkumlarning sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini ta’minlash, kelgusida jamiyatga ijtimoiy moslashtirish uchun axloqan tarbiyalash hamda mehnatga o‘rgatishning shaffof va yanada samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- ❖ zamonaviy xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda jinoyat-ijroiya qonunchiliginini tubdan takomillashtirish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalari hamda tergov hibsxonalarida qat’iy intizom va qonuniylikni ta’minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, shuningdek, mahkumlarni saqlash holati ustidan nazorat olib borish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar, shu jumladan, ularning qarindoshlari tomonidan qonun bilan taqiqlanmagan buyumlarni erkin bozor mexanizmlariga asoslangan elektron do‘konlar orqali sotib olish imkoniyatini yaratish;
- ❖ mahkumlarni qayta tarbiyalashning taktikasini to‘g‘ri belgilash va ular tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida har bir mahkumning xulq-atvori hamda shaxsi haqidagi ma’lumotlar elektron bazasini yuritish va shu asosda mahkumlarni taqsimlash jarayonini to‘liq raqamlashtirish.

E’tirof etish joizki, jazoni ijro etish sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar pirovardida bir qator amaliy natijalarga erishildi, xususan:

birinchidan, voyaga yetmagan mahkumlarga ota-onalari bilan uchrashuvlarga nisbatan cheklovlar olib tashlandi, shuningdek, ayol mahkumlarga bolalar uyida tarbiyalanayotgan farzandlari bilan cheklanmagan miqdorda uchrashish huquqi berildi;

ikkinchidan, mahkumlarning ta’lim olishi va kasb-hunar egallashlariga alohida e’tibor qaratilip, jazoni ijro etish muassasalarida “Usta-shogird” maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xususan, bugungi kunda koloniyalarda 6 ta umumta’lim maktabi va 4 ta kasb-hunar markazi faoliyat yuritmoqda. Koloniyalardagi maktablarda 2000 dan ziyod kasb-hunar markazlarida 5 mingdan ziyod mahkumlar tikuvchilik, duradgorlik, mebelsozlik, avtoelektrik, chilangar va boshqa kasb-hunarlarga o‘qitilib, ularga 16 ta mutaxassislik bo‘yicha shahodatnomalar topshirilmoqda. Ilgari, ozodlikdan mahrum etilgan joylarda saqlanayotgan shaxslarga bilim berish, kasbga o‘rgatishga unchalik e’tibor qaratilmas edi. Endilikda, jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning ta’lim olishi va kasb hunar egallash imkoniyati yaratilib, 2019- yildan boshlab ular o‘qitilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-apreldagi “Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning umumiyligi o‘rta va kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 318-son qarori asosida Xalq ta’lim vazirligining 6 ta (Toshkent viloyatidagi 1, 13, 21 va 24-son jazoni ijro etish koloniyalari, Navoiy viloyatidagi 4 va 5-son jazoni ijro etish koloniyalari) umumta’lim maktablari filialida jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar tahlil olmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufidagi 4 ta (Toshkent viloyatidagi 21 va 24-son jazoni ijro etish koloniyalari, Qashqadaryo viloyatidagi 2 va 10-son jazoni ijro etish koloniyalari) kasb-hunar ta’limi markazlari faoliyat yuritib kelmoqda.

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarga masofaviy ta’lim olish huquqi berildi. Shu asosda oliy ta’lim olish istagidagi mahkumlarning orzusi ro‘yobga chiqarilib, 2021-2023-yillar mobaynida 25 nafar mahkum nufuzli

milliy oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, xalqaro oliy ta’lim muassasalarining mamlakatimizdagi filiallariga o‘qishga qabul qilindi;

to ‘rtinchidan, mahkumlarning ijtimoiy ta’midotiga alohida e’tibor qaratilib, pensiya olish huquqi kafolatlandi va ish haqidan ijtimoiy sug‘urta ajratilmasligi belgilandi. Mahkumlarning telefon so‘zlashuvi, yo‘qlov va uchrashuvlari soni qariyb ikki barobarga ko‘paytirildi;

beshinchidan, mahkumlarning siyosiy huquqlarini kengaytirish yo‘nalishida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt talablari, shuningdek, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya davlatlarining ijobjiy tajribalari milliy qonunchilikka tatbiq etilib, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatini sodir etganligi uchun jazo o‘tayotgan mahkumlarga ilk bor saylov huquqi berildi. Shu asosda 2019-yildagi Parlament saylovida 3619 nafar, 2021-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida 8203 nafar va 2023-yildagi referendumda 9738 nafar mahkum ovoz berish kabi siyosiy huquqidan foydalandi;

oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (*Ombudsman*), diplomatik korpus, xalqaro, respublika va mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlar, xorijiy hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillarining jazoni ijro etish muassasalariga tashrifini tashkil etish tartibi belgilandi;

yettinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar-dagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 farmoni bilan jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish maqsadida ularga tadbirkorlik, me’morchilik, hunarmandchilik kabi faoliyatini boshlayotganda “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimi joriy qilindi;

sakkizinchidan, adashib nomaqbul yo‘lga kirgan, ammo kech bo‘lsa-da o‘z qilmishi xatoligini anglab yetib, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan mahkumlarning sog‘lom hayotga qaytishiga imkon berish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlatimiz rahbari tomonidan “afv etish”

mexanizmining yo‘lga qo‘yilgani hamda izchil davom ettirilayotganligini xalqimizga xos bag‘rikenglik, insonparvarlik, kechirimlilik va oliyjanoblikning yaqqol namunasi sifatida e’tirof etish o‘rinlidir.

Xususan, 2017-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning tegishli farmonlari bilan jami 7128 nafar mahkum afv etilib, ularning 219 nafarini chet el fuqarolari hamda 377 nafarini ayollar tashkil etgan;

to ‘qqizinchidan, hukumatning tegishli qaroriga ko‘ra jazoni ijro etish muassasalardagi shu vaqtga qadar oshkor etilishi mumkin bo‘lmagan ayrim ma’lumotlar, jumladan:

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslar soni;
- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarini soni hamda ular joylashgan joyi;
- jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyati, ular tomonidan nomenklatura bo‘yicha va pul bilan ifodalanadigan ishlab chiqarilayotgan tovar mahsulotlari;
- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslar orasida o‘lim holatlari soni;
- jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llanilgan mahkumlar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqlandi.

E’tirof etish joizki, jinoyat-ijroiya qonunchiligi va uni amalda tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, mahkularning asosiy huquq hamda erkinliklarini kengaytirishda xalqaro huquq normalari bilan bir qatorda AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Qozog‘iston, Belarus va Qirg‘iziston Respublika-lari hamda boshqa qator davlatlarning ijobiy tajribalari inobatga olindi.

Bundan tashqari, jinoyat-ijroiya qonunchiligiga jazoni ijro etish tizimi bilan bog‘liq xalqaro huquq normalarida belgilangan qoidalar ham joriy etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligiga Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 2015-yilning 17-dekabridagi rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari” (*Nelson Mandela qoidalari*) milliy qonunchiligidizga tatbiq qilindi.

Bu orqali mahkumlarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi kafolatlandi, ularga nisbatan qyynoq va shafqatsiz jazo turlari qo‘llanilishining oldini olishga qaratilgan mexanizmlar takomillashtirildi. Shuningdek:

mahkumlarning psixologik yordam olish huquqi ta’minlandi;

tibbiy yordamga muhtoj mahkumlarni Sog‘liqni saqlash vazirligining hududiy muassasalariga joylashtirishga ruxsat berildi;

og‘ir kasallikka chalingan mahkumlarga telefon orqali qo‘srimcha so‘zlashish hamda shifokorning ruxsati asosida yaqin qarindoshlari bilan uchrashish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, mahkumning ruhiy holati buzilgan vaqtda sodir etgan tartibbuzarligi uchun intizomiy jazo chorasi qo‘llash to‘liq bekor qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, xalqaro huquq normalari va xorijiy mamlakatlarning ijobiliy tajribalari asosida O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiliginin takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni huquqni qo‘llash amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofikdir:

■ mahkumlarning asosiy huquqlari doirasini yanada kengaytirish, xususan alohida jihozlangan xonalarda Internet jahon axborot tarmog‘iga ulangan kompyuter texnikasidan (*o‘quv, badiiy, elektron kitoblar, nashrlar, ta’limga oid materiallar, grafik tasvirlar*) foydalanish, elektron davlat xizmatlari, shu jumladan notariat xizmatlaridan foydalanish amaliyotini soddallashtirilgan tartibini joriy etish;

■ mahkumlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi hamda ularni foydali mehnatga keng jalb etish;

■ mahkumlarning huquqiy ongi va madaniyati, mafkuraviy qarashlarini yuksaltirish, ularda huquqbazarliklarga murosasizlik immunitetini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda belgilab borish;

■ jazodan va uni o‘tashdan ozod qilishning maqbul yo‘nalishlarini qonunchilikda belgilash;

■ xalqaro huquq normalari va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari tahlilari asosida mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish va resotsializatsiya qilishning zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish.

Shu bilan birga, jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligini yanada liberal-lashtirish, voyaga yetmagan, ayollar, keksa yoshdagilar va imkoniyati cheklangan mahkumlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlash qoidalarini kengaytirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali milliy tizimini takomillashtirib borish bugungi kundagi eng maqbul yo‘nalish ekanligini unutmasligimiz lozim.

Muxtasar qilib aytganda, jazoni ijro etish tizimida huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirib borish, amalga oshirilayotgan islohotlarni izchillik bilan davom ettirish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va odil fuqarolik jamiyatini barpo etishga, inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasini amalda to‘liq tatbiq etishga xizmat qiladi⁹.

Milliy qonunchiligidan xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida, qonunchiligidan kiritilgan o‘zgartirishlar xususida uzoq vaqt so‘z yuritish mumkin.

Umumiy tartibli, qattiq tartibli, maxsus tartibli, turma tartibli va tarbiya muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning yaqin qarindoshlari bilan telefon so‘zlashuvlari, uchrashuvlari va jo‘natma qabul qilishlari soni qariyb ikki barobarga ko‘paytirildi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning roziligi bilan ularga psixologik yordam ko‘rsatilishi hamda ruhiy holati buzilgan vaqtida sodir etilgan tartibbuzarliklari uchun intizomiy jazo choralarini qo‘llanilmasligi kafolatlandi.

Bugungi kunda, Ichki ishlar vazirligi taqdim etgan ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda mavjud bo‘lgan 54 ta jazoni ijro etish koloniyalardan 18 tasi

⁹ <https://www.uzembassy.uk/news/>.

yopiq turdag'i koloniylar, 25 tasi manzil-koloniylar va 11 tasi tergov hibxonalaridir¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni rag'batlantirish choralarini qo'llash tartibini belgilovchi yangi norma kiritildi. Shuningdek, mahkumlarning jazo muddatini o'tash davomida shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan choralar kengaytirildi.

Voyaga yetmagan tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan uchrashuvlariga bo'lган cheklolvar qonun bilan bekor qilindi. Mahkumalarning voyaga yetmagan farzandlari bilan uchrashuvlarining alohida tartibi belgilandi.

Mahkumlarning iltimosiga ko'ra uzoq muddatli uchrashuvlar qisqa muddatli uchrashuvlarga yoki masofali video-uchrashuvlarga yoxud telefon orqali so'zlashuvlarga, qisqa muddatli uchrashuvlar esa masofali video-uchrashuvlarga yoki telefon orqali so'zlashuvlarga almashtirilishi yo'lga qo'yildi hamda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning olis masofadan keluvchi yaqin qarindoshlari ovoragarchiliklariga barham berish maqsadida masofali uchrashuv xonalari tayyorlandi.

Kam ta'minlangan oila vakili bo'lган jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar yuqori haq to'lanadigan ishlarga jalb etilishi ta'minlandi.

Jazoni ijro etish muassasalarining maqsadi jazolash emas, qayta tarbiyalashdan iborat. Insonni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, uning kasbiy ko'nikmasini shakllantirish esa tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni, halol mehnati evaziga oila tebratgan odam keyinchalik ham jinoyat ko'chasidan yiroq yurishga intiladi.

Shu bois, bugungi kunda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lган kasblarga o'rgatish, ularning kasbiy mahoratlarini oshirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlari va o'z mehnatlari bilan oilasiga yordam berishlarini ta'minlash maqsadida muassasalarda ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgan.

¹⁰ <https://uza.uz/uz/posts/jazoni-izhro-etish-tizimida-insonparvarlik-tamoyillari-keng-qollanilmoqda>.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2019-yilning 29-yanvar kuni qabul qilingan «Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning mehnat bilan bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ishlab chiqarish quvvatlarini keng miqyosda yangilash va modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali faoliyatni rivojlantirish, qo'shimcha ish o'rnlari yaratishga yanada keng yo'l ochib berdi.

Jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni ozodlikka tayyorlash, mamlakatimizda bo'layotgan siyosiy va ijtimoiy voqealardan xabardor qilib borish uchun barcha muassasalarda fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Islohotlar jarayonida mahkumlarga munosib sharoitlarni yaratish masalasiiga ham alohida e'tibor qaratilib, xalq tomonidan "Toshturma" deb atalib, salbiy ta'riflangan UYA64/1 tergov hibsxonasi yopilib, o'rniga xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan Toshkent viloyati Zangiota tumanida yangi 1-son tergov



hibsxonasi qurildi va 2018-yil 15-yanvardan foydalanishga topshirildi.

2023-yilning 6-noyabr kuni Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Bog'zor qo'r-g'onida joylashgan O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Shu kabi, "Jasliq" koloniyasini tugatildi va unda saqlangan mahkumlar respublikaning boshqa koloniyalariga o'tkazildi.

Shuningdek, mamlakatimizda so'nggi yillarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga muqobil (qamoq bilan bog'liq bo'lman) jazo choralarini qo'llash tendensiyasining ko'payishi kuzatilib, buning natijasida jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkumlar sonini kamayishi tufayli so'nggi to'rt yilda 3 ta yopiq turdag'i koloniya tugatildi.

So‘nggi to‘rt yilda Navoiy viloyatidagi 36-son (davolash huquqidagi), Qashqadaryo viloyatidagi 33-son va Toshkent viloyatidagi 65-son umumiylar tartibli koloniyalardan tugatildi.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakilining (Ombudsman) jazoni ijro etish koloniyalarga hech qanday moneliksiz kirish huquqi berildi.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning mavjud muammolarini o‘rganish va ijobiy hal qilish maqsadida, Jazoni ijro etish departamenti rahbariyati tomonidan sayyor qabullar o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, barcha jazoni ijro etish muassasalarida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ga, prokurorga murojaatlari, ariza va shikoyatlari uchun mo‘ljallangan alohida pochta qutilari o‘rnatalgan. Qonunlarga rioya etilishi Prokuratura idoralari hamda Ombudsman tomonidan muntazam ravishda monitoring qilib borilmoqda.

O‘tgan besh yil davomida jazoni ijro etish muassasalarida rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borildi. Shuningdek, eskirgan bino va inshootlar o‘rnida yangilari qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 21-son jazoni ijro etish muassasasiga qarashli hududda foydalanimayotgan eski inshootlar qaytadan rekonstruksiya qilinib, uning o‘rnida “Sadoqat bog‘i” aholi ko‘ngilochar maskani barpo etildi.

Ushbu bog‘da fuqarolarga xizmat ko‘rsatuvchi tikuvxona, sartaroshxona, kutubxona, oshxona, musiqa va shaxmat to‘garak xonalari, konsert zali, amfiteatr, yo‘l harakati maydonchasi va sport sog‘lomlashtirish markazlari qad rostlab, o‘scha yerdagi “Bog‘zor” mahallasida istiqomat qiluvchi fuqarolar uchun ish o‘rinlari yaratildi.

Islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2020-yilning 22-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jazoni ijro etish faoliyatining ochiqligi va oshkoraligni ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Avvalo, ushbu hujjat davlatimiz rahbarining topshiriqlari bo‘yicha, tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta’minalash maqsadida qabul qilinganligini alohida ta’kidlash lozim.

Amalga oshirilayotgan ishlarga qachon odamlar xolis baho beradi? Qachonki, islohotlar jarayoni haqidagi ma'lumotlar keng ommaga xolislik bilan yetkazilsa, albatta. Bu jarayonda, ommaviy axborot vositalarining alohida o'rni bor. E'tibor bergen bo'lsangiz, shu paytgacha sir tutib kelingan bir qator ma'lumotlar yopiqlikdan chiqarildi. Mamlakatimizdagi jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibxonalar soni, ularning yuridik manzillari, saqlanayotgan shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir. Bir so'z bilan aytganda, endilikda jazoni ijro etish tizimida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflik amalda ta'minlanmoqda.

Jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyati, ishlab chiqarilayotgan tovar mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham rasmiy saytlarda e'lon qilib borilmoqda.

Bundan tashqari, jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibxonalarida saqlanayotgan shaxslar orasidagi o'lim holatlari hamda tibbiy yo'sindagi majburlov chorralari qo'llaniladigan shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumotlar ham endilikda yopiq sanalmaydi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami demokratik islohotlarni statistik ma'lumotlar bilan izohlash va xalqaro reytinglardagi o'rnini aniq ifoda etish hamda yurtdoshlarimiz va xorijiy ekspertlarning jazoni ijro etish tizimiga oid aniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Ichki ishlar tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida 2021-yilning 26-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sun farmoni hamda 2021-yilning 2-aprel kuni "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-sun qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son farmoniga muvofiq, Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti etib qayta tashkil etilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5050-son qarorida departamentning huquqiy asoslari hamda jazoni ijro etish tizimini raqamlashtirish orqali sohada inson omilini istisno etish va jazoni o‘tashning tartibotini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar aniq belgilab berildi.

Masalan, jazoni ijro etish muassasalarida xodimlarning bodikamera bilan xizmat o‘tash tartibini joriy etish, jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar tomonidan ichki tartibotning buzilish holatlarini barvaqt aniqlash uchun kuzatuv va nazorat amaliyotiga intellektual (“Smart”) kameralar tizimini tatbiq etish hamda yopiq turdagи muassasalarda taqiqlangan vositalar va buyumlar olib kirilishining oldini olish maqsadida ularning nazorat o‘tish joylarida bodiskanerlar o‘rnatish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, yopiq turdagи muassasalarda ovqatlarning sifatini oshirish maqsadida jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning oziq-ovqat ta’minotini shaffoflik va ochiqlik tamoyili asosida autsorsing tizimiga o‘tkazish choralari ko‘rilmоqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘tgan yilda Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan murojaatnomasiga muvofiq, xalqaro standartlardan kelib chiqib, 25 ta manzil-koloniya bosqichma-bosqich qisqartiriladigan bo‘ldi.

Shuningdek, jazoning o‘talmagan muddatini yengilroq jazo bilan almashtirish va jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to‘g‘risidagi taqdimnomalarni kiritish vakolati jazoni ijro etish organidan Insonparvarlik komissiyasiga o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Buning natijasida, hozir manzil-koloniyalarda jazo o‘tayotgan shaxslarga o‘z mahallasi nazorati ostida, oilasi bag‘rida bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Ularni ish bilan ta’minlash, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash borasida zarur choralar

ko‘riladi. Bu ham jinoyatchilikning oldini olishda keng jamoatchilikning rolini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz¹¹.

Jazoni ijro etish tizimi xodimlarining shaxsiy videoregistratorlardan foydalanish tartibi belgilandi. Unga ko‘ra, bodikamera xodim xizmat vazifasini bajarishga kirishganidan boshlab ishga tushirilishi va naryadni topshirguniga qadar ishlatilishi lozim. Undan shaxsiy maqsadlarda foydalanish taqiqlanadigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 445-son qarori bilan «Jazoni ijro etish tizimi xodimlarining shaxsiy videoregistratorlar (bodikameralar) bilan ta’minlangan holda xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida»gi nizom tasdiqlandi.

Unga ko‘ra, har kunlik ish faoliyatini olib borayotgan yoki kunlik xizmatga jalb etilgan xodim mahkulmlarni uzluksiz nazorat qilish hamda ular tomonidan jinoyat va tartibbuzarliklar sodir etilishini aniqlash uchun bodikameralar bilan ta’milanadigan bo‘ldi.

Bodikamera quyidagi hollarda ishlatiladigan bo‘ldi:

- kun tartibidagi tadbirlarni amalga oshirishda;
- umumiy va kunlik tintuvlar o‘tkazish hamda ko‘zdan kechirish jarayonida;
- mahkulmlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilishda;
- jinoyat va tartibbuzarliklar sodir etilganda;
- mahkularning xulq-atvorini nazorat qilishda;
- mahkulmardan taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlar olinganda;
- mahkularga nisbatan jismoniy kuch, maxsus vositalar hamda tinchlantirish ko‘ylagini qo‘llash chog‘ida;
- mahkularni ishga olib chiqish va undan qaytishda;
- mahkulmar va fuqarolarni qabul qilish jarayonida;
- fuqarolardan olingan yo‘qlovlarini qabul qilishda hamda posilka yoki yo‘qlov va banderollarni tarqatish vaqtida;
- mahkularning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqishda;

¹¹ <https://www.uzbekembassy.in/harakatlar-strategiyasi-doirasida-ja/>

- mahkumlarning uchrashuvlarini o'tkazish jarayonida;
- mahkumlarga nisbatan intizomiy jazo va rag'batlantirish choralari qo'llanilayotgan vaqtida hamda mahkumlar intizomiy bo'linmaga kiritilayotganda va chiqarilayotganda;
- mahkumlarning insonparvarlik dalolatnomalarini ko'rib chiqish davrida¹².

Bodikamera xodim xizmat vazifasini bajarishga kirishganidan boshlab ishga tushirilishi va naryadni topshirguniga qadar ishlatilishi lozim (xizmat vazifasi bilan bog'liq bo'lмаган ishlarni bajarish vaqtin bundan mustasno).

Xizmat vazifasini bajarish davomida bodikameraning obyektivi har qanday holatda to'silishi mumkin emas.

Bodikameradan shaxsiy maqsadlarda foydalanish, uni boshqa xodimlar, mahkumlar va boshqa shaxslarga berish hamda o'z xohishi bilan o'chirib qo'yish taqiqlanadi. Bodikamera xizmat vaqtida doimo ishchi holatda bo'lishi shart.

Mahkum tomonidan xodimga xizmat davomida berilgan bodikameraga ziyon yetkazish, uni olib qo'yishga urinish taqiqlanadi. Shuningdek, mahkumlar bilan bodikamera orqali yozib olingan suhbatlarni Internetga joylashtirish, mahkumning oila a'zolariga va boshqa shaxslarga berish ham mumkin emas, deb belgilangan¹³.

2024-yil 24-aprelda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi jazoni ijro etish departamentining faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Jazoni ijro etish departamenti axborot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, hukumat qarori qabul qilinishidan maqsad – departament tarkibiy va hududiy tuzilmalari shaxsiy tarkibining xizmat va jangovar tayyorgarligi samaradorligini yanada oshirishdir.

Qarorga ko'ra, departamentning o'quv poligoni tashkil etiladigan bo'ldi. Namangan viloyati Uychi tumanidagi 6-son tergov hibxonasi hududida bo'sh turgan 0,7 ga. yer maydonida tashkil etiladigan o'quv poligoni departamentining

¹² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdaggi 445-sun qarori bilan «Jazoni ijro etish tizimi xodimlarining shaxsiy videoregistratorlar (bodikameralar) bilan ta'minlangan holda xizmatni o'tash tartibi to'g'risida»gi Nizom.

¹³ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/15/bodycamera>.

markazlashtirilgan jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan, alohida yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladi.

O‘quv poligonida malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda departament tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligi muntazam oshirib boriladi.

Jazoni ijro etish departamenti tezkor harakatlar otryadi bilan amaliy-taktik o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish orqali xodimlarning jangovar shayligi oshiriladi.

Jazoni ijro etish departamenti tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nostandard vaziyatlarda xodimlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv yig‘inlari tashkil etiladigan bo‘ldi¹⁴.

1.4-§. Jazoni ijro etish departamentining vazifalari va funksiyalari

Quyidagilar Jazoni ijro etish departamentining vazifalari hisoblanadi:

- ❖ mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish, qamoqqa olingan shaxslarni tergov hibsxonalarida saqlashni tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibsxonalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishiga rioya etish;
- ❖ mahkum va mahkumlarni tarbiyalash, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, shuningdek, ularga ozod etilganidan so‘ng ijtimoiy moslashuvi uchun ko‘maklashish faoliyatini tashkil etish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalarining moliya-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish orqali mahkum va mahkumlarning bandligini ta’minlash;

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi jazoni ijro etish departamentining faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

❖ jazoni ijro etish muassasalari uchun kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning samarali tizimini tashkil etishdan iborat.

Jazoni ijro etish departamenti quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish, qamoqqa olingan shaxslarni tergov hibsxonalarida saqlashni tashkil etish va muvofiqlashtirish sohasida:

❖ jazoni ijro etish departamenti tizimini raqamlashtirish, mahkumlarning «elektron nazorati»ni ta’minlovchi axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali jazolarni ijro etishni tashkil etish;

❖ sudlarning, shuningdek, ish yurituvida jinoyat ishi bo‘lgan boshqa organlarning tegishli hukm, ajrim va qarorlarini aniq va so‘zsiz ijro etish;

❖ mahkumlarning jazoni ijro etish uchun o‘z vaqtida yuborilishini, ularning joylashtirilishini, shuningdek, mahkumlarning va qamoqqa olingan shaxslarning belgilangan tartibda bir jazoni ijro etish muassasasi va tergov hibsxonasidan boshqasiga ko‘chirilishini ta’minlash;

❖ amnistiya va avf etish to‘g‘risidagi hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida tashkil etish;

❖ mahkumlarning va qamoqqa olingan shaxslarning ajratib qo‘yilishi, qo‘riqlanishi va nazorat qilinishini ta’minlash;

❖ O‘zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining jinoyat ishi yurituvi sohasidagi xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq, shu jumladan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan mahkumlarni topshirish (ekstraditsiya qilish) bilan bog‘liq qarorlarining ijro etilishini tashkil etish;

❖ sud hujjatlarining ijro etilishini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish;

❖ ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimidagi bo‘linmalari va muassasalarida axborot-tahliliy ishlarni tashkil etish, ularning faoliyatini rejalashtirish va prognoz qilish;

❖ jinoiy jazoni ijro etish va qamoqda saqlash faoliyatini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha uslubiy materiallarni ishlab chiqish.

b) jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibsxonalarida qo'riqlash va xavfsizlikni ta'minlash, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishiga rioya etish sohasida:

❖ jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibsxonalarida huquq-tartibot va qonuniylikni ta'minlash;

❖ jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari hududlarida bo'lgan mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning, shuningdek, xodimlarning va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

❖ jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsxonalari, ishlab chiqarishdagi mahkulmlarni mehnatga jalgan etadigan tashkilotlar obyektlarini nazorat qilishning zamonaviy axborot texnologiya va muhandislik-texnik vositalaridan foydalangan holda lozim darajada qo'riqlashni tashkil etish;

❖ jazoni ijro etish muassasalarning xavfsizligini ta'minlash borasida qorovul qo'shinlari, hududiy ichki ishlar organlari, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati va boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda texnik, tezkor va profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish;

❖ hududiy hokimliklar bilan hamkorlikda jazoni ijro etish muassasalaridan 50 metr masofada joylashgan ma'muriy, maishiy, xo'jalik bino va inshootlari qurilishi uchun yer uchastkalarini ajratishga, ularni ijaraga berishga, shuningdek, balandligi 6 metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlarni qurishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

❖ jazoni ijro etish departamenti, uning bo'linmalari va muassasalarida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

❖ mahkumlar orasida ko'ngilli yong'in o'chirish otryadlarini tashkil etish, ularga tushuntirishlar berishda Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy tuzilmalari bilan hamkorlik qilish;

- ❖ mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning taklif, ariza va shikoyatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqishni ta’minlash;
- ❖ mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar tomonidan jazoni ijro etish, qamoqda saqlashning belgilangan tartibiga rioya etilishini ta’minlash;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibxonalarida tegishli belgilangan normalarga mos keladigan ushlab turish shart-sharoitlarini yaratish;
- ❖ mahkumlarning va qamoqqa olingan shaxslarning moddiy-maishiy ta’minotini va ularga tibbiy xizmat ko‘rsatilishini samarali tashkil etish, shuningdek, mahkumlarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashni amalga oshirish.

v) mahkumlarni tarbiyalash, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, shuningdek, ularga ozod etilganidan so‘ng ijtimoiy moslashuvi uchun ko‘maklashish faoliyatini tashkil etish sohasida:

- ❖ mahkumlar jazodan ozod etilganidan so‘ng jamiyatga moslashishi uchun davlat siyosati doirasida imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanishi, mehnat bozorida yuqori talabga ega mutaxassisliklarni egallash imkoniyatini yaratish bo‘yicha choralarни ko‘rish;
- ❖ mahkumlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, milliy g‘oya va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ma’naviy barkamol, mustaqil fikr va keng dunyoqarashga ega shaxs sifatida kamol toptirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish;
- ❖ davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olayotgan mahkumlarni yuqori saviyadagi bilim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tishini ta’minlaydigan umumiyl o‘rta va kasb-hunar ta’limini tashkil etish, bu borada mutasaddi organlar bilan hamkorlikni ta’minlash;
- ❖ mahkumlarni axloqan tuzatish jarayoniga vakolatli davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini keng jalg qilishni tashkil etish;

- ❖ mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini mahkumlarga yetkazish va ularda bu borada daxldorlik hissini shakllantirishni ta'minlash;
- ❖ tarbiyaviy, ijtimoiy va psixologik ishlarni tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalardan foydalanish;
- ❖ mahkumlarning muammolarini muntazam ravishda o'rganib borish, ularning oilasidagi ijtimoiy va moddiy muammolarini hal etishda hududiy davlat organlari bilan hamkorlik qilish;
- ❖ mahkumlarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash va ozodlikka tayyorlash ishlarining ta'sirchan shakl va usullarini tatbiq etish;
- ❖ mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, shu jumladan huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil qilish;
- ❖ jazoni ijro etish koloniyalari va tergov hibsxonalarida tezkor-qidiruv faoliyatining samaradorligini tizimli ravishda tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha choralarini ko'rish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalariga taqiqlangan predmetlarning kirib kelish yo'llarini aniqlash va bartaraf etish;
- ❖ mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish¹⁵.

g) jazoni ijro etish muassasalari va ularning tashkilotlarining moliya-xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyatini samaradorligini oshirish orqali mahkumlarning bandligini ta'minlash sohasida:

- ❖ jazoni ijro etish muassasalari va ularning tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, olib borilayotgan moliyaviy va xo'jalik

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфислизгини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон қарори.

harakatlarning maqsadga muvofiqligi hamda qonunchilikka mosligi ustidan nazoratini ta'minlash;

- ❖ jazoni ijro etish muassasalarida ishlab chiqarish hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish, zamonaviy marketing usullarini joriy etish;
- ❖ ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ommalashtirish va ularni bozorga kiritish choralarini ko'rish hamda bu borada davlat va xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyatiga shu sohada amaliy tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilish, shu bilan birga ularni lavozimga shahodatlangan lavozimlar hisobidan tayinlash;
- ❖ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo'linmalari va muassasalarini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, mol-mulkdan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish va qo'riqlash, shuningdek, ularni saqlanishi va oqilona ishlatilishi bo'yicha zarur choralar ko'rish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish faoliyatiga fan va texnika yutuqlarini, ilg'or tajriba va texnologiyalarni, boshqaruvning yangicha usul va shakllarini joriy qilish;
- ❖ shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalari va ularning tashkilotlarining o'z ishlab chiqarish joylarida, alohida hollarda esa boshqa korxonalarda, mahkumlarning axloqiy va moddiy manfaatdorligi uchun shart-sharoitlar yaratish yo'li orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash.

d) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning samarali tizimini tashkil etish sohasida:

- ❖ Jazoni ijro etish departamenti uchun kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularni qayta tayyorlash, jangovar va jismoniy tayyorgarligi hamda

professional darajasini oshirish, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha samarali tadbirlarni tashkil qilish;

- ❖ Jazoni ijro etish departamenti shaxsiy tarkibining safarbarlik tayyorgarligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda kuch va vositalarning harakatlanishi uchun shaylik darajasi ustidan nazorat olib borish;
- ❖ Jazoni ijro etish departamenti xodimlari va ularning oila a’zolarining huquqiy, ijtimoiy himoyasini hamda shaxsiy xavfsizligini ta’minlash;
- ❖ Jazoni ijro etish departamenti xodimlari o‘rtasida o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilish va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish, odob-axloq qoidalari hamda muomala madaniyatiga qat’iy amal qilishlarini ta’minlash;
- ❖ Jazoni ijro etish departamenti xodimlarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha samarali ishlarni tashkil qilish.

Jazoni ijro etish departamenti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin¹⁶.

1.5-§. Jazoni ijro etish departamentining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi

Jazoni ijro etish departamenti o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

- Jazoni ijro etish departamenti vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va boshqa muassasalarning (elektron) bazalaridan axborot, statistik va boshqa materiallarni so‘rash hamda olish;
- qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo‘yicha belgilangan tartibda takliflarni kiritish;

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.

- tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari vakillarini tarbiyaviy-profilaktika tadbirlariga, mahkumlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashuviga jalb etish;
- mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarni belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha boshqa yerga ko‘chirishni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining tegishli bo‘linmalari bilan hamkorlikni tashkil etish;
- Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;
- mahkuma va mahkumlarning ma’naviy-axloqiy saviyasi darajasini oshirish, ular bilan tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilayotgan shaxslarga ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatishda fuqarolik jamiyatni institutlari, jamoatchilik vakillari va fuqarolarni jalb etish;
- mahkuma va mahkumlarning ta’lim olishi va kasb-hunar o‘rganishini ta’lim va mehnat organlari bilan hamkorlikda tashkil etish;
- ozod etilayotgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning maishiy turmush sharoitlarini yaxshilash masalalari bo‘yicha hokimiyat qoshidagi ijtimoiy moslashtirish markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirish¹⁷;
- qonunchilikda belgilangan tartibda Jazoni ijro etish departamenti va uning muassasalari tibbiy kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash;
- sog‘lijni saqlash organlari bilan hamkorlikda manzil-koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlarni tibbiy vositalar bilan ta’milagan holda barcha turdag'i tibbiy yordam ko‘rsatish, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarga malakali

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.

davolash-diagnostika hamda shoshilinch yordam ko‘rsatish, turli xil ekspertiza va ko‘rikdan o‘tkazish;

- Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari bilan mahkuma va mahkumlarning nogironligini tasdiqlash va belgilash, ularning kasbiy mehnatga qobiliyatini yo‘qotganlik darajasini aniqlash masalalari bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirish;
- davlat organlari, ta’lim, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlardan Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan takliflarni olish hamda tegishli organlar va tashkilotlarning rahbarlari bilan kelishilgan holda ushbu loyihalarni tayyorlash bo‘yicha komissiyalar tuzish;
- qonunchilikka, O‘zbekiston Respublikasi IIVning ko‘rsatmalari va farmoyishlariga rioya etilishi yuzasidan jazoni ijro etish tizimida moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish va taftishdan o‘tkazish;
- Jazoni ijro etish departamenti xodimlarning moddiy-texnik va ijtimoiy ta’mnotinini yaxshilash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha takliflarni kiritish;
- ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi jazoni ijro etish muassasalarini rivojlantirish va moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish uchun investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha choralarни ko‘rish;
- muassasalar xavfsizligini ta’minlash borasidagi tadbirlarga mahalliy hokimliklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb etish.

Jazoni ijro etish departamenti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin¹⁸.

Jazoni ijro etish departamenti quyidagilarga majburdir:

mahkuma va mahkumlarning hamda qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish hamda

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.

majburiyatlarini ado etish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida zarur choralarni ko‘rish;

✚ sudlarning, shuningdek, ish yurituvida jinoyat ishi bo‘lgan boshqa organlarning tegishli hukmlari, ajrimlari va qarorlari asosida ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish, qamoqqa olingan shaxslarni saqlash;

✚ jazoni ijro etish tizimining faoliyati haqida zarur ma’lumotlarni tayyorlash va IIV rahbariyatiga taqdim etish;

✚ mahkuma va mahkulmlarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy yordam ko‘rsatish va kasb-hunar o‘rgatish orqali kelgusidagi ijtimoiylashuvga tayyorlash ishlarini sifatli va to‘laqonli amalga oshirish.

Jazoni ijro etish departamenti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Jazoni ijro etish departamenti o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir¹⁹.

1.6-§. Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini tashkil etish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 26 martdagи “Jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoniga asosan Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti etib qayta tashkil etildi.

Jazoni ijro etish departamenti bevosita O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziriga bo‘ysunadi va ichki ishlar vazirining zimmasiga ichki ishlar organlarining jinoiy jazolarni ijro etish tizimini rivojlantirish va qonuniylikni ta’minalash uchun shaxsiy javobgarlik yuklanadi.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori

Jazoni ijro etish departamentiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va ozod etiladigan Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan 5 nafar o‘rinbosarga, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosarga ega.

Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i:

⊕ Jazoni ijro etish departamenti ishini tashkil etadi va faoliyatiga umumiyligini rahbarlik qiladi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda shaxsan javobgar bo‘ladi, o‘z o‘rinbosarlari, Jazoni ijro etish departamenti tarkibiy bo‘linmalari va mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari boshliqlarining vakolatlarini va funksional vazifalarini belgilaydi;

⊕ mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari, jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibxonalarini to‘g‘risidagi nizomlarni, shuningdek, Jazoni ijro etish departamenti shaxsiy tarkibining funksional vazifalarini tasdiqlaydi;

⊕ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalari xodimlarini (ishchilarini va xizmatchilarini) saqlash uchun byudjet ajratmalari doirasida smeta xarajatlarini tasdiqlaydi;

⊕ iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, kapital ta’mirlash, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarni mehnatidan foydalanishning istiqbolli va yillik ish rejalarini, moliyaviy rejalarini, iqtisodiy normativlarni tasdiqlaydi;

⊕ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalarini tezkor-xizmat, ishlab chiqarish va moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini, ular ishini tekshirish materiallarini, prokuratura organlari taqdimnomalarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (Ombudsmanning) monitoring natijalarini va boshqalarni ko‘rib chiqadi;

⊕ o‘z vakolati doirasida Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalarining barcha shaxsiy tarkibi bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar, ko‘rsatma va farmoyishlar chiqaradi;

⊕ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalari xodimlarini (ishchi va xizmatchilarini) lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan xodimlar bundan mustasno;

⊕ o‘z vakolati doirasida Jazoni ijro etish departamenti uning bo‘linmalari va muassasalari xodimlariga «mayor» maxsus unvonigacha bo‘lgan (shu jumladan, «mayor» maxsus unvonini ham) unvonlarni beradi;

⊕ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalari xodimlari (ishchi va xizmatchilarini)ni rag‘batlantirish, ularga intizomiy jazo choralarini qo‘llash masalasini hal etadi;

⊕ xizmat vazifalarini samarali va sidqidildan bajarib kelayotgan xodimlariga Jazoni ijro etish departamentining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ularning pul ta’minoti miqdorining 100 foizigacha oylik individual ustamalar belgilaydi;

⊕ o‘z vakolati doirasida Jazoni ijro etish departamenti xodimlariga mehnat ta’tili beradi;

⊕ belgilangan tartibda Jazoni ijro etish departamenti xodimlarini xizmat safariga yuboradi;

⊕ Jazoni ijro etish departamentining bo‘linmalari va muassasalari rahbarlarining hisobotlarini eshitadi;

⊕ mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar, shuningdek, Jazoni ijro etish departamenti uning bo‘linmalari va muassasalari xodimlari (ishchilar va xizmatchilar) tomonidan yo‘l qo‘yilgan hodisalar, qonun buzilishi, xizmat va mehnat intizomi, tovar-moddiy boyliklarni o‘zlashtirish holatlari yuzasidan xizmat tekshirushi o‘tkazishni tayinlaydi;

⊕ jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari qabulini amalga oshiradi, shikoyat, ariza va takliflarni ko‘rib chiqadi, ular yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

⊕ uning bo‘linmalari va muassasalarini saqlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan ajratiladigan moliyaviy mablag‘larni qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi;

- ❖ tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni o‘tkazish uchun moliyaviy mablag‘larni sarflash normasi va tartibini belgilaydi;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi²⁰.

Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziriga quyidagilar to‘g‘risidagi takliflarni kiritadi:

- ✓ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalari xodimlari (ishchi va xizmatchilari)ning cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi;
- ✓ Jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalari tuzilmasiga hamda shtatlar soniga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish;
- ✓ belgilangan tartibda Jazoni ijro etish departamentining bo‘linmalari va muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;
- ✓ jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari rejimi turini va ularni to‘ldirish limitlarini o‘zgartirish;
- ✓ jazoni ijro etish muassasalarida ajratilgan turli rejimdagi uchastkalarni tashkil etish;
- ✓ o‘zining o‘rinbosarlari, Jazoni ijro etish departamenti bo‘linmalari va muassasalari boshliqlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish;
- ✓ o‘z vakolati doirasiga kirmaydigan shaxsiy tarkibga maxsus unvonlar berish, davlat va idoraviy mukofotlarga taqdim etish.

Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i bo‘limgan taqdirda uning vazifalarini birinchi o‘rinbosar amalga oshiradi.

Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarining faoliyatini kunlik tashkil etish va nazoratini olib borishni mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari orqali amalga oshiradi.

Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ jazoni ijro etish koloniyalari va tergov hibsxonalarining faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash, ularni kompleks tekshirish va nazorat

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori

qilish, amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish, shu jumladan ish natijadorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- ❖ jazoni ijro etish muassasalarida jinoiy jazolarni ijro etish va tergov hibxonalarida qamoqqa olingan shaxslarni saqlashni muvofiqlashtirish;
- ❖ mahkuma va mahkumlar hamda qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish hamda majburiyatlarini ado etishni o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi ustidan ta’sirchan nazoratni amalgaloshirish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalarining mahkuma va mahkumlarni tarbiyalash, ularga kasb-hunar o‘rgatish, psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatish hamda axloqan tuzalishini ta’minalash borasidagi faoliyatni tashkil etish.

Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘ining hududiy vakili hisoblanib, maqomi va pul ta’minoti bo‘yicha uning o‘ribbosariga tenglashtiriladi.

Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari boshliqlari, jazoni ijro etish muassasalari boshliqlari va tergov hibxonalar boshliqlari Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘ining taqdimnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Jazoni ijro etish muassasalari xodimlari va tergov hibxonalar xodimlari, shuningdek, mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari xodimlari mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari boshliqlarining taqdimnomasiga asosan Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Jazoni ijro etish muassasalari ishchi va xizmatchilar va tergov hibxonalar ishchi va xizmatchilar jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibxonalar boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining va tergov hibxonalar xodimlarining xizmat muddati mehnat stoji hisoblanayotgan vaqtida xizmatning bir kuni xizmatning ikki kuni deb hisoblanadi.

Ish yuritish va maxfiylik rejimini tashkil etish hamda ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar Jazoni ijro etish departamenti tomonidan belgilangan tartibda mustaqil amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish tizimini moddiy-texnik vositalar va boshqa mol-mulk bilan ta'minlanishi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti, jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarini tashkil etish va tugatish belgilangan tartibda amalga oshiriladi²¹.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori

II BOB. OZODLIK DAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINI

2.1-§. Jazoni ijro etish muassasalarining turlari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining huquqiy maqomi, vazifalari, huquq va majburiyatlarini, jihozlanishini va faoliyatini tashkil etishga qo‘yiladigan umumiyl talablarni belgilaydi.

Jazoni ijro etish muassasalari ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish sohasidagi davlat muassasasi hisoblanadi²².

Jazoni ijro etish muassasalari o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladilar.

Jazoni ijro etish muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tizimi tarkibiga kiradilar va quyi turuvchi boshliqlarning yuqori turuvchi boshliqlariga va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziriga bo‘ysunishi asosida faoliyat yuritadilar.

Jazoni ijro etish muassasasi yuridik shaxs hisoblanadilar, faoliyatini amalga oshirish uchun o‘zining mustaqil balansiga, shaxsiy g‘azna hisobvarag‘lariga va bank hisobvarag‘lariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrlariga, shuningdek, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun muassasaning nomi yozilgan va O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan blankalariga ega bo‘ladilar.

Jazoni ijro etish muassasalari huzurida yuridik shaxs hisoblangan, faoliyatini amalga oshirish uchun o‘z mustaqil balansiga, shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga va bank hisobvarag‘iga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va

²² “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zR VM 05.03.2020 y. 128-sun qaroriga 1-ilova).

o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrlarga, shuningdek, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun korxonaning nomi yozilgan va O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan blankalarga ega bo‘lgan davlat unitar korxonalari tashkil etilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasalari huzuridagi davlat unitar korxonalari qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Davlat unitar korxonalari boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan xususiy sheriklik sharflarida hamkorlikda faoliyat yuritish huquqiga egadir.

Jazoni ijro etish muassasalari, shuningdek, davlat unitar korxonalarining binolari va hududlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda rejimli obyektlar toifasiga kiradilar.

Jazoni ijro etish muassasalariga rasmiy nom O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan beriladilar.

Jazoni ijro etish muassasalariga quyidagilar kira dilar:

- jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan, davolash huquqi asosidagi koloniyalari;
- tarbiya koloniyalari;
- turmalar;
- mahkumlar uchun ixtisoslashtirilgan kasalxonalar²³.

Tergov hibsxonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan (keyingi o‘rinlarda mahkumlar deb ataladi) va xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari funksiyalarini bajaradilar.

Jazoni ijro etish koloniyalari manzil-koloniyalarga, umumiy rejimli koloniyalarga, qattiq rejimli koloniyalarga, maxsus rejimli koloniyalarga bo‘linadi va voyaga yetgan mahkularni saqlash uchun mo‘ljallangan tarbiya koloniyalarga.

Tarbiya koloniyalari voyaga yetmagan mahkularni saqlash uchun mo‘ljallangan.

²³ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023 y.) tahririda – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-sod)

Turmalar voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo‘ljallangan.

Mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar bemor mahkumlarni saqlash va ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan²⁴.

Mahkuma ayollar, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan mahkum shaxslar ushbu toifa mahkumlar uchun mo‘ljallangan, jazoni ijro etish muassasalarining sud tomonidan tayinlangan rejimi turiga muvofiq ajratilgan hududlarda jazoni o‘taydilar.

Jazoni ijro etish muassasalarining rejimi turi va to‘ldirilish limiti O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadilar.

Jazoni ijro etish muassasalarining sig‘imi mahkumlar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan yashash maydonidan kelib chiqqan holda belgilanadilar.

Bitta jazoni ijro etish muassasasida mahkumlar soni 3000 nafardan oshmasligi lozimdir.

2.2-§. Jazoni ijro etish muassasalarini jihozlashga qo‘yiladigan umumiyl talablar

Jazoni ijro etish muassasalarining hududi yashash va ishlab chiqarish hududlaridan, shuningdek, tutash va yordamchi hududlardan tashkil topadi.

Mahkumlar yashashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan, ajratilgan hududlar yashash hududlari deb ataladi.

Yashash hududida:

- ❖ mahkumlar uchun yashash joylari – umumiyl yashash yotoqxonalari, xonalar, kameralar;
- ❖ madaniy-maishiy binolar – oshxonalar, klublar, kutubxonalar, maktablar, hammom va kir yuvish majmualari, mahkumlar tovar xarid qilishi uchun savdo shaxobchalari (do‘kon), mahkumlar saflanishi va sport bilan shug‘ullanishi uchun maydonchalar, omborlar va boshqa kommunal-maishiy bino va inshootlar;

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-soni buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) asosan kiritilgan – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-soni

❖ maxsus binolar – tibbiyot qismi, qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlar uchun xonalar, intizomiy bo‘linma, mahkuma va mahkumlarni qabul qilish bo‘linmasi, muassasa ma’muriyati uchun bino joylashtiriladi.

Ayol mahkumalarni saqlashga mo‘ljallangan koloniylar huzurida bolalarning normal yashashi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilgan bolalar uyi tashkil etiladi²⁵.

Mahkumlar ishlaydigan ajratilgan hudud ishlab chiqarish hududi deb ataladilar.

Ishlab chiqarish hududi doirasida:

- ishlab chiqarish sanoat va ishlab chiqarish qurilish obyektlari;
- omborxona binolari;
- ishlab chiqarish xodimlari uchun bino va inshootlar;
- boshqa yordamchi bino va inshootlar joylashtiriladi.

Tarbiya koloniylari va manzil-koloniyalarning yashash va ishlab chiqarish hududlari ajratilgan hududlarga bo‘linmaydi.

Tutash va yordamchi hududlar ularda jazoni ijro etish muassasining normal faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida jihozlangan bino va inshootlarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan.

Tutash va yordamchi hududlarda nazorat o‘tkazish joyi, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati xodimlari, omborlar, xizmat avtotransport vositalari uchun garaj, yong‘in xavfsizligi brigadasi, kommunal-maishiy inshootlar joylashadi.

Jazoni ijro etish muassasalari hududi muxandislik-texnik qo‘riqlash vositalari, qurilmalari va kommunikatsiya tarmoqlari bilan jihozlanadilar.

Jazoni ijro etish muassasalari hududida muassasalar faoliyatini tashkil etish va mahkuma va mahkumlar qonunchilikda belgilangan sharoitlarda saqlanishini ta‘minlash uchun boshqa bino va inshootlar ham joylashtirilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasalarining bino va inshootlari qonunchilik tomonidan tasdiqlangan mahkuma va mahkumlar uchun yashash maydoni normalariga va

²⁵ “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zR VM 05.03.2020-y. 128-son qaroriga 1-ilova).

sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiyena normativlariga, shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Jazoni ijro etish muassasalarining perimetri asosiy to‘siq bilan jihozlanadilar (manzil-koloniylar bundan mustasno). Asosiy to‘siq transport va odamlarning nazorat o‘tish joylaridan tashqari, boshqa joylardan kirishining oldini olish, shuningdek, qo‘riqlash chizig‘ini belgilash va obyektni tashqi tomondan kuzatishni qiyinlashtirish uchun mo‘ljallanadilar.

Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazolarni ijro etish muassasalaridan 50 metr masofada ma’muriy, maishiy, xo‘jalik bino va inshootlari qurilishi uchun yer uchastkalari ajratish, ularni ijaraga berish, shuningdek, balandligi 6 metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlar qurilishiga yo‘l qo‘yilmaydilar.

Jazoni ijro etish muassasalariga kirib-chiqish va ichki rejimlar, qo‘riqlash bilan bog‘liq tadbirlar, shuningdek, jihozlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadilar²⁶.

2.3-§. Jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari va funksiyalari

Jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish;
- ❖ mahkuma va mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ishga joylashishga va maishiy hayotidagi ehtiyojlarini aniqlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek, ularning huquqbazarliklarni sodir etishining oldini olish maqsadida tarbiyaviy ishlar olib borish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalari va davlat unitar korxonalarining moliya-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahkumlarning bandligini ta’minlash;

²⁶ “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zR VM 05.03.2020-y. 128-son qaroriga 1-ilova).

❖ jazoni ijro etish muassasalari shaxsiy tarkibi va kadrlar bilan ishslash, xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish²⁷.

O‘ziga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasalari quyidagi funksiyalarni amalga oshiradilar:

a) mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish sohasida:

- sudlarning hukmlari, ajrimlari va qarorlari aniq va so‘zsiz ijro etilishini ta’minlaydilar;
- mahkumlar qonunchilik talablariga muvofiq joylashtirilishini ta’minlaydilar;
- mahkumlarni avf etish to‘g‘risidagi materiallarni o‘z vaqtida rasmiy-lashtiradilar va ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi avf etish masalalari bo‘yicha Komissiyaga taqdim etish uchun Jazoni ijro etish departamentiga yuboradilar;
- amnistiya va avf etish to‘g‘risidagi hujjatlarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta’minlaydilar;
- mahkumlarning ajratib qo‘yilishi, qo‘riqlanishi va nazorat qilinishini ta’minlaydilar;
- O‘zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining jinoyat ish yuritushi sohasidagi xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq, shu jumladan, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan mahkumlarni topshirish (ekstraditsiya qilish) bilan bog‘liq qarorlarini ijro etadilar.

b) jazoni ijro etish muassasalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish sohasida:

- jazoni ijro etish muassasalarida huquq-tartibot va qonuniylikka rioya etilishini ta’minlaydilar;

²⁷ Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 05.03.2020-y. 128-sun qaroriga 1 ilova).

- jazoni ijro etish muassasalari hududlarida bo‘lgan mahkumlar, shuningdek, xodimlar (ishchilar va xizmatchilar) va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlaydilar²⁸;
- yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradilar;
- jazoni ijro etish muassasalarida, mahkumlarni mehnatga jalb etadigan tashkilotlarning ishlab chiqarish obyektlarida nazorat qilishning zamonaviy muhandislik-texnik qo‘riqlash vositalaridan foydalangan holda zarur darajada kuzatuv va nazorat tashkil etilishini ta’minlaydilar;
- taklif, ariza va shikoyatlarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqadilar;
- mahkumlar tomonidan jazoni ijro etishning belgilangan tartibiga rioya etilishini ta’minlaydilar;
- jazoni ijro etish muassasalarida tegishli belgilangan normalarga mos keladigan saqlash shart-sharoitlarini yaratadilar;
- mahkumlarning moddiy-maishiy ta’minotini va ularga tibbiy xizmat ko‘rsatilishini tashkil etadi, shuningdek, mahkumlarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash va ularning majburiy davolanishini amalga oshiradilar.

v) mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ishga joylashishga va maishiy hayotidagi ehtiyojlarini aniqlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek, ularning huquqbuzarliklarni sodir etishining oldini olish maqsadida tarbiyaviy ishlar olib borish sohasida:

- mahkumlar o‘rtasida qonunlarga itoatkorlik, shaxsga, jamiyatga, mehnatga, insoniy qadriyatlar va an’analarga nisbatan hurmatni shakllantirish, bilim va madaniy darajasini oshirishga qaratilgan tarbiyaviy-profilaktik va tushuntirish ishlarini amalga oshiradilar;

²⁸ Озодликдан маҳрум этиш туридаги жазони ижро этиш муассасалари тўғрисида Низом (ЎзР ВМ 05.03.2020 й. 128-сон карорига 1-илова).

- mahkumlar o‘rtasida huququzarliklar profilaktikasi, huququzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etadilar;
- ma’muriy nazorat o‘rnatalishi lozim bo‘lgan mahkumlar toifasini aniqlab, tegishli taqdimnomalarni sudga kiritadilar;
- tezkor-qidiruv tadbiralarini amalga oshiradilar²⁹;
- jazoni ijro etish muassasalariga taqiqlangan predmetlarning (narkotik vositalar, psixotrop, portlovchi va zaharli moddalar, diniy-ekstremistik tusdagi adabiyotlar va boshqalar) kirib kelishi yo‘llarini aniqlanishi va bartaraf etilishini ta’minlaydilar;
- mahkumlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini tashkil etadi va o‘tkazadilar;
- mahkumlarni ozod etilganidan so‘ng keyinchalik ishga joylashtirish maqsadida ularni mehnat bozorida talab bo‘lgan kasbni egallashlari uchun kasbga tayyorlashni tashkil etadilar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan qochgan mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar, shuningdek, manzil-koloniyalarda saqlanayotgan va ushbu muassasalar hududini o‘zboshimchalik bilan tark etgan mahkumlarni qidirish va ushslashni amalga oshiradilar.

g) jazoni ijro etish muassasalari va davlat unitar korxonalarining moliya-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahkumlarning bandligini ta’minlash sohasida:

- moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va buxgalteriya hamda statistika hisobotlarini zarur darajada yuritish, olib borilayotgan moliyaviy va xo‘jalik faoliyatining maqsadga muvofiqligi hamda qonunchilikka mosligi ustidan nazorat qilishni tashkil etadilar;

²⁹ “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zR VM 05.03.2020-y. 128-son qaroriga 1-ilova).

- jazoni ijro etish muassasalari va ularning korxonalarida ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini tashkil etadi va rivojlantirishga ko‘maklashadilar;
- jazoni ijro etish muassasalarini moddiy-texnik ta’minlash, mol-mulkdan maqsadga muvofiq foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘riqlash, shuningdek, ularning saqlanishi va oqilona ishlatilishi bo‘yicha zarur choralarни ko‘radilar;
- shartnomaviy-huquqiy va talabnama-da’vo ishlarini yuritishni amalga oshiradilar;
- ishlab chiqarish (qishloq xo‘jaligi) uchastkalarida, alohida hollarda esa boshqa korxonalarda mahkumlarning axloqiy va moddiy manfaatdorligi uchun shart-sharoitlar yaratish yo‘li bilan ularning ish bilan bandligini ta’minlaydilar.

d) kadrlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish sohasida:

- axborot-tahlil ishlarini amalga oshiradi, jazoni ijro etish muassasasi faoliyatini rejalashtiradi va prognoz qiladilar;
- kadrlarni tanlash va joy joyiga qo‘yish, ularni qayta tayyorlash va jangovar, jismoniy hamda ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi, professional darajasini oshirish bo‘yicha tadbirlarni tashkil qiladilar;
- jazoni ijro etish muassasalari shaxsiy tarkibining jangovar va safarbarlik tayyorgarligini oshiradi, favqulodda vaziyatlarda kuch va vositalarning harakatlanishga shayligini nazorat qiladilar;
- xodimlar (ishchilar va xizmatchilar) va ularning oila a’zolarini huquqiy, ijtimoiy himoyasini va shaxsiy xavfsizligini ta’minlaydilar;
- xodimlar orasida o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilish, boshqa huquqburzaliklar sodir etilishining oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilinishini ta’minlaydilar;

- xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarini tashkil etadilar.

Jazoni ijro etish muassasasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin³⁰.

2.4-§. Jazoni ijro etish muassasalarining huquqlari, majburiyatları va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini tashkil etish

Jazoni ijro etish muassasalari yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga egalar:

- jazoni ijro etish muassasalari vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qilish tuzilmalari va boshqa muassasalarning ma’lumotlar bazalaridan (shu jumladan, elektron bazalaridan) axborot, statistik va boshqa materiallarni so‘rash va olishga;
- qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, jazoni ijro etish muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha takliflarni Jazoni ijro etish departamentiga kiritishga;
- huquqni muhofaza qilish, davlat organlari, jamoat tashkilotlari vakillarini tarbiyaviy profilaktik tadbirlarga, mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va moslashtirishga jalb etishga;
- Jazoni ijro etish departamenti bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan hamkorlikni amalga oshirishga;
- mahkularning axloqiy saviyasini rivojlantirish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilayotgan

³⁰ “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zR VM 05.03.2020-y. 128-son qaroriga 1-ilova).

shaxslarga ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatishga fuqarolik jamiyatni institutlari, jamoatchilik vakillari va fuqarolarni jalb etishga;

- mahkumlarni boshqa joyga ko‘chirishda belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha ichki ishlar organlarining tegishli bo‘linmalari bilan hamkorlikni amalga oshirishga;
- mahkumlarni o‘qitish (umumiyligi, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim) jarayoni masalalari bo‘yicha ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga;
- ozod etilayotgan shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish, ularni ishga joylashtirish va ularning maishiy turmush sharoitlarini yaxshilash masalalari bo‘yicha tumanlar (shaharlar) hokimliklarining ijtimoiy moslashuv markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirishga;
- mahkumlarga pensiya tayinlash va ularga pensiya to‘lash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishga;
- Jazoni ijro etish departamenti bilan birgalikda saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bo‘yicha viloyat, tuman va shahar saylov komissiyalari bilan hamkorlik qilishga;
- sog‘lijni saqlash organlari bilan hamkorlikda mahkumlarga malakali davolash-diagnostika va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni turli ekspertizadan o‘tkazish, tekshirish, shu jumladan, manzil-koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlarni dori-darmonlar bilan ta’minlash masalalari yuzasidan o‘zaro hamkorlikni amalga oshirishga;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza respublika inspeksiyasining hududiy bo‘linmalari bilan mahkumlarning nogironligini tasdiqlash va belgilash, ularning kasbiy mehnatga qobiliyatini yo‘qotganligi darajasini aniqlash masalalari bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirishga;

- xodimlarning moddiy-texnik va ijtimoiy ta'minotini yaxshilash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha takliflarni Jazoni ijro etish departamentiga kiritishga;
- Jazoni ijro etish departamenti bilan kelishgan holda ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi jazoni ijro etish muassasalarini rivojlantirish va moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish uchun investitsiyalar (shu jumladan, xorijiy investitsiyalar) jalb qilish choralarini ko'rishga.

Jazoni ijro etish muassasalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin³¹.

Jazoni ijro etish muassasalari:

- mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida zarur choralarini ko'rishga;
- muassasa faoliyati bo'yicha zarur ma'lumotlarni tayyorlash va Jazoni ijro etish departamenti rahbariyatiga taqdim etishga;
- Jazoni ijro etish muassasalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Jazoni ijro etish muassasalari o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun javob beradilar.

Jazoni ijro etish muassasalariga jazoni ijro etish muassasalari boshliqlari rahbarlik qiladilar.

Toshkent shahrida joylashgan jazoni ijro etish muassasalari boshliqlari Jazoni ijro etish departamenti boshlig'inining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi jazoni ijro etish muassasalari boshliqlari Jazoni ijro etish departamenti boshlig'i bilan kelishgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri va mintaqaviy muvofiqlashtirish

³¹ "Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risida"gi Nizom (O'zR VM 05.03.2020-y. 128-sun qaroriga 1-ilova).

markazlari boshliqlari taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladilar.

Jazoni ijro etish muassasalari boshliqlari Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o‘rinbosarlarga ega bo‘ladilar.

Ish yuritish va maxfiylik tartibotini tashkil etish va ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar jazoni ijro etish muassasalari tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalarini moddiy-texnik vositalar va boshqa mol-mulk bilan ta’minlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish tizimida Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida so‘nggi besh yil ichida salmoqli ishlar amalga oshirildilar. Davlatimizning insonparvarlik siyosatidan hamda axborot texnologiyalari asri talablaridan kelib chiqib, sohada islohotlar jarayoni bundan keyin ham izchillik bilan davom ettiriladilar³².

³² “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zR VM 05.03.2020-y. 128-son qaroriga 1-lova).

III BOB. KOLONIYALAR VA TURMALARDA JAZONI O'TASH

3.1-§. Manzil-koloniyalarda jazoni o'tash

Manzil-koloniyalar – jazoni ijro etish tizimida mahkumlarni saqlash sharoitlari yengillashtirilgan muassasalardir. Bu yerga o'tkazilgan mahkumlar nisbatan erkin bo'ladi, biroq ularning muassasani o'zboshimchilik bilan tark etishlari mumkin emas.

Manzil-koloniyalar quyidagilarga bo'linadilar:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган жинойатлар, етийотсизлик оқибатида содир етилган унча оғ‘ир бо'lмаган жинойатлар учун, шунингдек, қасдан унча оғ‘ир бо'lмаган жинойат содир етганларни учун озодликтан мahrум etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalarga;
- umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek, tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalarga.

Manzil-koloniyalarda:

- mazkur muassasalarga sud hukmiga binoan kelgan voyaga yetgan mahkumlar;
- umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan va tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga yetgan mahkumlar³³;
- ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган жинойати, етийотсизлик оқибатида содир етилган жинойати учун ва қасдан содир етган унча оғ‘ир бо'lмаган жинойати учун озодликтан мahrum qilish bilan bog‘liq bo'lмаган jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tarzida sudning ajrimi asosida yuborilgan voyaga yetgan mahkumlar jazoni o'taydi³⁴.

Manzil-koloniyalarga tuzalish yo‘liga o‘tgan va:

- оғ‘ир жинойати учун, шунингдек, қасдан содир етган жинойати учун, agar u ilgari қасдан содир етган жинойати учун озодликтан мahrum etishga hukm

³³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi.T., 2023-y. – Lex.uz.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2015-yil 6-iyuldaggi 109-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-1, 15.07.2015-y.) tahririda – O‘R QHT, 2015-y., 28-son, 378-modda).

qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tagan mahkumlar;

• o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini o'tagan mahkumlar o'tkaziladi³⁵.

Manzil-koloniyalarga quyidagilar o'tkazilmaydilar:

- o'ta xavfli retsidivistlar;
- uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi avf etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;
- shuningdek, jazoni o'tash davrida Jinoyat-ijroiya kodeksining 112¹-moddasida nazarda tutilgan tartibda manzil-koloniyadan umumiyl tartibli koloniyaga o'tkazilganlar, shuningdek, umumiyl yoki qattiq tartibli koloniyaga qaytarilgan mahkumlar sud tomonidan bu haqda ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran kamida ikki yil mobaynida:
- manzil-koloniyalarda jazoni o'tash vaqtida jinoyat sodir etgan va sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumlar;
- yopiq turdag'i tibbiyot muassasalarida maxsus davolanish talab etiladigan yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar;
- majburiy davolanishdan o'tayotgan mahkuma va mahkumlar;
- mehnatga qobiliyatsiz mahkuma va mahkumlar.

Bitta manzil-koloniyada mahkum erkaklar va mahkuma ayollar saqlanishi mumkin³⁶.

Manzil-koloniyalarda mahkumlar:

- soqchisiz, ammo nazorat ostida saqlanadilar;

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son).

³⁶ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi.T., 2023-y. – lex.uz.

- ertalab o‘rindan turishdan kechki yotishgacha bo‘lgan vaqt mobaynida koloniya hududi doirasida erkin yurish huquqidan foydalanadilar;
- agar ular bajarayotgan ish yoki olayotgan ta’lim taqozo etsa, ma’muriyatning ruxsati bilan koloniya hududidan tashqarida nazoratsiz yurishlari mumkin;
- fuqarolar kiyadigan kiyimlarda yuradilar;
- pul va qimmatli buyumlarni saqlashlari, ulardan cheklanmagan miqdorda foydalanishlari mumkin;
- ishdan bo‘sh vaqtlarida cheklanmagan miqdorda telefon orqali so‘zlashishlari, shu jumladan fotosuratga olish, audio yoki video yozib olish funksiyalari mavjud bo‘limgan hamda Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati bo‘limgan uyali aloqa vositalaridan foydalanishlari, posilka, yo‘qovlar va banderollar olishlari hamda jo‘natishlari mumkin;
- o‘z shaxsiy mablag‘lari hisobiga xarid qilingan oziq-ovqat mahsulotlaridan va yo‘qovlardagi mahsulotlardan mustaqil ravishda ovqat tayyorlashni amalga oshiradilar³⁷.

Mahkularning uyali aloqa vositalari manzil-koloniya ma’muriyati tomonidan mahkularning uyali aloqa vositalarini ro‘yxatga olish jurnalida qayd etiladilar.

Uyali aloqa vositalarini qayd etish uchun quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- mahkumning manzil-koloniya boshlig‘i nomiga telefon apparatining markasi, abonent raqami (SIM/RUIM-karta) to‘g‘risidagi arizasi;
- agar abonent raqami mahkumning qarindoshi nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, ushbu qarindoshning abonent raqamidan mahkum foydalanishiga roziligi to‘g‘risidagi ariza.

Manzil-koloniya ma’muriyati tomonidan Mahkularning uyali aloqa vositalarini ro‘yxatga olish jurnalida qayd etilmagan uyali aloqa vositalaridan foydalanishlari taqiqланади.

³⁷ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi.T., 2023-y. – Lex.uz

Manzil-koloniysi ma'muriyati mahkumlar tomonidan foydalani layotgan uyali aloqa vositalarining markalari, abonent raqamlarini muntazam ravishda mahkumlarning uyali vositalarini ro'yxatga olish jurnalida qayd etilgan ma'lumotlar bilan taqqoslab boradilar³⁸.

Manzil-koloniysi ma'muriyati tomonidan taqqoslash uchun uyali aloqa vositalarini taqdim qilishlari so'ralganda, mahkuma va mahkumlar uyali aloqa vositalarini darhol taqdim etishlari shart.

Mahkuma va mahkumlar cheklanmagan miqdorda qisqa muddatli uchrashuvlar, yil mobaynida yigirma to'rt marta uzoq muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega. Uchrashuvlar, qoida tariqasida, ishdan bo'sh vaqtida beriladilar.

Manzil-koloniya hududida uzoq muddatli uchrashuv o'tkazish imkoniyati bo'lmasa, uchrashuv mahkumlarning arizasiga binoan manzil-koloniya hududidan tashqarida, ushbu koloniya joylashgan tuman (shahar) hududida o'tkazilishi mumkin.

Uzoq muddatli uchrashuvlar koloniya boshlig'ining yordamchisi-tezkor navbatchi (bundan buyon matnda tezkor navbatchi deb yuritiladi) tomonidan qayd etib boriladi.

Manzil-koloniya hududidan tashqarida harakatlanish chegaralari mahkumlarga tilxat olinib, ma'lum qilinadi va tilxat ularning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildiga qo'shib qo'yiladilar.

Mahkumlarga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalaringning 1-ilovasiga muvofiq shaklda qat'iy hisobda turuvchi guvohnoma beriladilar.

Mahkum va mahkumalar xonalarga bo'lingan yotoqxonalarda yashaydilar. Mahkum va mahkumalarning ismi va otasining ismi bosh harflari hamda familiyasi yozilgan ro'yxat xonalar eshigining tashqi tarafiga osib qo'yiladilar.

Saqlash rejimini buzmagan, oilasi bor mahkum va mahkumalarga jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

³⁸ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29 dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari tasdiqlash to'g'risida»gi 174-sonli buyrug'i.

ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 2-ilovasiga muvofiq shakldagi qaroriga binoan manzil-koloniya hududida yoki manzil-koloniya joylashgan tuman (shahar) hududida oilasi bilan alohida yashashga ruxsat berilishi mumkin. Bunday shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining VIII bob 4-paragrafida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tish uchun hozir bo‘lishlari shart. Manzil-koloniya ma’muriyatining vakili mahkumlar yashayotgan joyga sutkaning istalgan vaqtida kirishlari mumkin.

Manzil-koloniya hududidan tashqarida yashash huquqi Jinoyat kodeksining 73-moddasi to‘rtinchi qismining «v» va «g» bandlarida ko‘rsatilgan mahkularga berilmaydi³⁹.

Manzil-koloniyalarda mahkum va mahkumalar mehnati Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilab qo‘yilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadilar.

Mahkum va mahkumalarni boshqa ishga o‘tkazishni tashkilot manzil-koloniya ma’muriyati bilan kelishgan holda amalga oshiradilar.

Mahkularga jazoni ijro etish muassasalari joylashgan yerdagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida sirtdan o‘qishlariga ruxsat beriladi.

3.2-§. Umumiylar, qattiq, va maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o‘tash

Umumiylar quyidagilarga bo‘linadilar:

- og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniylar;
- o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniylar;

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

■ og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniylar, Jinoyat-ijroiya kodeksining 48-moddasida ko‘rsatilgan ayollar bundan mustasno.

Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- Jinoyat-ijroiya kodeksining 129-moddasida nazarda tutilgan hollarda tarbiya koloniylaridan o‘tkazilgan mahkum va mahkumalar;
- sud tomonidan manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida o‘tkazilgan mahkum va mahkumalar;
- qasddan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganligi uchun birinchi marta hukm qilingan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tartibida sudning ajrimi asosida yuborilgan mahkum va mahkumlar;
- rag‘batlantirish tarzida yoki sud tomonidan tayinlangan turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish muddatini o‘taganidan keyin turmalardan o‘tkazilgan mahkum va mahkumlar o‘taydilar.

Tuzalish yo‘liga o‘tgan mahkum va mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkaziladi⁴⁰.

Umumiy tartibli bir koloniyanan ikkinchisiga o‘tkazilgan mahkum va mahkumlar jazoni bu yerga o‘tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o‘taydilar.

Tarbiya koloniyasidan o‘tkazilgan mahkumlar jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o‘taydilar.

Umumiy tartibli koloniyalarda mahkum va mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar.

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2015-yil 6-iyuldagи 109-soni buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-1, 15.07.2015-y.) tahririda – O‘R QHT, 2015 y., 28-son, 378-modda).

Mahkum va mahkumlar belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 70,3 foizigacha bo‘lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkum va mahkumlar yil mobaynida: olti marta qisqa muddatli va olti marta uzoq muddatli uchrashuvlar; o‘n ikki marta telefon orqali so‘zlashuvlar; o‘n ikkita posilka yoki yo‘qovlar; o‘n ikkita banderollar olish huquqlarga ega.

Qattiq tartibli koloniyalar quyidagilarga bo‘linadilar:

- ✓ ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;
- ✓ ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek, o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar⁴¹.

Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- turmalar va maxsus tartibli koloniyalardan rag‘batlantirish tarzida o‘tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan tayinlangan turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish muddatini o‘taganidan so‘ng turmalardan o‘tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar⁴²;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ilgari o‘tagan va qasddan jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga qayta hukm qilinib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tartibida sudning ajrimi asosida yuborilgan mahkumlar o‘taydilar.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi.T., 2023-y. – lex.uz

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2015-yil 6-iyuldaggi 109-soni buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495/1, 15.07.2015-y.) tahririda – O‘R QHT, 2015 y., 28-son, 378-modda)

Tuzalish yo‘liga o‘tgan mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkaziladilar.

Qattiq tartibli bir koloniyanan ikkinchisiga o‘tkazilgan mahkumlar jazoni bu yerga o‘tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o‘taydilar.

Qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar umumiylar turar joylarda yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 52,7 foizigacha bo‘lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:

- besh marta qisqa muddatli va besh marta uzoq muddatli uchrashuvlar;
- sakkiz marta telefon orqali so‘zlashuvlar;
- sakkizta posilka yoki yo‘qlovlar;
- sakkizta banderollar olish huquqlarga egadir⁴³.

Maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum qilinib, o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek, umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni saqlash uchun mo‘ljallangan.

Maxsus tartibli koloniyalarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi avf etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan erkaklar ham saqlanadilar⁴⁴.

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi avf etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;
- sud tomonidan qattiq tartibli koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar o‘taydilar.

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) tahririda – Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son)

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi.T., 2023-y. – lex.uz

Tuzalish yo‘liga o‘tgan mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkaziladilar.

Maxsus tartibli bir koloniyanan ikkinchisiga o‘tkazilgan mahkumlar jazoni bu yerga o‘tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o‘taydilar.

Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar kameralarda yoki umumiylashash binolarida yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 35,2 foizigacha bo‘lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:

- to‘rt marta qisqa muddatli va to‘rt marta uzoq muddatli uchrashuvlar;
- olti marta telefon orqali so‘zlashuvlar;
- oltita posilka yoki yo‘qlovlardan;
- oltita banderollar olish huquqlarga ega.

Kameralarda saqlanadigan mahkumlarning kinofilmlar va teleko‘rsatuvalar ko‘rishlari taqiqlanadi⁴⁵.

3.3-§. Turmalarda jazoni o‘tash

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya-kodeksining 45-moddasiga asosan ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etuvchi muassasalardan biri turmalar hisoblanadi. Turmalar ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalar orasidagi eng kam sonlisi va qadimiysi hisoblanadi. Dastlabki turmalar XVIII asrning 2-yarmi va XIX asrning boshlarida Amerika Qo‘shma Shtatlarining Pensilvaniya shtatidagi Filadelfiya shahrida vujudga keldi⁴⁶. Keyinchalik Filadelfiya tizimi deb nom olgan turmalarga asos solindi.

O‘sha davrdagi turmalar tizimi uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlardan biri shunda ediki, mahkumlar qanday jinoyat qilishlaridan va jamiyat uchun xavflilik

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi.T., 2023-y. – lex.uz

⁴⁶ Qarang: Леленталь С., Вежбенский П. Исполнение наказания виде лишения свободы. – М., 1978 г. – С. 44.

darajasi qanday bo‘lishlaridan qat’i nazar kameralarda yakka saqlanar, hatto sayrga olib chiqishda ularga maska (niqob) kiydirgan holda yakka tartibda olib borilganlar. Pirovardida turmada saqlangan mahkumlarning aksariyat qismi ruhiy kasalliklarga chalinib, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazilganlar.

1853-1857-yillarda Angliyada nisbatan progressiv tizimni paydo bo‘lishi natijasida mahkumlarni turmalarning umumiyligi kameralarida sodir etgan jinoyatiga qarab uch bosqichda saqlash tartibi ishlab chiqildi.

Mahkumni bir bosqichdan boshqasiga o‘tkazishda turma ma’muriyati tomonidan mahkumning xulq-atvori inobatga olingan holda amalga oshirilgan.

Har bir bosqich o‘z turiga qarab nomlangan, ya’ni:

- 1-bosqich - sinov bosqichi;
- 2-bosqich - tuzatish bosqichi;
- 3-bosqich - shartli ozod qilish bosqichi deb atalgan.

Mamlakatimizdagi turmalarning paydo bo‘lishi chor Rossiyasining turma tizimi va respublikamiz hududida o‘sha davrda faoliyat ko‘rsatgan zindonlar bilan bog‘liqdir. Rossiya turma qonunchiligi XIX asrda birmuncha rivojlangan hamda turma tizimi Adliya va Ichki ishlar vazirligi bo‘ysunuvida bo‘lib, unga qal’a qamoqxonalari, gaupvaxtalar, qamoq uylari va monastir turmalari kirgan.

Hozirgi davrdagi zamonaviy turmalar mahkumlar saqlanadigan maxsus korpuslar, oshxona, kir yuvish xonasi, hammom, statsionar sharoitda mahkumlarni davolash imkoniyati bo‘lgan tibbiy bo‘lim, sayr qilish maydonchalari va ishlab chiqarish binolari (kameralari) bilan jihozlangan holda quriladi. Turma hududi balandligi to‘rt yarim metrdan kam bo‘lmagan yaxlit beton devor bilan o‘ralib, uning tevarak-atrofi esa injener-texnik qo‘riqlash vositalari bilan ta’milanadi.

Turmalar turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarni, shuningdek, umumiyligi va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o‘tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o‘tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo‘ljallanganlar.

Turmalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkuma va mahkumlar;

■ sud tomonidan jazoni ijro etish koloniyalaridan o‘tkazilgan jazo o‘tash tartibini ashaddiy buzuvchilar o‘taydilar.

Turmalarda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkazish Jinoyat ijroiya kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladilar.

Turmalarda mahkumlarni yengillashtirilgan saqlash sharoitiga muddatidan oldin o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi, mahkumni sog‘lig‘iga ko‘ra tegishli tibbiy xulosa asosida o‘tkazish hollari bundan mustasno.

Homilador ayollar va yonida emizikli bolasi bor ayollar, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar turmalarda jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o‘taydilar.

Turmalarda mahkum va mahkumalar umumiylardan kameralarda saqlanadilar. Alovida hollarda mahkum va mahkumalarning batamom ajratib qo‘yilishini ta’minalash maqsadida jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori asosida uni bir kishilik kamerada saqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Turmada mahkumlar belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 26,5 foizigacha bo‘lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishlari mumkin.

Turmalarda mahkum va mahkumalar har kuni muddati bir soatlik sayr qilish hamda yil mobaynida:

- ❖ to‘rt marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli uchrashuvlar;
- ❖ to‘rt marta telefon orqali so‘zlashuvlar;
- ❖ to‘rtta posilka yoki yo‘qlovlar;
- ❖ to‘rtta banderollar olish huquqiga ega.

Turmalarda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkazilgan mahkum va mahkumalarga rag‘batlantirish tarzida har kunlik sayr muddati bir soatga uzaytirilishi mumkin⁴⁷.

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi.T., 2023-y. – lex.uz

3.4-§. Tarbiya koloniyalarda jazoni o‘tash

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan mahkumlarni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tashlari uchun qonunda tarbiya koloniysi nazarda tutilgan. Qonunchiligidizda «tarbiya» terminiga urg‘u berilishi bejiz emas, chunki tarbiya koloniyalarda jazoni ijro etish koloniyaliga qaraganda mahkumlarga psixologik-pedagogik va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning turli shakllari va metodlari ko‘proq ishlab chiqilgan va ushbu metodlarni amaliyotda ko‘proq qo‘llash talab etiladilar. Bunda mahkumlarni yoshi, individual xususiyatlari, psixologik va jismoniy rivojlanish holatlari albatta e’tiborga olinadilar.

Jazoni ijro etish tizimida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni o‘tash joylarini tarixi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘tgan asrning boshlarigacha bu masalaga jiddiy e’tibor berilmay kelgan.

Masalan: 1909-yilgacha Rossiya turma qonunchiligidagi 10 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan mahkumlar katta yoshdagagi mahkumlar bilan birgalikda saqlanib kelgan.

Turkistonda birinchi voyaga yetmagan mahkumlarni tarbiyalash uchun mo‘ljallangan tibbiy ta’limot muassasalari faqat 1921-yilga kelib Turkiston ASSR Adliya xalq komissarligi tomonidan 1921-yil 29-mayda tasdiqlangan «Voyaga yetmagan ozodlikdan mahrum etilganlar uchun mo‘ljallangan Toshkent mehnat uyi (Reformatoriumlar) to‘g‘risida»gi Nizom asosida tashkil etilgan.

1955-yilda kelib Sobiq Ittifoqda rasman voyaga yetmaganlar uchun tarbiya mehnat koloniyalari tashkil etildi va uni ikki turi bo‘lib, umumiy va kuchaytirilgan tartibli turlari joriy etilgan.

2003-yil 12-dekabrdagi Jinoyat ijroiya kodeksining 125-moddasi 3 va 4-qismlariga o‘zgartirishlar kiritilib «Umumiy va kuchaytirilgan tartibotli» degan so‘zlar chiqarib tashlandilar. 2004-yilga kelib kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyalari tugatildi va Respublika bo‘yicha bitta tarbiya koloniysi qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasi 2-qismiga asosan jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatarda (qaysi jinoyatlar) qasddan odam o‘ldirganliklari uchungina javobgarlikka tortiladilar deb ko‘rsatilgan⁴⁸. (Voyaga yetmagan ozodlikdan mahrum qilingan 6 oydan 10 yilgacha, Jinoyat ijroiya kodeksining 85-moddasi 1-qismi). Bir necha hukm yuzasidan tayinlangan jazo 15 yildan oshmasligi belgilangan. Demak, tarbiya koloniyada 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar va muassasa boshlig‘ining, prokuror tomonidan tasdiqlangan qaroriga asosan qoldirilgan (Tarbiya koloniyada jazoni o‘tash davrida salbiy tavsifga ega bo‘lmagan) 21 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetgan mahkumlar jazo muddatini o‘taydilar⁴⁹.

Tarbiya koloniylarida birinchi o‘rinda mahkumlarning tarbiyasi va ta’limi ularni halol yashashga tayyorlash masalalari qo‘yiladi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda huquqbuzar shaxsning xususiyatlari va psixologik jismoniy holati hisobga olinadi.

Psixologiya fani shaxs shakllanishining ikki bosqichini ajratib ko‘rsatadi:

- O‘spirinlik ya’ni, bolalarning 11-12 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan davri.
- Kichik o‘rta yosh ya’ni, 15-18 yosh.
- 14-17 yoshdagi voyaga yetmagan – bu odatda umumiyo‘rta ta’lim yoki kasb hunar maktabining litsey, kollej o‘quvchisi ba’zan esa qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish sanoatining faol ishtirokchisi hamdir. Bu yoshda odam o‘zining ilk mustaqil qadamlarini qo‘ya boshlaydi. Uning tabiatini hali shakllanmagan bo‘ladi. Psixologik sifatlari va xususiyatlari hali barqaror bo‘lmaydi, qilmishlari va xattiharakatlar shunchalik izchil emaski, ulardagi biror istiqbolli xulq-atvorni kuzatish ba’zan juda qiyin bo‘ladi. Bundan tashqari ularning xulq- atvor va uning oqibatlari haqidagi tasavvurlari shunchaki yuzaki bo‘ladiki ular javobgarlik haqida chuqr

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.– lex.uz.;

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

o‘ylab o‘tirmaydilar, aynan shu yoshdagи davrda ular kattalarga o‘xshashga harakat qiladilar.

Kichik o‘rta yosh ma’naviy va jismoniy kuchning tez rivojlanib borishi bilan tavsiflanadi. Bu odamni mustaqil mehnat va ijtimoiy hayotga layoqatli qiladi. Odamlarga va o‘ziga qiziqish uyg‘otadi. Nizolilik va hissiyotga beriluvchanlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu yorqin iztiroblar, hissiyotlar, o‘rtoqlik va do‘stlik hissining rivojlanish davridir.

Shunday qilib, voyaga yetmagan shaxs hali yetarlicha shakllanmagan va u ulg‘aymagan kishidir. Tarbiya koloniyalarda amalda og‘ir jinoyat (o‘g‘irlik, qasddan odam o‘ldirish, badanga og‘ir shikast yetkazish, nomusga tegish va x.k.) sodir etgan shaxslar, shuningdek, ilgari jinoyat sodir etgan va axloqan tuzalmagan shaxslar saqlanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmagan jinoyatchilarning faqat 15-20% gina jinoyat sodir etish paytida ijobiy ijtimoiy pedagogik tavsifga ega bo‘ladilar va jinoyatni kattalarning gjij-gijlashi yoki sho‘xlik oqibatida sodir etadilar. Agar sodir etilgan jinoyatlarning asosiy turlari bo‘yicha olib qaraladigan bo‘lsa, voyaga yetmagan mahkum o‘g‘il bolalarining 74% iqtisodiyot sohasida jinoyat etgan mahkumlardir, jumladan o‘g‘irlik uchun 62%, talonchilik uchun 8% va bosqinchilik 4% dan 14% ortiq jinoyatchilar insonning hayoti, sog‘ligi va jinsiy erkinliklariga qarshi og‘ir jinoyatlar sodir etgan shaxslardir. Jumladan 5% odam o‘ldirish uchun, 3 % qasddan badanga shikast yetkazganlik uchun, 7 % nomusga tekkanlik uchun sudlangan.

Voyaga yetmagan mahkuma qizlar orasida 62 % dan ortig‘i iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun sudlangan, jumladan o‘g‘irlik uchun 38%, tovlamachilik uchun 24 %, hayot va sog‘likka qarshi jinoyatlar uchun 22% hukm qilingan. Voyaga yetmagan mahkum o‘g‘il bolalarining 48 %ga 5 yildan – 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo belgilanadi. 3-5 yilgacha ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlar 28%, 1-3 yilgacha hukm qilinganlar 18%, 10 yildan ortiq muddatga hukm qilinganlar 7 % ni tashkil etadi. Tarbiya koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlarni tavsiflashda psixologik pedagogik xususiyatlar sodir etgan jinoyatning xususiyati va og‘irligini hisobga olgan holda

15-17 yoshli jinoyatchilarni ajratib ko‘rsatish lozim (tarbiya koloniyalarda ular o‘g‘il bolalarning 57%ini, qizlarning 40 %ni tashkil qiladi).

Ular asosan o‘zlarining yoshida anglab sodir etilgan jinoyatlar uchun jazolanganlar, bu shaxslar qasddan odam o‘ldirish, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, nomusga tegish, talonchilik, o‘g‘irlik, ashaddiy bezorilik va hokazolar uchun sudlanganlar. Bundan tashqari, ushbu o‘spirinlarga tarbiyaviy ta’sir choralar ko‘rsatilgan, lekin ular natija bermagan.

Tarbiya koloniyalari voyaga yetmasdan turib jinoyat sodir etgan mahkumlarni saqlashga mo‘ljallangan.

Tarbiya koloniyalarda:

- o‘n olti yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan mahkuma va mahkumlar kattaroq yoshdagi mahkumlardan alohida;
- birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkuma va mahkumlar ilgari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o‘tagan mahkuma va mahkumlardan alohida saqlanadilar.

Tuzalish yo‘liga o‘tgan mahkuma va mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o‘tkaziladilar.

Tarbiya koloniyalarda mahkuma va mahkumlar umumiylar turar joylarda yashaydilar.

Mahkuma va mahkumlar belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 87,9 foizigacha bo‘lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishlari mumkin.

Tarbiya koloniyalarda mahkuma va mahkumlar yil mobaynida:

- ✓ yigirma to‘rt marta qisqa muddatli va sakkiz marta uzoq muddatli uchrashuvlar;
- ✓ yigirma to‘rt marta telefon orqali so‘zlashuvlar;
- ✓ o‘n ikkita posilka yoki yo‘qovlar;
- ✓ o‘n ikkita banderollar olish huquqlarga ega.

Voyaga yetmagan mahkuma va mahkumlarga ota-onasi va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan uchrashuvlar cheklanmagan miqdorda beriladilar.

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan va tarbiya koloniyalarda qoldirilgan mahkuma va mahkumlarga voyaga yetmagan mahkumlar uchun belgilangan normalarda ovqat, ust-bosh, moddiy-maishiy ta’minot va boshqa jazo o‘tash sharoitlari tatbiq etiladilar. Bu shaxslarning mehnat sharoitlari mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjaligiga muvofiq belgilanadilar⁵⁰.

Tarbiya koloniyalarda mahkum va mahkumalar Jinoyat-ijroiya kodeksining 102-moddasida nazarda tutilgan rag‘batlantirish choralaridan tashqari:

jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida o‘tkaziladigan madaniy-tomosha va sport tadbirlarini ko‘rishga yuborish;

qisqa muddatli uchrashuv o‘rniga ota-onasi, ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida sakkiz soatgacha bo‘lgan muddatga erkinlikka chiqarish;

hibsxonada bo‘lish muddatini qisqartirish va undan muddatidan ilgari ozod qilish tariqasida rag‘batlantirish berish mumkin.

Jazoni o‘tash tartibini buzganligi uchun tarbiya koloniyalarda mahkumlarga Jinoyat-ijroiya kodeksining 105-moddasida nazarda tutilgan intizomiy jazo choralaridan tashqari tomoshaga borishdan bir marta mahrum etish tariqasidagi jazo qo‘llanilishi mumkin.

Tarbiya koloniyasida hibsxonaga kiritib qo‘yish tariqasidagi intizomiy jazo o‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan mahkumlarga yetti sutkagacha, o‘n olti va undan katta yoshdagi mahkum va mahkumalarga esa o‘n sutkagacha bo‘lgan muddatga qo‘llaniladi.

Tarbiya koloniyasining hibsxonasiga kiritib qo‘yilgan mahkum va mahkumalarning sayr qilish muddati sutkasiga ikki soat qilib belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan o‘n sakkiz yoshga to‘lgan mahkumlar, odatda, yigirma bir yoshga to‘lgunga qadar, tarbiya koloniyalarda qoldiriladilar.

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

Mahkumlarni tarbiya koloniyalarda qoldirish muassasa boshlig‘ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan amalga oshiriladi.

Mahkumlar yigirma bir yoshga to‘lganidan, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o‘n sakkiz yoshga to‘lganidan keyin jazo o‘tashni davom ettirish uchun tarbiya koloniyasidan umumiylar tartibli koloniya o‘tkaziladilar⁵¹.

Jazo o‘tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga o‘tkazish masalalari sud tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksining 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

3.5-§. Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o‘tash xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan⁵².

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 6-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan insonparvarlik prinsipiga asosan jazoni ijro etish muassasalarida ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazosini o‘tayotgan ayollarga qo‘sishimcha huquqlar berilgan. Bular jumlasiga Jinoyat-ijroiya kodeksining 130-133-moddalarida mustahkamlab qo‘yilgan mahkuma ayollarning muassasa doirasidan tashqarida yashashi, bolalarni jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish, mahkuma ayollarning muassasa doirasidan chetga qisqa muddatli chiqishi kabi huquqlarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin⁵³.

Mahkuma homilador ayollar va uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar Jinoyat-ijroiya kodeksida mahkumlar uchun nazarda tutilgan huquqlardan tashqari (JIK 130-m.):

- ❖ jazoni ijro etish muassasasi hududi doirasidan tashqarida yashash;
- ❖ bolalarini jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish;
- ❖ bolalarini joylashtirib kelish va ular bilan uchrashish uchun jazoni ijro etish muassasasi doirasidan chetga chiqish huquqiga ham ega.

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi.– T., 2023-y – lex.uz.

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .– T., 2023-y. – lex.uz.

⁵³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T-y., 2023. – lex.uz.

Homilador yoki uch yoshgacha bolalari bor mahkuma ayollar jazoni o'tash uchun bolalar uyi mavjud bo'lgan jazoni ijro etish muassasasiga yuboriladilar.

Mahkuma ayollarga voyaga yetmagan bolalari bilan muddati besh sutkagacha bo'lgan, shu jumladan jazoni ijro etish muassasasi hududi doirasidan tashqarida yashash imkoniyati bilan uzoq muddatli uchrashuv berilishi mumkin.

Ijobiy tavsifga ega mahkuma ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan vaqt mobaynida, shuningdek, bolasi uch yoshga to'lgunga qadar jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining prokuror tasdiqlagan qarori bilan koloniya hududidan tashqarida yashashga ruxsat etilishi mumkin (JIK 131-m.).

Jazoni ijro etish muassasasi hududi doirasidan tashqarida yashashga ruxsat berilgan mahkuma ayollarga guvohnoma beriladilar.

Jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida yashaydigan mahkuma ayollar o'zлari ro'yxatda turgan turkumdan chiqarilmaydilar⁵⁴. Ularning ish haqi hisob-kitob qilinib, shaxsiy hisobvaraqlaridagi pullari, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlari o'zlariga beriladilar.

Jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida yashash huquqi Jinoyat kodeksi 73-moddasining 4-qismi «a», «b», «v» va «g» bandlarida ko'rsatilgan quyidagi mahkumlarga berilmaydi, ya'ni:

- a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlarga;
- b) o'ta xavfli retsidivistga;
- v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuv-chilariga;
- g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, o'n to'rt yoshga to'limganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in quollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanishi

⁵⁴O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

mumkinligi ayon bo‘lgan material va uskunalarni kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan berilmaydi⁵⁵.

Koloniya hududi doirasidan tashqarida yashaydigan mahkumalar:

- xona tipidagi turar joylarda joylashadilar va Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatining nazorati ostida bo‘ladilar;
- ertalab o‘rindan turishdan kechki yotishgacha bo‘lgan vaqt mobaynida belgilangan yo‘nalishlar doirasida erkin yurish huquqidan foydalanadilar;
- fuqarolar kiyadigan kiyimda yurishlari, yonlarida pul va qimmatli buyumlar saqlashlari, puldan cheklanmagan holda foydalanishlari mumkin;
- cheklanmagan miqdorda banderol, posilka va yo‘qovlar olish hamda jo‘natish, qisqa muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega⁵⁶.

Qisqa muddatli uchrashuvlar, odatda, ishdan bo‘sh vaqtida beriladi.

Jazoni ijro etish muassasasi hududi doirasidan tashqarida yashash huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- jazoni o‘tash tartibi muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol tarzda buzilganda;
- homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ishdan ozod qilish davri tugaganda;
- bola uch yoshga to‘lganda.

Mahkuma ayolning jazoni ijro etish muassasasi hududi doirasidan tashqarida yashash huquqi jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘ining prokuror tomonidan tasdiqlanadigan qarori bilan bekor qilinadi.

Mahkuma ayollarini saqlashga mo‘ljallangan koloniylar qoshida bolalar uyi tashkil etiladi, unda bolalar normal yashashi va kamol topishi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadilar. (JIK 132-m.).

Mahkuma ayollar uch yoshga to‘lмаган bolalarini bolalar uyiga joylashtirishga va ishdan bo‘sh vaqtida ular bilan birga bo‘lishga haqli.

Bolalar uydagi bola uch yoshga to‘lganidan keyin onasining roziligi bilan uning qarindoshlariga yoki homiylik va vasiylik organining qaroriga binoan,

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. – T.– lex.uz.;

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

boshqa shaxslarga berilishi yoxud tegishli bolalar muassasalariga yuborilishi mumkin.

Agar mahkumaning jazoni o‘tash muddati tugashiga ko‘pi bilan bir yil qolgan va u onalik burchlarini lozim darajada bajarib kelgan bo‘lsa, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati bolaning bolalar uyida bo‘lish vaqtini uzaytirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalari bor mahkuma ayollarga bolalarini qarindoshlarinikiga, vasiylarinikiga yoki bolalar muassasalariga joylashtirib kelish uchun borish-kelish vaqtini (to‘rt sutkagacha) hisobga olmagan holda o‘n besh sutkagacha muddatga chetga chiqishga ruxsat etilishi mumkin (JIK 133-m.).

Voyaga yetmagan nogiron bolalari bor ayollarga bir yilda bir marta ular bilan uchrashish uchun yo‘lga ketadigan vaqtni hisobga olmaganda yetti sutkagacha bo‘lgan muddatga chetga chiqishga ruxsat etiladilar.

Mahkum homilador ayollar, emizikli onalar, voyaga yetmaganlarga, shuningdek, I va II guruh nogironlariga beriladigan ovqat oshirilgan normalarda belgilanadi. Tibbiy xulosa asosida ularga qo‘srimcha oziq-ovqat mahsulotlari olishga ruxsat etilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida yashayotgan mahkuma ayollar hamda ularning uch yoshga to‘lmagan bolalari, jazoni ijro etish muassasalarining bolalar uylaridagi homilador ayollar, emizikli onalar uchun belgilangan normalarda oziq-ovqat, kiyim va poyabzal bilan ta’milnadi⁵⁷.

Manzil-koloniyasida uch yoshgacha bolasi bor mahkuma ayollarning zarur pul mablag‘lari bo‘lmasa, ular manzil-koloniya ma’muriyatiga bolasi uchun jazoni ijro etish muassasasining bolalar uyida saqlanayotgan bolalar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat, kiyim va poyabzal berishni so‘rab, ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugaganidan so‘ng, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida yashayotgan mahkuma ayollarni jazoni ijro etish muassasasi korxonasiiga yoki boshqa korxonalarga ishga joylashtiradilar. Bunda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

mahkuma ayollarning bolasini maktabgacha ta’lim muassasalariga joylashtirishga yordam beradilar⁵⁸.

Intizomiy bo‘linmalarga:

- I guruh nogironlari;
- homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ishdan ozod etilgan, shuningdek, yonida emizikli bolasi bor ayollar kiritilmaydilar.

Jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida yashayotgan mahkuma ayollar hamda ularning uch yoshga to‘lmagan bolalari, jazoni ijro etish muassasalarning bolalar uylaridagi homilador ayollar, emizikli onalar uchun belgilangan normalarda oziq-ovqat, kiyim va poyabzal bilan ta’minlanadilar.

■ Manzil-koloniyasida uch yoshgacha bolasi bor mahkuma ayollarning zarur pul mablag‘lari bo‘lmasa, ular manzil-koloniya ma’muriyatiga bolasi uchun jazoni ijro etish muassasasining bolalar uyida saqlanayotgan bolalar uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat, kiyim va poyabzal berishni so‘rab, ariza bilan murojaat qilish huquqlarga ega.

■ Homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugaganidan so‘ng, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida yashayotgan mahkuma ayollarni jazoni ijro etish muassasasi korxonasiga yoki boshqa korxonalarga ishga joylashtiradilar. Bunda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati mahkuma ayollarning bolasini maktabgacha ta’lim muassasalariga joylashtirishga yordam beradilar.

3.6-§. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash tartibi va shartlari

O‘zbekiston Respublikasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni joriy etilishi va uning ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, sud-huquq tizimini isloh etishda birinchi galdag‘i e’tibor jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratildi. Jumladan, o‘lim jazosini jazo turi sifatida jinoiy qonunchiligidan chiqarib tashlash

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

bo‘yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi va nihoyat, 2005-yil 1-avgustda mamlakatimiz Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi farmoniga imzo chekdi. Unda 2008-yilning 1-yanvaridan respublikamizda jazo turi sifatida o‘lim jazosi bekor qilinishi, uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi joriy etilishi e’lon qilindi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ana shu takliflarni hisobga olgan holda 2007-yil 15-iyunda “O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonunni qabul qildi. Oliy Majlis Senati esa o‘zining o‘ninchisi yalpi majlisida mazkur qonunni ma’qulladi⁵⁹.

Shu o‘rinda o‘lim jazosini butunlay bekor qilishdan ko‘zlangan maqsad nima? degan haqli savol tug‘iladi.

■ *Birinchidan*, bunday shafqatsiz jazo turi Konstitusiyamizning muqaddimasida ta’kidlangan, biz barpo qilayotgan insonparvar demokratik huquqiy davlat siyosatiga to‘g‘ri kelmaydi. Chinakam demokratik insonparvar davlat hech qachon qonun yo‘li bilan insonni o‘limga mahkum etishi lozim emas⁶⁰.

■ *Ikkinchidan*, o‘lim jazosi xalqaro huquqiy normalarga ziddir. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida “Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir”, deb belgilab qo‘yilgan. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt”ning 6-moddasida esa “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoyalanadi. Hech kim o‘zboshimchalik bilan insonni yashash huquqididan mahrum qila olmaydi” deya ta’kidlangan⁶¹.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining asosiy qonuni muqaddimasida⁶², shuningdek, Jinoyat-ijroiya kodeksining 4-moddasida xalqaro huquqning

⁵⁹ Ўzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi PF-3641-son farmoni.

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .T., 2023-y. – lex.uz

⁶¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul va e’lon qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”.

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . – T., 2023-y. – lex.uz.

umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan. Demak, ertami-kechmi respublikamiz qonunlarini xalqaro huquq talablariga moslashtirish zaruratin davrning o'zi taqozo qiladilar⁶³.

Uchinchidan, Konstitusiyamizning 25-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi deb qat’iy belgilab qo‘yilgan⁶⁴. Ajralmas huquqdan noqonuniy mahrum qilish, ajratish eng og‘ir jinoyat, qonun yo‘li bilan mahrum qilish esa shafqatsizlikdir. Demak, Asosiy qonunimiz talabidan kelib chiqadigan bo‘lsak, insonni o‘lim jazosiga mahkum etish mumkin emas. Shunday ekan, bu jazo turini Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlash zarur edi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 16-moddasida “Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitusiya normalari va qoidalari zid kelishi mumkin emas” deyilgan⁶⁵.

➤ *To‘rtinchidan*, o‘lim jazosini bekor qilish sud xatosini tuzatish imkonini beradi. Zero, kishi sud tomonidan o‘lim jazosiga asossiz mahkum etilib, hukm ijob etilgach, uning aybsizligi isbotlangan holatlar uchrab turadi. Biologik hayotga chek qo‘yilgan, ya’ni, jismonan yo‘q qilingan insonni esa qayta tiriltirib bo‘lmaydi. Umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni esa uning aybsizligi isbotlangach, ozod qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda o‘lim jazosini qonun yo‘li bilan bekor qilinganligi xalqaro huquq normalariga, jahon andozalariga to‘la-to‘kis mosdir. Ammo respublikamizda shuning uchungina bunday yo‘l tutilmadi. Chunki, o‘zbek xalqi azaldan kechirimli, bag‘rikeng xalq bo‘lgan. Islom dini aqidalarida ham kechirimlilik nihoyatda ulug‘lanadi. Shu ma’noda “O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun milliy qonunchiligidizga xalqaro huquq normalarining implementatsiya qilinishi jihatidan ham,

⁶³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2023-y. – lex.uz.

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2023-y. – lex.uz.

insonparvarlik ruhidagi milliy va diniy qadriyatlarimizning singdirilishi nuqtai nazaridan ham tarixiy hodisa, sud-huquq tizimi islohotlarining tom ma'nodagi yangi takomillashgan bosqichi bo'ldi⁶⁶.

Favqulodda jazo chorasi bo'lib aybdorni otib o'ldirishdan iborat (O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 51-moddasi).

Jinoyat kodeksida faqat 2 ta modda uchun o'lim jazosi ko'rsatilgan:

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi;
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 155-moddasi 3-qismi.⁶⁷

O'lim jazosi O'zbekiston Respublikasining 1959-yil 21-maydagi Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining taxminan 33 ta moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun qo'llanilgan⁶⁸.

O'lim jazosi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabr kunidagi Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida faqat (13 ta) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning 2-qismi), nomusga tegish (118-moddaning 4-qismi), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-moddaning 4-qismi), agressiya (151-moddaning 2-qismi), urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda), genotsid (153-modda), terrorizm (155-moddaning 3-qismi), davlatga xoinlik qilish (157-moddaning 1-qismi), O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (158-moddaning 1-qismi), josuslik (160-moddaning 1-qismi), jinoiy uyushma tashkil etish (242-moddaning 1-qismi), kontrabanda (246-moddaning 2-qismi), giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda sotish (272-moddaning 2-qismi) uchungina belgilanadi⁶⁹.

O'lim jazosi O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgust Qonuni bilan faqat (4 ta) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldag'i "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-99-son Qonuni.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.– lex.uz.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasining 1959-yil 21-maydagi Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi".

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. – T – 1994-yil.

(97-moddaning 2-qismi), agressiya (151-moddaning 2-qismi), genotsid (153-modda) va terrorizm (155-moddaning 3-qismi) uchun qo'llaniladi⁷⁰.

O'lim jazosi O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 12 dekabr kunidagi Qonuni bilan faqat (2 ta) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning 2-qismi) va terrorizm (155-moddaning 3-qismi) uchun qo'llaniladi⁷¹.

O'lim jazosi faqat otib o'ldirish bilan ijro etilgan. O'lim jazosini ijro etishda shifokor, jazoni ijro etish joylarida maxsus nazoratni olib boruvchi prokuror va jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i ishtirok etishi shart. O'lim jazosi asosan tergov izolyatorida ijro etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 51-moddasiga binoan umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulorra jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat javobgarlikni og'irlash-tiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 97-m. 2-q.) va terrorizm (O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 155-m. 3-q.) uchun belgilanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmis yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas⁷².

Ana shu jihatlardan qonunimiz qator xorij davlatlarining umrbod ozodlikdan mahrum etish borasidagi qonunlaridan o'zining insonparvarligi bilan ajralib turadi. Zero, islom dinida nohaq odam o'ldirish, insonni qiynoqlarga solish qoralanadi. Mazkur qonun yuqoridagi xususiyatlariga insonparvarlikni, kechirimlilikni, rahm-shafqatlilikni targ'ib etuvchi jahon dinlari, xususan, islom dini qoidalariga, g'oyalariga mosdir.

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. – T- 2001-yil.

⁷¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. T- 2003-yil.

⁷² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. – T.- lex.uz.

Shu o'rinda respublikamizda umrbod ozodlikdan mahrum etish masalasiga insonparvarlik asosida yondashilganini alohida ta'kidlashimiz zarur. Masalan, Polsha va Germaniyada 5, Belgiya va Rossiya Federatsiyasida 6, Germaniyada 7, Daniyada 9, Gruziyada 11, Shvetsiyada 13, Belorusda 14, Yaponiya va Ozarbayjonda 16, Qozog'istonda va Koreyada 17, Fransiyadek demokratik davlatda 18, Gollandiyada 19, Moldavada 24, Xitoy Xalq Respublikasida esa 64 xil jinoyat uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etiladi⁷³. Bizning mamlakatimizda esa faqat ikki jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlari uchun ushbu jazo qo'llanilishi qonunda belgilab qo'yilgan. Yana qonunimizning insonparvarligi shundaki, sud ish bo'yicha barcha holatlarni har tomonlama xolis o'rganib, aybdorni umrbod emas unga muqobil jazo turi sifatida uzoq muddatli (20 yildan 25 yilgacha) ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilishi ham nazarda tutilgan.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 136-moddasida nazarda tutilgan, ya'ni:

■ Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar maxsus saqlash sharoitlariga ega bo'lган maxsus tartibli koloniyalarda saqlanadilar. Ularga nisbatan ushbu bobda nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda maxsus tartibli koloniyalar tartibi tatbiq etiladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar kameralarga ko'pi bilan ikki kishidan joylashtiriladilar. Mahkumlarning iltimosiga ko'ra yoki zarurat taqozo etganda ular bir kishilik kameralarda saqlanishlari mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoni qattiq, odatdagи va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'taydilar.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoning dastlabki o'n yilini qattiq saqlash sharoitlarida o'taydilar.

⁷³ Якубов А.С. – Важный этап последовательной либерализации судебно-правовой системы Узбекистана // Правда Востока. – 2007 г. – 26 июня.

Jazoning kamida o‘n yilini o‘tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar qattiq saqlash sharoitlaridan odatdagi saqlash sharoitlariga o‘tkazilishlari mumkin.

Jazoning kamida o‘n besh yilini o‘tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar odatdagi saqlash sharoitlaridan yengillashtirilgan saqlash sharoitlariga o‘tkazilishlari mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash shartlari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 137-moddasida belgilangan, ya’ni:

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan bitta mahkumga to‘g‘ri keladigan yashash maydoni normasi to‘rt kvadrat metrdan kam bo‘lishi mumkin emas.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni qattiq saqlash sharoitlarida o‘tayotgan mahkumlar o‘z shaxsiy hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lardan belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 26,5 foizigacha bo‘lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta qisqa muddatli uchrashuvlar, bir marta telefon orqali so‘zlashuvlar, bitta posilka yoki yo‘qovlar va bitta banderol olish huquqiga ega.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni odatdagi saqlash sharoitlarida o‘tayotgan mahkumlar o‘z shaxsiy hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lardan qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 35,2 foizigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va bir marta qisqa muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so‘zlashuv, ikkita posilka yoki yo‘qov, ikkita banderollar olish huquqiga ega⁷⁴.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o‘tayotgan mahkumlar o‘z shaxsiy hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lardan belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 52,7 foizigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023. – lex.uz

zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va ikki marta qisqa muddatli uchrashuvlar, uch marta telefon orqali so‘zlashuvlar, uchta posilka yoki yo‘qovlar va uchta banderollar olish huquqlarga ega.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar, saqlash sharoitlaridan qat’i nazar, har kuni bir yarim soatgacha sayr qilish huquqiga ega.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarning mehnati odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida saqlanayotgan shaxslar uchun ish kameralarida tashkil etiladilar (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi 138-modda.).

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga nisbatan Jinoyat-ijroiya kodeksi 102-moddasi birinchi qismining ikkinchi-beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan rag‘batlantirish choralari qo‘llaniladi. Jazoni o‘tashning yengillashtirilgan sharoitlariga belgilangan tartibda o‘tkazilgan mahkumlarga nisbatan rag‘batlantirish tartibida qo‘shimcha uchrashish yoki telefon orqali so‘zlashish imkoniyati ham berilishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi 139-modda.).

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi 105-moddasi birinchi qismining ikkinchi, uchinchi va beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida belgilangan tartibni ashaddiy buzuvchi deb topilgan mahkumlar quyidagi tartibda:

■ yengillashtirilgan saqlash sharoitlaridan odatdagi yoki qattiq saqlash sharoitlariga;

■ odatdagi saqlash sharoitlaridan qattiq saqlash sharoitlariga o‘tkazilishlari mumkin.

Umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarning avf etish to‘g‘risida iltimosnama berish tartibi (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi 140-modda), avf etish to‘g‘risida iltimosnama berish va uni ko‘rib chiqish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avf etish to‘g‘risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilingan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin, agar jazoni o‘tash davrida mahkum qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o‘qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin berilishi mumkin.

Avf etish to‘g‘risidagi iltimosnoma uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin, agar jazoni o‘tash davrida mahkum qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o‘qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o‘n besh yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin berilishi mumkin⁷⁵.

IV BOB. JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAGI REJIM

4.1-§. Rejimning asosiy talablari

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasida rejim mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositasi va jazodan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi sifatida berilgan (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi 162-modda)⁷⁶.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida rejimning qanday bo‘lishi va uning asosiy talablarini belgilashda birinchidan, jazoning muayyan turi (hukmda qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish jazosi, shu jumladan turmaga qamash tariqasidagi yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ko‘rsatilishi) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, jazoni ijro etish koloniyalarining tartib turiga ham bevosita bog‘liqdir (masalan, manzil-koloniya, umumiyligida, qattiq, maxsus tartibli koloniyalar yoki turma).

⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

Jazoni ijro etish va o‘tash tartibi (rejimi) maxsus adabiyotlarda yuridik va pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Rossiyalik huquqshunos olim S.I.Kurganova fikricha, rejim – jazoni ijro etish va o‘tashning amaldagi qonun va qonunosti normalari tomonidan belgilangan tartibidir⁷⁷.

Rejim orqali jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarga nisbatan jazolash, tarbiyalash va shu kabi bir qancha funksiyalar ham amalga oshiriladi. Ayni vaqtda, rejim ko‘rsatib o‘tilgan funksiyalarni bajarish bilan birgalikda, mahkumlarga nisbatan ba’zi bir huquqiy cheklashlarni vujudga keltiradi va bu aynan jazolashda namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, rejim talablari faqat mahkumlardan emas, balki muassasada faoliyat ko‘rsatayotgan barcha xodimlar, ishchi va xizmatchilardan ham jinoyat-ijroiya qonunchiligiga va o‘rnatilgan ichki tartib qoidalariga rioya etishni talab qilish orqali turli qonunchilik va xizmat intizomini buzilishi holatlarining oldini olish funksiyasini bajaradi.

Rejim mahkumlarga axloqan tuzatishning boshqa asosiy vositalarini (tarbiyaviy ish, ijtimoiy foydali mehnat, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va kasb tayyorgarligi, jamoatchilik ta’sirini) qo‘llash uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratadi va albatta, ozodlikdan mahrum etish joylarida yetarlicha tartib bo‘lmasa, bu chorallardan birortasi ham samara bermaydi. Bunda rejimning ta’minlovchi funksiyasi namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, rejim – jazoni ijro etish va o‘tashning jinoyat-ijroiya qonunchiligi va boshqa normativ-huquqiy hujjalalar tomonidan belgilangan tartibidir. Ushbu tartibga rioya etish yoki etmaslik natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibat esa ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tayotgan mahkumning saqlash sharoitini yengillashtirishi yoki og‘irlashtirishi va ayni vaqtda, uning huquqiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash tartibi, ya’ni rejimning ahamiyati amaliyotda juda kattadir. Aynan mahkumlar axloqini tuzatishning asosiy vositalaridan biri hisoblangan rejim orqali jazoni o‘tash joylarida mahkumlar va

⁷⁷ Qarang: Курганов С.И. Уголовно-исполнительное право. – М., 2004 г. – С. 70.

muassasa xodimlarining shaxsiy xavfsizligini ta'minlash (Jinoyat-ijroiya kodeksi 11-modda.), mahkumlarni turli toifalarga ajratgan holda saqlash (Jinoyat-ijroiya kodeksi 58-modda.), ularni o'rnatilgan tartibdagi namunaviy qiyim-boshda yurishi, qurollangan soqchilar tomonidan qo'riqlanishi, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni yashash, majburiy mehnatga jalb etish, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar,mahkum ovqat yeishni rad etganda qo'llaniladigan choralarini qo'llash, o'qotar qurollarni qo'llash, jazoni ijro etish muassasalarida qaysi holatlarda alohida holatni joriy etish, mahkumlarning uchrashuvlari, telefon orqali so'zlashuvlari va boshqa shu kabi chora-tadbirlarni o'tkazish tartibi belgilab berilgan⁷⁸.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 62-moddasida ko'rsatilishicha, jazoni ijro etuvchi muassasalarda rejim jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun belgilanadi va quyidagilarni ta'minlaydi:

- ❖ mahkumlarni batamom ajratib qo'yish, ularni qo'riqlash va nazorat qilib turishni;
- ❖ mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ularning o'z majburiyatlarini ado etishini;
- ❖ muayyan toifadagi mahkumlarni alohida-alohida saqlashni;
- ❖ muassasa turiga qarab mahkumlarni har xil sharoitda saqlashni;
- ❖ mahkumlarning va muassasa xodimlarining xavfsizligini ta'minlashni ta'minlaydi⁷⁹.

Rejim talablari jazoni o'tash joylaridagi barcha mahkumlar toifasi uchun bir xil bo'lsa-da, biroq qonunchilikda ba'zi holatlarda shaxsning sog'lig'i, yoshi, jinsi yoki jazoning qonunda belgilangan ma'lum bir muddatini o'tagan yoki o'tamaganligini hamda ijobiy xulq-atvorini e'tiborga olgan holda mahkumlarga yengilliklar berilishi mumkin. Masalan, mahkumni jazoning ma'lum bir muddatini o'tagandan keyin uni yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilishi yoki ayrim toifadagi mahkumlar (mahkuma homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

bolasi bor ayollar) uchun qo'shimcha huquqlar (Jinoyat-ijroiya kodeksi 130–133-modda) berilishi shular jumlasidandir.

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar, muassasa xodimlari va boshqa shaxslar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, mahkumlar tomonidan mazkur muassasaga yetib kelgunga qadar sodir etgan, lekin, javobgarlikka tortilmay qolgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish, belgilangan saqlash rejimini buzish hollarini aniqlash va ularning oldini olish, jazoni ijro etish muassasalarida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish, ozodlikdan mahrum etish joylaridan qochgan mahkumlarni qidirib topish va boshqa jinoyatlarni fosh etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyati muassasa tezkor xizmatlar xodimlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi (Jinoyat-ijroiya kodeksi 68-modda.). Tabiiy ofat ro'y bergan, jazoni ijro etish muassasasi joylashgan yerda favqulodda yoki harbiy holat joriy etilgan taqdirda, urush davri mobaynida, mahkumlar tomonidan guruh bo'lib bo'ysunmaslik, shuningdek, ommaviy tartibsizlik sodir etilganda Jinoyat-ijroiya kodeksining 74-moddasiga asosan muassasalarda alohida holat joriy etiladi.

Alohida holat O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda o'ttiz sutkagacha bo'lgan muddatga joriy etiladi, ayrim vaziyatlarda alohida holatning amal qilish vaqtqi qo'shimcha ravishda o'ttiz sutkagacha uzaytirilishi mumkin. Ushbu muddat davomida muassasalarda qo'riqlash va nazoratning kuchaytirilgan turi, obyektlarga kirishning alohida tartibi joriy etiladi hamda kun tartibi o'zgartirilishi, ayrim xizmatlarning faoliyati, shuningdek, mahkumlarning ayrim huquqlari cheklanishiga yo'l qo'yiladi⁸⁰.

4.2-§. Jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirish, undan chiqish, tintuv qilish va ko'zdan kechirish

Jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirish va undan chiqish shaxsni tasdiqlovchi hujjat hamda bir martalik ruxsatnama asosida amalga oshiriladi.

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

Jazoni ijro etish muassasasi xodimlari, qorovul qo'shinlarining harbiy xizmatchilari hamda jazoni ijro etish muassasasida mehnat shartnomasi asosida ishlovchi ishchi va xizmatchilar jazoni ijro etish muassasasi hududiga doimiy ruxsatnoma asosida kirib chiqadilar.

Jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirish va undan chiqish uchun ruxsatnoma berish ma'muriyat tomonidan, shuningdek, jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirish va undan chiqish tartibini ta'minlash qorovul qo'shinlarining harbiy xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladilar.

Davlat hokimiyyati va boshqaruv organlarining mansabdar shaxslari, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqa shaxslar jazoni ijro etish muassasalariga kirish huquqiga ega⁸¹.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish, shuningdek, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini o'z tashabbusi bilan tekshirish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirish huquqiga ega⁸².

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakiliga (Ombudsman) mahkumlar bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi shart, uchrashuv va suhbat jazoni ijro etish muassasasi xodimlari ularni ko'rib turadigan, lekin eshitmaydigan sharoitlarda xoli o'tkaziladilar.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish hamda tahlil qilish maqsadida jazoni ijro etish muassasasiga moneliksiz kirishga, zarur hujjatlar bilan tanishishga haqli.

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 174-sonli buyrug'i.

⁸² O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019-yil 13-iyundagi 156-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2495-5, 01.07.2019-y.) tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2019-y., 10/19/2495-5/3354-son).

Mahkumlarni kino, foto, videotasvirga tushirish, ulardan intervyyu olishga ularning yozma roziligi va jazoni ijro etish muassasasi ruxsatiga asosan yo'l qo'yiladi.

Mahkumlarning xavfsizligini va qo'riqlanishini ta'minlovchi obyektlarni tasvirga olishga esa jazoni ijro etish muassasasi ruxsati bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Nazorat qiluvchi prokuror jazoni ijro etish muassasasiga moneliksiz va istalgan vaqtda hamma xonalar bilan tanishish sharti bilan kirishga haqli.

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ushbu jazoni ijro etish muassasasiga hamda mahkumlar ishlayotgan obyektlarga kirayotgan va chiqayotgan shaxslarning transport vositalarini, buyumlari va kiyimlarini ko'zdan kechirishga haqli, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir⁸³.

Jazoni ijro etish muassasasi hududiga taqiqlangan narsa va buyumlarni olib kirish man etiladi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim o'qituvchilariga mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv qo'llanmalar hamda boshqa narsa va buyumlarni jazoni ijro etish muassasasining turar joy sahniga olib kirishga ruxsat etiladi⁸⁴.

Jazoni ijro etish muassasasiga kirayotgan shaxslar kiyimlari hamda narsa va buyumlari ko'zdan kechirilishidan oldin taqiqlangan narsa va buyumlarini topshirishi lozimligi haqida ogohlantiriladilar.

Jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirish uchun ruxsat berilgan shaxslar o'zlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini, narsa va buyumlarini nazorat-o'tkazish joyida saqlash uchun qoldiradilar. Mazkur narsa va buyumlar jazoni ijro etish muassasasidan chiqish vaqtida o'z egalariga qaytarib beriladilar. Uzoq muddatli uchrashuvga kelgan shaxslarga o'zlarining narsa va buyumlarini olib kirishiga ruxsat beriladi. Bunda mazkur narsa va buyumlar ko'zdan kechiriladi.

⁸³ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 174-sonli buyrug'i.

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son)

Ko‘zdan kechirish narsa va buyumlarning egasi ishtirokida amalga oshiriladilar. Ko‘zdan kechirish ko‘zdan kechirilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi jazoni ijro etish muassasasi vakillari tomonidan navbatchilik qismi yoki nazorat-o‘tkazish joyida o‘tkaziladilar.

Ko‘zdan kechirishni o‘tkazayotgan shaxs ko‘zdan kechirilayotgan shaxslarga nisbatan xushmuomala bo‘lishi hamda ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Bir vaqtning o‘zida bir necha shaxsni ko‘zdan kechirish taqiqlanadi.

Shaxsiy transport vositalarining jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirishi taqiqlanadi.

Mahkumlar, ularning buyumlari va kiyimlari, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarining obyektlari va xonalari tintuv qilinishi hamda ko‘zdan kechirilishi mumkin.

Tintuv qilish va ko‘zdan kechirish reja asosida, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda esa to‘satdan o‘tkazilishi mumkin. Tintuv qilish va ko‘zdan kechirish natijalari dalolatnama bilan rasmiylashtiriladilar.

Shaxsiy tintuv mahkum bilan bir jinsda bo‘lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladilar.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatlar, taqiqlangan narsalar va buyumlar saqlanayotganligi haqida axborot kelib tushgan hollarda, jazoni ijro etish muassasasining turar joylarini ularda mahkumlar bo‘lganda tintuv qilishga yo‘l qo‘yiladilar⁸⁵.

Tintuv o‘tkazish chog‘ida mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch va maxsus vositalar qo‘llanilishi taqiqlanadi, bundan mahkumlarning tintuvni amalga oshirayotgan xodimlarga, boshqa mahkumlarga yoki o‘zga shaxslarga nisbatan

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarining, shuningdek, mahkumlar tomonidan o‘ziga o‘zi zarar yetkazishining oldini olish hollari mustasno⁸⁶.

Shaxsiy tintuv to‘liq yoki to‘liqsiz shaklda o‘tkazilishi mumkin.

To‘liq shaxsiy tintuvda mahkum va mahkuma yechintirilib, uning badani, kiyimi, poyabzali, agar mavjud bo‘lsa, tibbiy xodim nazorati ostida protezlari, plastir yopishtirilgan, gipsli va boshqa bog‘langan joylari birma-bir sinchiklab tekshiriladilar.

To‘liqsiz shaxsiy tintuvda mahkum va mahkuma yechintirilmasdan ko‘zdan kechiriladilar va uning kiyimi, poyabzallari paypaslab tekshiriladilar.

Shaxsiy tintuvda mahkum va mahkumaga g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar natijasida shikast yetkazilganligi aniqlangan taqdirda, bu haqda dalolatnomal tuzilib, jazoni ijro etish muassasa boshlig‘iga ma’lum qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasasi hududi doirasidan tashqaridagi ishlab chiqarish obyektlari hududida tintuv yoki ko‘zdan kechirish harbiy naryad va ishlab chiqarish obyektidagi jazoni ijro etish muassasa vakillari tomonidan o‘tkaziladilar.

Tintuv qilish va ko‘zdan kechirishda mahkum va mahkumalarning narsa va buyumlari, ko‘rpa-to‘shaklari va boshqa shaxsiy narsalariga zarar yetkazishga yo‘l qo‘yilmaydilar⁸⁷.

4.3-§. Mahkumlarning xulq-atvori ustidan nazorat, jazoni ijro etish muassasalariga tegishli ish qurollari, asbob-uskunalar va inventarlardan foydalanish

Mahkumlarning xulq-atvori muntazam ravishda nazorat qilib turiladilar. Qorovul qo‘shinlarining kunlik harbiy xizmatchilari xizmatni o‘tash vaqtida jazoni

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-soni buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) asosan kiritilgan – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-soni

⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-soni buyrug‘i.

ijro etish muassasa boshlig‘ining yordamchisi – tezkor navbatchiga bo‘ysunadilar⁸⁸.

Qochishga moyilligi bo‘lgan mahkum va mahkumalar ustidan nazorat qilishning samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda, tezkor-qidiruv choralarini ko‘rish maqsadida ularga mazkur O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 5-ilovasiga muvofiq shaklda varaq ochiladilar.

Mahkumlar tomonidan saqlash rejimi buzilganligi va boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar qilinganligi aniqlangan taqdirda, nazoratchilarning harbiy naryadi g‘ayriqonuniy harakatlarning oldini olish chorasini ko‘radilar hamda natijasi bo‘yicha dalolatnama tuzib tezkor navbatchiga beradilar.

Kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda mahkumlar ularning xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, ular tomonidan g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar qilinishining oldini olish maqsadida tezkor navbatchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 6-ilovasiga muvofiq shakldagi qaror asosida yigirma to‘rt soatgacha bo‘lgan muddatga intizomiy bo‘linmaga kiritib qo‘yilishi mumkin. Mahkum va mahkumalarning yigirma to‘rt soatgacha bo‘lgan muddatga intizomiy bo‘linmaga kiritib qo‘yilishi intizomiy jazo chorasi hisoblanmaydi. Bunda yigirma to‘rt soat ichida jazoni ijro etish muassasa boshlig‘i yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs tomonidan mahkum va mahkumaga nisbatan intizomiy bo‘linmaga kiritib qo‘yish tarzidagi jazoni qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilinishi lozim.

Mahkum va mahkumaga nisbatan intizomiy bo‘linmaga kiritib qo‘yish tarzidagi jazoni qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, mahkum va mahkumaning yigirma to‘rt soatgacha bo‘lgan muddatga intizomiy bo‘linmaga

⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) tahririda – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son)

kiritib qo'yilgan davri uni intizomiy bo'linmada saqlash muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Mahkum va mahkumaga tamg'alangan ish qurollari, asbob-uskunalar va inventarlar foydalanish uchun beriladilar.

Oshxonalardagi xo'jalik ishlarida, uchrashuvlar o'tkaziladigan xonalarda, kiyim va poyabzal ta'mirlash ustaxonalarida, yotoqxonalarda va jazoni ijro etish muassasasining boshqa obyektlarida foydalaniladigan sanchuvchi-kesuvchi narsalar, ularning jarohat yetkazish darajasi mumkin qadar bartaraf etiladigan holda charxlangan bo'ladi.

Mehnatga jalb etilgan mahkumlarga berilgan ish qurollari va asbob-uskunalarining hisobi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 7-ilovasiga muvofiq shakldagi daftarda yuritiladilar⁸⁹.

Ish qurollari va asbob-uskunalaridan muntazam ravishda foydalaniladigan joylar va obyektlarda foydalanish uchun beriladigan ish qurollari va asbob-uskunalar ro'yxati osib qo'yiladilar. Ushbu ro'yxat jazoni ijro etish muassasa boshlig'ining tartibot va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinnbosari tomonidan tasdiqlanadi.

4.4-§. Mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch va maxsus vositalarni ishlatalish va o'qotar quroq qo'llash

Mahkumlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni to'xtatib qolish maqsadida, shuningdek, ularni ushslash chog'ida, agar boshqa usullar bilan jazoni ijro etish muassasa ma'muriyatining qonuniy talablarini ta'minlashning iloji bo'lmasa, mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatalishi mumkin.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 174-sonli buyrug'i.

Jismoniy kuch ishlatalishi natijasida mahkumning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan har bir holat to‘g‘risida prokurorga darhol xabar beriladi⁹⁰.

Mahkum va mahkumalarning g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarini to‘xtatish, shuningdek, o‘ziga o‘zi zarar yetkazishning oldini olish maqsadida ularga nisbatan maxsus vositalar ishlatalishi mumkin.

Maxsus vositalar jumlasiga rezina tayoqlar, qo‘lkishanlar yoki boshqacha bog‘lash vositalari, xizmat itlari, ko‘zdan yosh chiqaruvchi moddalar, chalg‘itma ta’sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalari, to‘sinq-g‘ovlarni bartaraf etuvchi vositalar, suv bilan zarba beruvchi va zirhli mashinalar, inshootlarni ochish, transportni majburiy to‘xtatish moslamalari hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa vositalar kiramolar.

Maxsus vositalar quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- mahkum va mahkumalarning jazoni ijro etish muassasa ma’muriyatiga, boshqa mahkumlarga va o‘zga shaxslarga hujumini daf etish chog‘ida;
- mahkum va mahkumalar tomonidan sodir etilgan ommaviy tartibsizliklarni, jamoat tartibini guruh bo‘lib buzishlarni to‘xtatish, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatiga ashaddiy bo‘ysunmayotgan yoki qarshilik ko‘rsatayotgan huquqbuzarlarni ushslash chog‘ida;
- garovga olinganlarni, mahkum va mahkumalar egallab olgan binolarni, inshootlarni, xonalarni va transport vositalarini ozod qilish chog‘ida;
- mahkum va mahkumalarni qo‘riqlab borish va qo‘riqlab turish chog‘ida – qochishning oldini olish uchun;
- jazoni ijro etish muassasasidan qochgan mahkum va mahkumalarni ushslash chog‘ida.

Maxsus vositalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qo‘llanilishlari mumkin.

Maxsus vositalar turlari, ularni ishlatalish intensivligi yuzaga kelgan vaziyat, huquqbazarlik xususiyati va huquqbuzarning shaxsini inobatga olgan holda

⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) tahririda – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son)

belgilanadilar. Maxsus vositalarni qo‘llash mahkum va mahkumalarga va boshqa shaxslarga mumkin qadar kam zarar keltirishi lozim.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari aniq ko‘rinib turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma’lum bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan maxsus vositalar ishlatish taqiqlanadi, ular tomonidan qurolli qarshilik ko‘rsatilgan yoki fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilingan hollar bundan mustasno.

Maxsus vositalarni qo‘llash natijasida mahkum va mahkumalar va boshqa shaxslar hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan har bir hodisa haqida darhol prokurorga xabar qilinadi.

Alohida hollarda, agar jinoyatni boshqa vositalar bilan to‘xtatishning iloji bo‘lmasa, eng so‘nggi chora sifatida o‘qotar qurol qo‘llashga yo‘l qo‘yiladilar⁹¹.

O‘qotar qurol quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

- jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati vakillarini, boshqa mahkum va mahkumalarni va o‘zga shaxslarni ularning hayoti va sog‘lig‘iga aniq tahdid etuvchi hujumdan himoya qilish, shuningdek, qurolni qo‘lga kiritish maqsadida qilingan hujumni daf etish chog‘ida;
- garovga olinganlarni, mahkum va mahkumalar egallab olgan binolarni, inshootlarni, xonalarni va transport vositalarini ozod qilish chog‘ida;
- jazoni ijro etish muassasasining qo‘riqlanadigan obyektlariga, transport vositalariga guruh bo‘lib qilingan yoki qurolli hujumni daf etish yoxud mahkum va mahkumalarni zo‘rlik bilan ozod qilishga urinishlarni to‘xtatish chog‘ida;
- jazoni ijro etish muassasalardan qochayotgan yoki qurolli qarshilik ko‘rsatayotgan mahkum va mahkumalarni ushslash chog‘ida;
- mahkum va mahkumalar qochishda foydalanayotgan transport vositasini to‘xtatish chog‘ida.

O‘qotar qurol qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qo‘llanilishi mumkin.

⁹¹ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

O‘qotar qurolni qo‘llashdan oldin qurol qo‘llanilishi mumkinligi haqida ogohlantirish va yuqoriga qarab ogohlantiruvchi o‘q otish kerak.

Quyidagi hollarda o‘qotar qurol ogohlantirishsiz qo‘llanilishi mumkin:

■ qo‘qqisdan hujum qilinganda, qurolli hujumni yoki jangovar texnika, transport vositalari, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalangan holda qilingan hujumni daf etishda, garovga olinganlarni ozod qilishda, jazoni ijo etish muassasalaridan qurol bilan, transport vositalari yordamida yoki yurib ketayotgan transport vositalarida, tunda yoki ko‘rish cheklangan sharoitda ochilganda.

O‘qotar qurol qo‘llanilganda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun iloji boricha barcha choralar ko‘riliishi zarur.

O‘qotar qurol qo‘llanilgan har bir hodisa haqida bildirgi yoziladi va darhol prokurorga xabar qilinadi⁹².

V BOB. JAZO IJROSINI TASHKIL ETISH

5.1-§. Mahkulmarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish

Mahkum va mahkumalarni jazoni ijro etish muassasalarga qabul qilish jazoni ijro etish muassasa ma’muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkum va mahkumalar jazoni ijro etish muassasa boshlig‘i rahbarligidagi komissiya tomonidan qabul qilinadilar.

Turli noaniqliklar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida mahkum va mahkumalar jazoni ijro etish muassasaga shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlaridagi ma’lumotlar asosida so‘rovdan o‘tkazilgach qabul qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasasiga qabul qilish vaqtida mahkulmalar to‘liq shaxsiy tintuvdan o‘tkaziladilar, ularning narsalari va buyumlari ko‘zdan kechiriladilar⁹³.

Mahkum va mahkumalarning yonidan topilgan, foydalanishga ruxsat etilmagan narsalar va buyumlar jazoni ijro etish muassasa boshlig‘ining

⁹² O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

⁹³ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 9-ilovasiga muvofiq shakldagi qaroriga binoan olib qo‘yiladi hamda mahkum ozod bo‘lgunga qadar saqlash uchun topshiriladi yoki yo‘q qilib tashlanadi yoxud davlat daromadiga o‘tkaziladi va bu haqda tegishli hujjat (kvitansiya, dalolatnama yoki qaror) tuziladi.

Mahkum va mahkumaning jazoni ijro etish muassasa omborxonasiga saqlash uchun topshirilgan narsalari va buyumlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 10-ilovasiga muvofiq shaklda ikki nusxada kvitansiya to‘ldirilib, uning bir nusxasi mahkuma va mahkumga beriladi, ikkinchi nusxasi uning shaxsiy hujjatlari yig‘ma jildiga qo‘shib qo‘yiladilar.

Mahkum va mahkumaning yo‘q qilingan narsalari va buyumlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 11-ilovasiga muvofiq shaklda ikki nusxada dalolatnama tuziladi va uning bir nusxasi mahkumning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildiga qo‘shib qo‘yiladi, ikkinchi nusxasi esa tartibot bo‘limida saqlanadilar.

Tezkor navbatchi olib qo‘yilgan pul va qimmatli buyumlarni bir sutka ichida ularni olib qo‘ygan mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan dalolatnama yoki bildirgi orqali moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limiga topshiradilar. Olib qo‘yilgan pul va qimmatli buyumlarning hisobi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 12-ilovasida nazarda tutilgan daftarda yuritiladilar⁹⁴.

Narsalar va buyumlarni davlat daromadiga o‘tkazish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 13-ilovasiga muvofiq shakldagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanadilar.

⁹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) tahririda – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son)

Jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelgan mahkum va mahkumalar ularning shaxsini o‘rganish va sharoitga moslashib olishlari uchun o‘n besh sutkagacha muddatga, odatda, qabul bo‘limiga joylashtiriladi, manzil-koloniyaga kelgan hamda xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsxonalari va turmalarda qoldirilgan shaxslar bundan mustasno.

Turmalarda mahkum va mahkumalar sudning ajrimiga asosan qaysi rejim turidagi koloniyanidan kelganligi yoki turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish muddatini o‘tab bo‘lgach, qaysi rejim turidagi koloniya yuborilishi inobatga olingan holda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 14-ilovasiga muvofiq kameralarga joylashtiriladilar.

Jazoni ijro etish muassasa ma’muriyati mahkum va mahkuma yetib kelgan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida bu haqda hukm chiqargan sudni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 15-ilovasiga muvofiq shaklda xabardor qilishi, shuningdek, mahkum va mahkumaning oilasiga O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 16-ilovasiga muvofiq shaklda jazoni ijro etish muassasa manzilini ko‘rsatib hamda mahkum va mahkumaning yozishma olib borish, uchrashuv, posilka, yo‘qlov va banderollar olish, telefon orqali so‘zlashuv huquqlarini tushuntirib, xabarnoma yuborishi shart.

mahkum va mahkumalarni qabul bo‘limida saqlash davrida ular tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladilar va ularda yuqumli kasalliklar aniqlanmasa, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati suhbatidan o‘tkazilib, komissiya tomonidan brigada va turkumlarga taqsimlanadilar.

Jazoni ijro etish muassasaga yetib kelganlaridan so‘ng mahkumlarga jazoni o‘tash tartibi va shartlari to‘g‘risida kerakli axborot beriladilar, shuningdek, ularning huquqlari va majburiyatları tushuntiriladilar.

Maxsus bo‘lim tomonidan sudning qaroriga muvofiq aliment to‘lashi yoki moddiy zararni qoplashi lozim bo‘lgan mahkumlar ro‘yxati jazoni ijro etish muassasasining moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limiga, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolanishi lozim deb topilgan mahkumlar ro‘yxati esa tibbiyot bo‘limiga topshiriladilar⁹⁵.

Mahkularga O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 17-ilovasidagi ro‘yxatda nazarda tutilgan oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlarni sotib olish hamda yonida saqlashga ruxsat etiladi. Taqiqlanmagan, lekin belgilangan miqdordan ortiqcha narsa va buyumlar jazoni ijro etish muassasa omborxonasida saqlanadi va bu haqda dalolatnama tuziladi. Mahkumning omborxonada saqlanayotgan zarur narsa va buyumlari uning arizasiga asosan beriladi.

Jazoni ijro etish muassasaga qabul qilingan har bir mahkum va mahkuma to‘g‘risidagi ma’lumotlar «Mahkulalar harakatining hisobini yuritish va ularning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlarini qayd etish daftari»ga qayd etib boriladi.

Mahkum va mahkulalarga mavsumga qarab beriladigan kiyim, ko‘rpa-to‘shak va inventarlarning qayd varaqalari (armatura kartochkalari) (ta’minot varag‘i) berilib, shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi⁹⁶.

5.2-§. Mahkularni ko‘chirish

Mahkum va mahkulalar butun jazo muddatini, odatda, bitta jazoni ijro etish muassasasida o‘taydilar.

Mahkum va mahkulalarni bir koloniyanan ayni shu turdagি boshqa koloniyaga jazoni o‘tashni davom ettirish uchun o‘tkazishga uning xavfsizligini ta’minlash maqsadida uning roziligini olgan holda, shuningdek, mahkum va mahkumaning mazkur jazoni ijro etish muassasasida qolishiga to‘sinqinlik qiluvchi boshqa hollarda yo‘l qo‘yiladilar.

⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

Mahkum va mahkumalar kasal bo‘lib qolgan taqdirda uni koloniyadan yoki turmadan ixtisoslashgan davolash muassasasiga o‘tkazishga tibbiy xulosa asosida yo‘l qo‘yiladi.

Mahkum va mahkumalarni bir jazoni ijro etish muassasadan boshqasiga ko‘chirish O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 58-moddasi talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Mahkumlar tergov qilinayotgan shaxslardan alohida ko‘chiriladi⁹⁷.

Homilasi yigirma to‘rt haftalikdan oshgan yoki uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar boshqa mahkumlardan alohida ko‘chiriladilar.

Mahkum bemorlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollar, zarurat bo‘lganda, tibbiy xodimlar kuzatuvida ko‘chiriladilar.

Mahkumlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida ularni boshqa hollarda ham ajratilgan tarzda ko‘chirishga yo‘l qo‘yiladilar.

Ko‘chirish chog‘ida mahkumlar zarur moddiy-maishiy va sanitariya-gigiyena sharoitlari bilan ta’minlanadilar, ularga mavsumiy kiyim va poyabzal, belgilangan norma bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari beriladilar.

Mahkumlarni ko‘chirish davlat hisobidan, soqchi kuzatuvida amalga oshiriladilar.

Ko‘chirilayotgan mahkumlarning har biri uchun uch nusxada ro‘yxat tuziladi, uning bir nusxasi mahkumlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlari bilan birgalikda soqchilar boshlig‘iga, ikkinchi nusxasi soqchilar boshlig‘i tomonidan berilgan tilxat bilan jazoni ijro etish muassasasining maxsus bo‘limiga, uchinchi nusxasi esa o‘zaro hisob-kitob qilish uchun moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limiga topshiriladilar.

Maxsus bo‘lim mahkumni ko‘chirishdan oldin quyidagi hujjatlarni yig‘adi va uning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildiga qo‘shib qo‘yadi:

- moliyaviy ma’lumotnomalar va ijro varaqalari;

⁹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2018-yil 6-iyundagi 154-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-2, 05.07.2018-y.) tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2018-y., 10/18/2495-2/1471-son).

- tibbiy karta va boshqa tibbiy hujjatlar (kasallik tarixi va tibbiy tekshirish natijalari haqidagi ma'lumotnoma);
- ta'minot varaqasi va taqsimot;
- mahkuma va mahkumning umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'limga oid hujjatlari;
- yakka tartibda olib borilgan tarbiyaviy ishlar daftari;
- tavsifnomा;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 18-ilovasiga muvofiq shakldagi mahkuma va mahkumning uchrashuvlari, telefon orqali so'zlashuvlari, yo'qlov, posilka va banderollarining hisobini yuritish varag'i.

Mahkuma va mahkumni mazkur bandda nazarda tutilgan hujjatlardan birortasi mavjud bo'lмаган holda ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi⁹⁸.

Maxsus bo'lim boshlig'i jazoni ijro etish muassasa boshlig'ini mahkumni ko'chirilmaganlik sababini ko'rsatgan holda bildirgi orqali xabardor qiladi. Bunda jazoni ijro etish muassasa boshlig'i tomonidan ushbu holat yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish tayinlanadi va aybdor xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

5.3-§. Mahkumlarning kun tartibi va mahkumlarni ro'yxatdan o'tkazish

Jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati tomonidan mahkuma va mahkumlar uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 19-ilovasiga muvofiq shaklda kun tartibi tuziladi.

Kun tartibini tuzishda mahkuma va mahkumlar bilan olib boriladigan ishlarning xususiyati, mehnatni tashkil etish, yil fasli, mahalliy sharoitlar, shuningdek, yuz berishi mumkin bo'lgan tezkor vaziyatlar va boshqa shu kabi holatlar inobatga olinadi.

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 174-sonli buyrug'i.

Mahkumlarning namunaviy kun tartibi

Ertalab o‘rindan turish	soat 6:00
Hojat, yuvinish va jismoniy tarbiya	15 daqiqa
Yotoq joyini yig‘ishtirish	10 daqiqa
Ertalabki va kechki ro‘yxatdan o‘tish	30 – 40 daqiqa
Nonushta	20 daqiqa
Tushlik	30 daqiqa
Kechki ovqat	30 daqiqa
Ishga olib chiqish	20 – 30 daqiqa
Ishdan olib qaytish	20 – 30 daqiqa
Ish vaqtি	8 soat (tarbiya koloniyalari uchun 6 soat)
Bo‘sh vaqtি	1 soat
Umumiyo‘rta va professional ta’lim, ommaviy-madaniy tadbirlarda qatnashish	1 soat
Yotishga tayyorlanish	jadval bo‘yicha 10 daqiqa
Uxlash vaqtি	8 soat

Jazoni ijro etish muassasalarda ish jarayoni mahkumlarning ertalab o‘rinlaridan turishlaridan kechki yotishlarigacha bo‘lgan vaqt uchun, uch smenali ishlab chiqarish bilan bog‘liq ishlarda esa tungi vaqt uchun ham o‘zgaruvchan jadval asosida tashkil etiladi⁹⁹.

Dam olish va bayram kunlari jazoni ijro etish muassasalarda rahbar xodimlarning navbatchiligi tashkil etiladilar.

Mahkumlar tomonidan kun tartibining bajarilishini ta’minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasalarda signal va buyruqlar berish tizimi joriy etiladi.

Mahkumlar har kuni ikki marotaba nazorat varaqchalarini bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Zarur hollarda, mahkumlar sutkaning istalgan vaqtida qo‘srimcha ravishda ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin. Bunda muassasa ma’muriyati tomonidan mahkumning sakkiz soat uplashga bo‘lgan huquqi ta’minlanishi shart.

Ro‘yxatdan o‘tkazishdan o‘n besh daqiqa oldin tezkor navbatchi tomonidan tegishli xabar beriladi va safda bo‘lishi shart bo‘lgan mahkumlar sonini aniqlash uchun ularning hisobi ro‘yxat va nazorat varaqchalarini bo‘yicha solishtiriladi.

⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

Ro‘yxatdan o‘tkazish tezkor navbatchi, qorovul qo‘sinchilari harbiy xizmatchilari hamda brigada va ijtimoiy xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish muddati qirq daqiqadan oshmasligi kerak. Ro‘yxatdan o‘tkazish ob-havoni inobatga olgan holda bino ichkarisida yoki boshqa pana joylarda amalga oshirilishi mumkin.

Ish vaqtidan keyin dam olayotgan, statsionardagi yoki kasalligi tufayli ishdan ozod qilingan, uzoq muddatli uchrashuv berilgan, smena bilan, shuningdek, uzluksiz ishlarda ishlayotgan mahkumlar o‘zlari turgan joyda ro‘yxatdan o‘tkaziladi, bunday mahkumlar ro‘yxati jazoni ijro etish muassasa boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

Mahkumlar ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, ijtimoiy xodim va qorovul qo‘sinchilari harbiy xizmatchilari boshlig‘i safdagi mahkumlarni ro‘yxat bilan solishtirib, natijasi bo‘yicha tezkor navbatchiga ma’lum qiladi.

Ishlab chiqarish obyektlarida ishlayotgan mahkumlar jazoni ijro etish muassasaning mas’ul xodimi, qorovul qo‘sinchilari harbiy xizmatchilari boshlig‘i, sexlar (uchastkalar) boshliqlari va masterlar tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda ro‘yxatdan o‘tkazish ustidan nazorat qilish jazoni ijro etish muassasa boshlig‘ining tegishli o‘rinbosari yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs va tartibot bo‘limi boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkularning kam sonli guruhlari ishlayotgan va nazoratchilar bo‘lishi nazarda tutilmagan vaqtinchalik ishlab chiqarish obyektlarida ro‘yxatdan o‘tkazish qorovul qo‘sinchilari kunlik harbiy xizmatchilari boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish mahkularning soni hamda ro‘yxat va nazorat varaqchalari o‘rtasida noaniqliklar aniqlangan taqdirda takroran amalga oshiriladi.

Qabul bo‘limi va intizomiy bo‘linmalar kameralaridagi hamda turmalardagi mahkumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish kameralar bo‘yicha alohida amalga oshiriladi. Bunda ro‘yxatdan o‘tkazish tezkor navbatchi, intizomiy bo‘linma bo‘yicha qorovul qo‘sinchilari kunlik harbiy xizmatchisi va jazoni ijro etish muassasa ma’muriyatining navbatchi vakili tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkumlar ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, ro‘yxatdan o‘tkazish natijalari tezkor navbatchi tomonidan jazoni ijro etish muassasa boshlig‘iga ma’lum qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasasida saqlanayotgan mahkumlar yiliga kamida ikki marta nazorat varaqchalari bilan solishtirilgan holda ro‘yxatdan o‘tkaziladi va ro‘yxatdan o‘tkazish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

5.4-§. Mahkumlarning ovqatlanishi va mahkum ovqat yeishni rad etganda qo‘llaniladigan choralar

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga organizmning energiyaga va ozuqaviy moddalarga bo‘lgan fiziologik ehtiyojini ta’minlaydigan ovqat qonunchilikda belgilangan tartibda respublika byudjeti hisobidan beriladi, bundan manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotganlar mustasnadir.

Ovqat normasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahkumlarning sog‘lig‘i holatiga, ularning yoshi, bajarayotgan ishining xususiyati va og‘irligiga qarab belgilanadilar. Mahkumlarga ularni ishga jalb etgan korxona, muassasa va tashkilotlar mablag‘lari hisobidan qo‘srimcha ovqat berilishi mumkin.

Mahkum homilador ayollar, emizikli onalar, voyaga yetmaganlarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga beriladigan ovqat oshirilgan normalarda belgilanadi. Tibbiy xulosa asosida ularga qo‘srimcha oziq-ovqat mahsulotlari olishga ruxsat etilishi mumkin.

Manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotgan homilador ayollarga va emizikli onalarga ishdan ozod etilgan davrida respublika byudjeti hisobidan ovqat beriladi¹⁰⁰.

Manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotgan, kasalligi tufayli yoki intizomiy bo‘linmaga kiritilib ishdan ozod qilingan mahkumlarga manzil-koloniyalarning korxonalari, muassasalari va tashkilotlari hisobidan ovqat berilib, ovqatning qiymati keyinchalik mahkumlarning oylik ish haqidan ushlab qolinadi.

¹⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

Mahkum va mahkumalarga ovqatlanish kun tartibida belgilangan soatlarda brigada, turkum va bo‘lim bo‘yicha oshxonada yoki ishlab chiqarish obyektlarining ovqat tarqatish joylarida amalga oshiriladi.

Oshxona turar joy sahni bilan ishlab chiqarish sahni orasida joylashgan bo‘lsa, ishlayotgan mahkum va mahkumalarning ovqatlanishi oshxonada amalga oshiriladilar. Bunda ularning ishga olib chiqilmagan mahkumlardan batamom ajratib qo‘yilishi ta’minlanishi shart.

Tarbiya koloniyalarda nonushta, tushlik va kechki ovqatlanish oshxonalarda tashkil etiladilar.

Kommunal-maishiy obyektlarning uzluksiz ishlashini ta’minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasa boshlig‘i tomonidan ushbu obyektlarda ishlayotgan mahkumlarning alohida ovqatlanishiga ruxsat berilishi mumkin.

Kameralarda saqlanayotgan mahkumlarga ovqat kamerada yoki ish joylarida beriladilar.

Qabul bo‘limida saqlanayotgan mahkumlarga ovqat maxsus ajratilgan joyda kamera bo‘yicha beriladilar.

Jazoni ijro etish muassasa ma’muriyati ovqatlanish vaqtida tartib saqlanishini ta’minlashi lozim.

Mahkumning ovqat yeishni rad etganligi fakti aniqlanganda jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘i yoxud uning o‘rnini bosuvchi shaxs bu haqda zudlik bilan prokurorni xabardor qiladilar.

Ovqat yeishni rad etdigan mahkum imkon qadar boshqa mahkumlardan alohida saqlanadi va tibbiyat xodimining kuzatuvi ostida bo‘ladilar.

Ovqat yeishni rad etgan mahkumning sog‘lig‘ini saqlab turishga qaratilgan majburlov yo‘sindagi (sun‘iy va majburiy ovqatlantirish tarzidagi) choralar, agar uning hayotiga yoki sog‘lig‘iga xavf tahdid solsa, shifokorning yozma xulosasi asosida hamda tibbiyat xodimi hozirligida amalga oshiriladilar¹⁰¹.

¹⁰¹ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

Mahkumning ovqat yeyishni rad etganligi uni boshqa jazoni ijro etish muassasasiga o‘tkazishga yoxud tergov harakatlarida va sud majlislarida ishtirok etish uchun boshqa yerga ko‘chirishga to‘sqinlik qilmaydilar. Zarur hollarda, mahkumni boshqa yerga ko‘chirish tibbiyat xodimi kuzatuvida amalga oshiriladilar.

5.5-§. Mahkumlarni ishga olib chiqish va ishdan olib qaytish, mahkumlar va fuqarolarni qabul qilish

Mahkumlarni mehnatga jalb etishdan asosiy maqsad ularda ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug‘ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iboratdir.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jinsi, yoshi, sog‘lig‘ining holati, mehnat qobiliyati va iloji boricha, ixtisosligi hisobga olingan holda ishlashlari kerak. Mahkumlarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik bilan, Jinoyat-ijroiya kodeksda nazarda tutilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda tartibga solinadilar.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar, odatda, jazoni ijro etish muassasalari va ular tashkilotlarining korxonalarida, ayrim hollarda esa, kerakli tarzda qo‘riqlash va batamom ajratib qo‘yish ta’milangan taqdirda, boshqa korxonalarda mehnatga jalb etiladilar. Mahkumlarning xususiy shaxslar foydasiga mehnat qilishiga yo‘l qo‘yilmaydilar.

Oltmisht yoshdan oshgan erkaklar, ellik besh yoshdan oshgan ayollar, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatga o‘z xohishlariga ko‘ra jalb etiladilar.

Mahkuma ayollar homiladorlik va tug‘ish munosabati bilan qonunchilikda belgilangan muddatga ishdan ozod qilinadilar.

Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda bajarish taqiqlangan ishlarda ayol va voyaga yetmagan mahkumlar mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydilar.

Mahkumlardan foydalanish taqiqlangan ishlar va lavozimlar ro‘yxati qonunchilik bilan belgilab qo‘yilgan.

Mahkumlar topshirilgan ishni halol, vijdonan bajarishga, mehnat va texnologiya intizomiga, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha talablarga rioya etishlari shart. Ularning mehnatga oid va boshqa nizolarni hal etish maqsadida ishni to'xtatib qo'yishi taqiqlanadilar¹⁰².

Mahkumlarni ishga olib chiqish va ishdan olib qaytishdan yigirma daqiqa oldin tezkor navbatchi tomonidan saflanish uchun tegishli signal beriladi va ular ajratilgan joylarda brigada va turkum bo'lib saflanadilar. Bunda mahkumlarning soni va tashqi qiyofalari ijtimoiy xodim tomonidan tekshirib chiqiladilar.

Ishga olib chiqish va ishdan olib qaytish e'lon qilinganidan keyin mahkumlar besh nafardan brigada bo'lib saflanadilar. Bunda har bir brigada oralig'i besh metr dan bo'lishi kerak.

Mahkumlar qorovul qo'shinlarining kunlik harbiy xizmatchilari va ijtimoiy xodim tomonidan tezkor navbatchi rahbarligida nazorat varaqchalari asosida ishga olib chiqiladilar va ishdan olib qaytiladilar.

Ishga olib chiqilayotgan mahkumlar jazoni ijro etish muassasa boshlig'ining buyrug'iga asosan vaqtı-vaqtı bilan, ishdan qaytishda esa har doim to'liqsiz shaxsiy tintuvdan o'tkaziladilar.

Mahkumlar jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati tomonidan jazoni ijro etish muassasa boshlig'i tomonidan tasdiqlangan jadval asosida shaxsan qabul qilinadilar. Bunda mazkur jadvaldan ko'chirma turar joylar sahnalariga osib qo'yiladilar.

Jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati tomonidan shaxsan qabul qilingan mahkumlarning hisobi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 20-ilovasiga muvofiq shakldagi daftarda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining, shuningdek, Jazoni ijro etish departamenti va tegishli mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlarining xodimlari tomonidan qabul qilingan

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 174-sonli buyrug'i.

mahkumlarning hisobi esa alohida daftarda qayd etiladi va ular jazoni ijro etish muassasaning devonxona kotibida saqlanadilar.

Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati tomonidan shaxsan qabul qilish natijalari bo'yicha qarorlar ijrosi jazoni ijro etish muassasa boshlig'i yoki u vakolat bergen shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib boriladilar.

Jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati mahkumning yaqin qarindoshlari va boshqa fuqarolarni jazoni ijro etish muassasa boshlig'i tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq qabul qiladilar.

Mahkumning yaqin qarindoshlari jazoni ijro etish muassasa ma'muriyatidan mahkumning ahvoli, sog'lig'i hamda unga nisbatan qo'llanil-gan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini to'g'risida yozma va og'zaki axborot olish huquqiga ega¹⁰³. Mahkumning yaqin qarindoshlari jazoni ijro etish muassasaga bevosita kelgan holda murojaat qilgan taqdirda, jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati tomonidan darhol javob berilishi lozim.

Mahkumning yaqin qarindoshlariga, shuningdek, advokatga ularning so'roviga asosan mahkumning xulq-atvori yuzasidan yozma ravishda tavsifnomasi beriladilar.

XVI BOB. JAZONI O'TASHDAN OZOD QILISH

6.1-§. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish

Sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar mahkum quyidagi hollarda jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin:

- muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda;
- jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda;
- kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli;
- amnistiya yoki avf etilganligi tufayli¹⁰⁴.

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 174-soni buyrug'i.

¹⁰⁴ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, shuningdek, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasida belgilangan tartibda qo‘llaniladi¹⁰⁵.

Mahkum jazo muddatining O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 73, 74, 89 va 90-moddalarida belgilangan qismini o‘tab bo‘lganidan so‘ng bir oylik muddat ichida jazoni ijro etish muassasa ma’muriyati uni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini agar mahkum yoki uning advokati tegishli iltimosnomaga bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo‘lsa ko‘rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarishi shart. Ushbu masalalar jazoni ijro etish muassasaning maxsus bo‘limi tomonidan ko‘rib chiqilib, mahkumlar ro‘yxati tayyorlanadi.

Mahkumni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishga yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga taqdim etish masalasini ma’muriyat tomonidan qayta ko‘rib chiqish jazoni ijro etish muassasa ma’muriyatining jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni rad etish haqidagi qarori chiqarilgan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach, basharti mahkum tuzalish yo‘liga o‘tgan bo‘lsa, amalga oshiriladilar¹⁰⁶.

Jazoni ijro etish muassasasining maxsus bo‘limi har oyda insonparvarlik tamoyillarini qo‘llash mumkin bo‘lgan mahkumlarning ro‘yxatini tayyorlaydilar. Mazkur ro‘yxat mahkumlarga e’lon qilish hamda jazoni ijro etish muassasasining ma’muriy komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilishini ta’minlash maqsadida tegishli hujjatlarni tayyorlash uchun ijtimoiy xodimlarga beriladilar.

Jazoni ijro etish muassasasining ma’muriy komissiyasi o‘z yig‘ilishlarini har oyda kamida ikki marta o‘tkazadilar. Komissiya tarkibiga jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘ining o‘rindbosarlari, jazoni ijro etish muassasasi bo‘lim va xizmatlarining boshliqlari kiritiladilar. Jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘i ma’muriy komissiya raisi, maxsus bo‘lim boshlig‘i esa komissiya kotibi

¹⁰⁵ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi – T.– lex.uz

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz

hisoblanadi va ijtimoiy xodimlari mahkumlarga oid zarur hujjatlarni komissiya kotibiga yig‘ilish tayinlangan kunga kamida uch kun qolganda taqdim etadilar.

Ma’muriy komissiya yig‘ilishlariga tayyorlanayotgan hujjatlarning sifati va o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘ining tartibot va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘ribbosari tomonidan amalga oshiriladilar.

Komissiya yig‘ilishlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi hamda jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘i tomonidan mazkur bayonnomalar asosida mahkumlarga insonparvarlik tamoyilini qo‘llash yoki qo‘llashni rad etish haqida qaror chiqariladilar.

Ma’muriy komissiya tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun hujjatlar o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi yuzasidan javobgarlik ijtimoiy xodimlari hamda jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘ining tartibot va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘ribbosari zimmasiga, hujjatlarni sudga bir hafta muddat ichida taqdim etilmaganligi bo‘yicha javobgarlik esa ma’muriy komissiya kotibi va jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘i zimmasiga yuklatiladilar.

Ma’muriyat mahkumni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga taqdim etishni rad etgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnama bilan murojaat etishga haqlidir.

Sud jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqda ajrim chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o‘tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnama takroran berilishi mumkin¹⁰⁷.

Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 75-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumni jazoni o‘tashni davom ettirishdan ozod qilish to‘g‘risida sudga taqdimnoma kiritadilar. Ayni bir

¹⁰⁷ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-soni buyrug‘i.

vaqtda sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildi yuboriladilar¹⁰⁸.

Mahkumni jazodan kasalligi tufayli ozod qilish to‘g‘risidagi taqdimnoma O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus tibbiy komissiyasi xulosasi asosida kiritiladilar.

Maxsus tibbiy komissiyaning yig‘ilishi haftada kamida bir marta mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalarda o‘tkaziladi. Alovida hollarda maxsus tibbiy komissiyaning yig‘ilishi boshqa jazoni ijro etish muassasasida ham o‘tkazilishlari mumkin.

Maxsus tibbiy komissiyaning ko‘rib chiqishi uchun hujjatlar kasalxona ma’muriyati yoki jazoni ijro etish muassasasining tibbiyat bo‘limi tomonidan tayyorlanadilar.

Maxsus tibbiy komissiyaning mahkumni kasalligi tufayli muddatidan ilgari jazo o‘tashdan ozod qilish mumkinligi to‘g‘risidagi xulosasi og‘ir kasallikka chalingan mahkumlarni tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish va ularni kasalligi tufayli jazoni o‘tashdan ozod qilishga taqdim etish qoidalariga muvofiq chiqariladi¹⁰⁹.

Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati maxsus tibbiy komissiya tomonidan mahkum va mahkumani kasalligi tufayli jazoni o‘tash muddatidan ilgari ozod etish mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqarilganidan so‘ng uch kun ichida hujjatlarni qaror chiqarish uchun sudga taqdim qiladilar.

Jazoni o‘tash davrida homiladorlik va tug‘ish ta’tili berilgan ayollarni jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi taqdimnoma bunday ta’til huquqini beruvchi tibbiy hujjat asosida kiritiladilar.

Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tegishli asos bo‘lgan taqdirda mahkum va mahkumaga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani sudga kiritish haqida prokurorga taqdimnoma yuborishi shart. Mahkumlarga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

¹⁰⁸ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya Kodeksi. – T., 2023-y. – lex.uz.

¹⁰⁹ O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 37-38-son, 385-modda.

6.2-§. Jazo ijrosini tugatish va jazoni ijo etish muassasalardan ozod qilish tartibi

Quyidagilar jazo ijrosini tugatish uchun asos bo‘ladi:

- mahkumning sud tayinlagan jazo muddatini o‘tab bo‘lishi;
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 163-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumning jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilinishi;
- sud hukmining bekor bo‘lishi va ish yuritishning tugatilishi;
- hukmning nazorat tartibida o‘zgartirilishi va jazoning shartli hukm bilan almashtirilishi;
- mahkumning vafoti.

Jazo ijrosi mazkur jazo muddatiga qonunchilik hujjatlariغا muvofiq kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda bu muddatning oxirgi kuni tugatiladi.

Agar jazo muddati dam olish yoki bayram kuni tugaydigan bo‘lsa, mahkum ushbu dam olish yoki bayram kunidan bir kun oldin ozod qilinadilar. Muddat oylar bilan hisoblangan taqdirda bu muddat keyingi oyning tegishli kuni, agar mazkur oyda shunday kun bo‘lmasa – shu oyning oxirgi kuni tugaydi.

Jazoni ijo etish muassasasi ma’muriyati mahkumni muddatidan ilgari ozod qilish to‘g‘risidagi hujjatlarni ish kuni tugaganiga qadar olgan bo‘lsa, shu zahoti, ish kuni tugaganidan keyin olgan bo‘lsa, ertasi kuni ertalab ijo etadi.

Jazoni ijo etish muassasasi mahkumlar ozod etilayotganda ular bilan to‘la hisob-kitob qiladilar, ularning shaxsiy hujjatlari, buyumlari va boshqa qimmatli narsalarini, shuningdek, shaxsiy hisobvaraqlarida turgan pullarini qaytarib beradilar hamda jazoni o‘tab bo‘lganlik yoki jazodan ozod qilinganlik to‘g‘risida belgilangan namunada ma’lumotnomaga beradilar.

Sil kasalligiga duchor bo‘lgan shaxslarning ozod qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarga belgilangan namunadagi shtamp qo‘yiladilar¹¹⁰.

Mahkum yoki mahkuma vafot etgan taqdirda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati bu haqda zudlik bilan marhumning yaqin qarindoshlaridan biriga telegraf yoki telefon orqali xabar qiladilar. Mahkum yoki mahkumaning vafoti haqida jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati darhol prokuror va yuqori turuvchi organni xabardor qiladilar.

Jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘i tomonidan mahkumning vafoti yuzasidan xizmat tekshiruvi tayinlanadi va sud-tibbiyot ekspertizasi yoki patologoanatomshifokorning xulosasi tekshiruv natijalariga ilova qilinishi shart.

Mahkumning jasadi uning qarindoshlariga jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tegishli tergovga qadar tekshiruv, shuningdek, sud-tibbiy ekspertizasi o‘tkazilgandan so‘ng tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning qarori yoxud sudning ajrimiga asosan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda beriladilar.

Mahkumning vafoti haqida yaqin qarindoshlariga xabar yuborilganidan so‘ng, qirq sakkiz soat ichida jasadni berish to‘g‘risida yoki yetib kelishi to‘g‘risida jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati xabar olmasa, mahkum jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda dafn etiladilar.

Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati mahkumning jazoni o‘tash muddati tugashiga uzog‘i bilan uch oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o‘rnashishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, uning jazoni ijro etish muassasasidan ozod bo‘lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ish olib boradilar. Bunda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan mahkum bilan uning ishga kirishi va turmushini yo‘lga qo‘yishi yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

¹¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-soni buyrug‘i.

Ishda va turmushda o‘rnashishga muhtoj shaxslar aniqlangan taqdirda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati oldindan mahkum yashashni mo‘ljallayotgan joydagi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi markazini uning ozod qilinishi, turar joyi bor-yo‘qligi, mehnat qobiliyati va ixtisosi to‘g‘risida xabardor etadi.

Ishga kirish va turmushini yo‘lga qo‘yishga ehtiyoji bo‘lgan mahkumlar hisobi alohida daftarda yuritiladi¹¹¹.

Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati ayni bir vaqtida ustidan ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorati o‘rnatalishi zarur bo‘lgan shaxslarni aniqlaydilar va O‘zbekiston Respublikasining «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan tartibda sudga tegishli taqdimnomaga kiritadilar. Ma’muriy nazorat ostiga olinishi lozim bo‘lgan mahkumlarning ozod etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga va uning nusxasining orqa tarafiga jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan «Turar joylarda hujjatlashtirilishi lozim» degan shtamp bosiladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinayotgan shaxslar yashashni mo‘ljallayotgan joyga yetib olishi uchun yo‘l hujjatlari, belgilangan norma bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari yoki pul kompensatsiyasi bilan ta’minlanadilar.

Ozod qilinayotgan shaxslarda mavsumiy kiyim va poyabzal, shuningdek, ularni sotib olishga pul bo‘lmasa, ular kiyim va poyabzal bilan bepul ta’minlanadi. Shu maqsadlar uchun ozod qilinayotgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan pul nafaqasi berilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati mahkumlarning ozod etilganligi to‘g‘risida:

■ birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga, homilador ayollar va yosh bolasi (bolalari) bor ayollarga, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan – ularning qarindoshlari yoki qarindoshlarining o‘rnini bosuvchi boshqa shaxslarni;

¹¹¹ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-soni buyrug‘i.

- ishga kirish va turmushini yo‘lga qo‘yishga muhtoj bo‘lgan shaxslarga nisbatan – viloyatlar (tumanlar, shaharlar) hokimliklari huzuridagi ijtimoiy moslashuv markazlarini;
- sil yoki tanosil kasalliklariga duchor bo‘lgan, shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolash kursini tugallamagan shaxslarga nisbatan – viloyat, shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari (bo‘limlari) yoki sog‘liqni saqlash organlarining davolash muassasalarini;
- ma’muriy nazorat o‘rnatilgan shaxsni jazoni ijro etish muassasasi-dan ozod qilishdan oldin u tanlagan yashash joyidagi ichki ishlar organiga sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risidagi qarorini ushbu shaxs yetib boradigan vaqt to‘g‘risida yozma ravishda xabar qilgan holda yuboradilar¹¹².

Ushbu bandda ko‘rsatilgan mahkumlar kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi oqibatida, amnostiya akti yoki avf asosida ozod etilgan hol-larda, shuningdek, mahkumlar jazodan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etilgan taqdirda, bildirish qog‘ozi ular ozod etilgan kuni jo‘natiladilar.

Mahkulmlarni ozod etish ustidan nazorat qilish uchun jazoni ijro etish muassasasining maxsus bo‘limi ozod etilishi lozim bo‘lgan mahkulmlarning oylik ro‘yxatini tayyorlaydilar. Bu ro‘yxatning bir nusxasi moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limiga, ikkinchi nusxasi esa mahkulmlarni tanishtirish uchun ijtimoiy xodimlarga beriladi.

Ozod etilayotgan mahkum va mahkumaga jazoni o‘tash muddati tugashiga ikki kun qolganida hisob-kitob qilish uchun jazoni ijro etish muassasasi moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limi tomonidan tegishli varaqqa beriladi. Mazkur varaqqa jazoni ijro etish muassasasi boshlig‘ining tartibot va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘ribbosari tomonidan imzolangach, to‘liq hisob-kitob qilish uchun moliya va moddiy-texnika ta’minoti bo‘limiga topshiriladi.

To‘liq hisob-kitob jazoni o‘tash muddati oxirgi kunining birinchi yarmida amalga oshiriladilar. Bunda mahkumga jazoni ijro etish muassasasi omborxonasida

¹¹² O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

saqlanayotgan buyumlari va boshqa qimmatli narsalari, shuningdek, shaxsiy hisobvarag‘ida qolgan pullari qaytarib beriladi.

Ozod etilayotgan mahkum va mahkumani jazoni ijro etish muassasasidan qarzdorligi yoki u bilan hisob-kitob o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi hamda shunga o‘xhash boshqa sabablar, uni jazoni o‘tash muddatini kechiktirish uchun asos bo‘lmaydilar.

Mahkumni jazoni o‘tash muddatidan kechiktirib ozod etilishi yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi va aybdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘riladilar. Bu haqda yuqori turuvchi organga hamda nazorat qiluvchi prokurorga darhol xabar qilinishi shart.

Mahkum chet el fuqarolarining ozod etilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini yoki konsullik muassasalari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilinadilar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida biror-bir davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi mavjud bo‘lmagan taqdirda, bunday davlatning vakolatli organini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ozod etilganlik to‘g‘risidagi bildirish qog‘ozi jo‘natiladi.

O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi bo‘yicha yashagan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lman shaxs ozod qilinayotganda jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati mahkum qamoqqa olinguniga qadar ro‘yxatga olingan joydagi ichki ishlar hududiy organining mamlakatga kirish, undan chiqish va ro‘yxatga olish bilan shug‘ullanuvchi tegishli xizmatini xabardor qiladilar.

Sog‘lig‘i holatiga ko‘ra doimiy parvarishga muhtoj shaxslar, shuningdek, o‘n olti yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslar qarindoshlari yoki boshqa shaxslar yoxud jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati vakilining kuzatuvida yashash joyiga jo‘natiladilar. Nogironligi bo‘lgan shaxslar va keksalar o‘z iltimosiga ko‘ra, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylariga (pansionatlarga) yuboriladilar.

Voyaga yetmagan mahkumlar ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga jo‘natiladilar. Ota-onasi yo‘q voyaga yetmagan shaxslar, zarur hollarda, internatlarga jo‘natiladi yoki homiylar qaramog‘iga beriladi¹¹³.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida inson qadrini ulug‘lash eng oliv qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Yangilangan Konstitusiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo‘yilgan. Yagona maqsadimiz –adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizni rozi qilish ekan bu yo‘lda Ichki ishlar organlari, ayniqsa jazoni ijro etish xizmati o‘zining zimmasiga yuklatilgan murakkab, ammo sharaflı vazifani amalga oshirib kelmoqda. Ushbu xizmatning eng asosiy vazifasi mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish, jazoni ijro etish muassasalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish, mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ishga joylashishga va maishiy hayotidagi ehtiyojlarini aniqlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek, ularning huquqbazarliklarni sodir etishining oldini olish maqsadida tarbiyaviy ishlar olib borishdan iborat. Ushbu yo‘lda ichki ishlar organlari xodimlari kuchli iroda, yuksak bilim va salohiyatga ega bo‘lishlari talab etiladi.

¹¹³ O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-soni buyrug‘i.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., – lex.uz.;
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. T., 2024. – lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2021. – lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonuni. – T., – lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 37-38-son, 385-modda.
9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi PF-3641-son farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgust kunidagi «Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lgan jazoni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3200-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me’yoriy hujjatlari

1. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 174-sonli buyrug‘i.

2. Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 05.03.2020 y. 128-son qaroriga 1-ilova).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdaggi 445-son qarori bilan «Jazoni ijro etish tizimi xodimlarining shaxsiy videoregistratorlar (bodikameralar) bilan ta’minlangan holda xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.

4. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tergov hibsxonalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 175-sonli buyrug‘i.

5. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2018-yil 6-iyundagi 154-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-2, 05.07.2018-y.) tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2018-y., 10/18/2495-2/1471-son

6. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 2-noyabrdagi 503-sonli buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 2495-7, 11.12.2023-y.) asosan kiritilgan – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2023-y., 10/23/2495-7/0930-son).

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2015-yil 6-iyuldaggi 109-sonli buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2495-1, 15.07.2015-y.) tahririda – O‘R QHT, 2015-y., 28-son, 378-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Sh.M. Mirziyoyev – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T., “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.;
2. Sh.M. Mirziyoyev – Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 48.;
3. Sh.M. Mirziyoyev – Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.;
4. Sh.M. Mirziyoyev – Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar

1. Якубов А.С. – Важный этап последовательной либерализации судебно-правовой системы Узбекистана // Правда Востока. – 2007. – 26 июнь.
2. Курганов С.И. – Уголовно-исполнительное право. – М., 2004. – С. 70.
3. Лелентал С., Вежбенский П. – Исполнение наказания видэ лишения свободы. –М.,1978. –С.

Internet saytlari

<http://mvd.uz>(O‘zbekiston Respublikasi IIV);

<http://ipkmvd.uz>(O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti);

<http://akadmvd.uz>(O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi);

<http://lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);

<http://uzsci.net> (Ilmiy ta’lim tarmog‘i);

<http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta’lim tarmog‘i).

<http://iivjied.uz/uz/node/>

<https://uza.uz/uz/posts/jazoni-izhro-etish-tizimida-insonparvarlik-tamoyillari-keng-qollanilmoqda>

<https://sudyalaroliymaktabi.uz/uploads/magazines/>

<https://xabar.uz/jamiyat/ozbekistondagi-qamoqxona?> O‘zbekistondagi jazoni ijro etish muassasalari va mahkumlar soni e’lon qilindi

<https://www.uzbekembassy.in/harakatlar-strategiyasi-doirasida/>

<https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/15/bodycamera/>

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

I BOB. OZODLIK DAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH

1.1-§.O‘zbekiston Respublikasi jazoni ijro etish muassasalari tarixi	6
1.2-§. Jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini huquqiy maqomi va tizimi	19
1.3-§. Jazoni ijro etish tizimida amalga oshirilgan islohotlar,	23
1.4-§. Jazoni ijro etish departamentning vazifalari va funksiyalari	38
1.5-§. Jazoni ijro etish departamentning huquq, majburiyatlari va javobgarligi ...	44
1.6-§. Jazoni ijro etish departament faoliyatini tashkil etish.....	47

II BOB. OZODLIK DAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI

2.1-§. Jazoni ijro etish muassasalarining turlari	53
2.2-§. Jazoni ijro etish muassasalarini jihozlashga qo‘yiladigan umumiy talablar .	5
2.3-§. Jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari va funksiyalari	57
2.4-§. Jazoni ijro etish muassasalarining huquqlari, majburiyatlari va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini tashkil etish	62

III BOB. KOLONIYALAR VA TURMALARDA JAZONI O‘TASH

3.1-§. Manzil-koloniyalarda jazoni o‘tash	66
3.2-§. Umumiy, qattiq, va maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o‘tash	70
3.3-§. Turmalarda jazoni o‘tash	74
3.4-§. Tarbiya koloniylarida jazoni o‘tash	77
3.5-§. Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni tash xususiyatlari	82
3.6-§.Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash tartibi va shartlari	86

IV BOB. JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAGI REJIM

4.1-§. Rejimning asosiy talablari	94
4.2-§. Jazoni ijro etish muassasasi hududiga kirish, undan chiqish, tintuv qilish va ko‘zdan kechirish	97
4.3-§. Mahkumlarning xulq-atvori ustidan nazorat, jazoni ijro etish muassasalariga tegishli ish qurollari, asbob-uskunalar va inventarlardan foydalanish	101
4.4-§. Mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch va maxsus vositalarni ishlatish hamda o‘qotar qurol qo‘llash	103

V BOB. JAZO IJROSINI TASHKIL ETISH

5.1-§. Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish	106
5.2-§. Mahkumlarni ko‘chirish	109
5.3-§. Mahkumlarning kun tartibi va mahkumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish	111
5.4-§. Mahkumlarning ovqatlanishi va mahkum ovqat yeishni rad etganda qo‘llaniladigan choralar	114
5.5-§. Mahkumlarni ishga olib chiqish va ishdan olib qaytish, mahkumlar va fuqarolarni qabul qilish	116

VI BOB. JAZONI O‘TASHDAN OZOD QILISH

6.1-§. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish	118
6.2-§. Jazo ijrosini tugatish va jazoni ijro etish muassasalardan ozod qilish tartibi	122

XULOSA	127
ASOSIY DABIYOTLAR	128

BEYSENOV KENJABAY SARSANBAYEVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
JAZONI IJRO ETISH FAOLIYATI**

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: T.P. Abdullayev

Bosishga ruxsat etildi ____ 2024-y. Nashriyot-hisob tabog'i: 8.375

Adadi: 5 nusxa. Buyurtma № _____. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,
100077. Toshkent shahar Husayn Boyqaro ko'chasi, 27 a-uy.